Рис. 3.2.2. Перспективы формирования производственных точек роста на базе минерально-сырьевых ресурсов в Республики Каракалпакстан¹ наличие трудовых ресурсов в густонаселенных районах.

III. По нашему мнению, в отдалённой перспективе с освоением месторождений Кусханатау, Порлытау и Белтау Чимбайский район превратится во второй центр химической промышленности и станет очередной точкой производственного роста в Каракалпакстане. На базе данного месторождения, кроме химической промышленности, имеется возможность развития промышленности строительных материалов.

IV. В отдалённой перспективе в связи с освоением месторождений природного газа осушенного дна Аральского моря, залежей сульфатных солей Аккала, которые пригодны для организации производства сульфата натрия, сульфата калия, поваренной соли, бишофита-сырья для получения металлического магния и производства керамзита на основе бентонитовых глин в Учсайском месторождении возможно сформировать Муйнакский район как ОПТР.

Использованные литературы:

1. Выступление Шавката Мирзиёева на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палаты Олий Мажлиса //«Народное слово», 16 декабря 2016 года, №248 (6653).

2. Солиев А., Каршибоева Л. Региональные проблемы промышленного производства (на примере Сырдарьинской области). - Гулистан, 2001. 98-с.

¹ Разработано автором.

3. Юсупов А.Т. Совершенствование отраслевой и территориальной структуры легкой промышленности Узбекистана. - Т.: Меҳнат, 1990. - С. 40.
4. Диаграмма составлена по данным главного управления статистики РК
5. Рассчитано автором на основе данных главного управления статистики РК.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ПАХТАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ МАСАЛАЛАРИ

Раджапов М.Я.

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Қорақалпоғистон жуда иссиқ ва қуруқ иқлим шароитларига эга чўл минтақасида жойлашган. Республиканинг иқлим шароити унинг географик жойлашган ўрнига ва ер юзасининг тузилишига қараб белгиланади. Йил давомидаги иссиқ кунларнинг сони, ҳавонинг харорати ва намлиги, натижали хароратнинг йиғиндиси, ёғин-сочиннинг миқдори, шамол кучи, унинг йўналиши ва бошқа кўпгина табиий омиллар ўсимликларнинг ўсиб ривожланиши учун, шунингдек қишлоқ хўжалик ишларини ўз вақтида сифатли олиб боришда катта аҳамиятга эга. Пахта етиштирувчи минтақаларнинг ҳудудларида совуқ бўлмайдиган кунларнинг давомийлиги бир-биридан сезиларли даражада ажралиб туради. Совуқ тушмайдиган, яъни вегетацион давр жанубида 202-207 кунга, шимолида эса 187-193 кунга тенг. Бу хусусиятлар деҳқончиликни олиб боришда ўз таъсирини текгизади.

Пахта ялпи ҳосилини кўпайтириш учун, биринчидан, ҳосилдорликни ошириш зарур. Ҳосилдорликни оширишда ҳудудга мос пахта навлари ҳамда алмашлаб экишни тўғри йўлга қўйиш муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистонда деҳқончиликнинг асосий қисми суғориладиган ерларда етиштирилади. Қорақалпоғистонда суғорилиб экиладиган деҳқончиликни, айниқса пахтачилик соҳасини ривожлантириш учун фойдаланишга яроқли 1,9 млн гектардан ортиқ ер мавжуд. Ҳозирги вақтда суғорилиб экиш учун тайёрланган экинлар майдони 501 минг гектарни ташкил этса, шундан пахтанинг экин майдони 100 минг гектарни ташкил этади. Қолган экин майдонлари донли экинлар, беда, полиз-сабзавот экинлари ва бошқа қишлоқ хўжалик экинлари учун фойдаланилади. Олимларнинг илмий-изланиш ишларининг натижаларига кўра Қорақалпоғистонда экин майдонларда ҳар бир 100 километрга шимолга борган сари пахтанинг ҳосилдорлиги 5 центнерга камайиши кузатилмоқда. Шунга боғлиқ Қорақалпоғистон республикасида қишлоқ хўжалик соҳаларини айниқса пахтачиликни ривожлантириш учун куйидаги илождарни ишга ошириш аҳамиятли.

1. Суғориб экиладиган деҳқончилик соҳаларидан олинадиган ҳосилдорликни кўпайтириш учун асосий ишлаб чиқариш қуроли сифатида ер ресурсларидан рационал фойдаланиш бош вазифа ҳисобланиши лозим.

2. Ирригация системаларини қайта таъмирлаш ва сувдан унумли фойдаланувчи технологияларни пахтачилик соҳаларига тадбиқ этиш орқали

ернинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва сувдан унумли фойдаланиш йўллариغا ўтиш зарур.

3. Минерал ва органик ўғитларни мақсадга мувофиқ фойдаланиб экин майдонларининг мелиоратив ҳолатларига қараб алмашлаб экиш структурасини тадбиқ этиш ва фан-техника янгиликлари, илғор тажрибалар асосида пахтачиликнинг ҳосилдорлигини мумкин қадар орттиришга эришиш зарур.

4. Янги иқтисодий ислоҳотлар асосида экин майдонларининг структурасига ўзгаришлар киритиш орқали ҳар бир гектар суғориб экиладиган майдон фондидан рационал фойдаланишга алоҳида эътибор бериб, пахтанинг ҳосилдорлигини мумкин қадар орттириб бориш асосий вазифа сифатида ҳисобга олиниши зарур.

5. Пахтачилик билан шуғулланувчи фермер хўжаликларида пахта яккахокимлиги тушунчасини чеклаб, экин майдонларнинг структурасида пахта учун ажратилган майдонларни 51-55 % атрофида чеклаб, қўшимча даромад келтирувчи соҳаларни танлаш ва ривожлантириш хўжаликнинг асосий вазифаси қилиб олиниши керак.

6. Республиканинг табиий-иқтисодий зоналарининг меҳнат ресурслари билан таъминланиш даражасини ва вегетацион даврдаги натижали ҳароратнинг йиғиндисига асосланиб пахтачиликнинг асосий ихтисослашган ҳудудларини белгилаш ва пахтачилик билан шуғулланувчи хўжаликларнинг рентабеллигини орттиришга эришиш зарур.

7. Орол экологик шароитида пахтанинг экин майдонларининг кўпчилик бўлимини жанубий ҳудудларга ўтказиш орқали шимолий ҳудудда ғаллачиликни, айниқса сувни кам талаб қилувчи буғдой, арпа, маккажўхори, оқжўхори ва чорвачилик учун ем-хашак экинларининг майдонини кўпайтиришни асосий вазифага айлантириш зарур.

8. Суғорилиб экиладиган қишлоқ хўжалик экинлари учун сарфланувчи сув нормаларини тежаш орқали ортган сув манбаларининг ҳисобидан ғалланинг экин майдонларини кенгайтиришга эришиш ва қўшимча қишлоқ хўжалик унумларини етиштиришга имкониятлар тузишни бош вазифалардан бири қилиб олиш зарур.

9. Қишлоқ хўжалиги соҳасида сарфланаётган ортиқча сувлар ва ер ости сувлар ҳисобидан яйловларни сувлантиришга кенг фойдаланиш орқали жанубий Орол денгизи минтақасида яйловларнинг ем-хашак захираларини кўпайтириш зарур.

Шундай қилиб, юқорида кўрсатилган чора-тадбирларни ва бошқа агротехника қоидалари билан биргаликда фойдаланиш, пахтачилик соҳаларини ривожлантиришга, айниқса республиканинг табиий-иқтисодий ҳудудлари миқёсида қишлоқ хўжалик соҳаларини ташкил қилишни такомиллаштиришга йўл очади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қорақалпоғистон республикаси статистика бошқармаси маълумотлари: Нукус, 2010-2018 йиллар.

2. Основные показатели социально-экономического развития Республики Каракалпакстан за 2017 год.-Нукус, 2018.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ОЙКОНИМЛАРИ ВА ИДЕОЛОГИК НОМЛАР

¹Турдимамбетов И.Р., ²Балтабаев О.О.

¹Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

²Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Ҳаммамизга маълумки, географик номларнинг пайдо бўлишида кўпроқ худудларнинг табиий географик хусусиятлари катта роль ўйнаши билан бирга, халқларнинг орзу-истаклари, хоҳиш-иродалари ва маънавий дунё-қарашларини ҳам кўришимиз мумкин. Буни биз Қорақалпоғистон Республикаси ойконим (аҳоли яшайдиган ҳар қандай жойнинг номи)лари мисолида кўрамыз. Идеологик номлар асосан халқнинг маънавияти, маданияти билан боғлиқ пайдо бўлади ва уларни кўпроқ ойконимларда учратамыз. Чунки ороним ва гидронимларга ном беришда асосан ўриннинг табиий географик хусусиятлари ҳисобга олинса, улардан фарқли равишда ойконимларга сунъий ном (географик хусусиятларини ҳисобга олмасдан номлаш) бериш мумкин.

Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг пайдо бўлиш тарихи узоқ ўтмишга бориб тақалади. Уларнинг номланишига қараб халқимизнинг юксак маънавият ва етук билимга эга эканлигини кўришимиз мумкин. Биз Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларини асосан идеологик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда қуйидагича гуруҳларга ажратишни лозим топдик (1-жадвал).

1-жадвал.

Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида идеологик номлар асосида пайдо бўлган ойконимлар

Идеологик ном тури	Ойконим номи	Туман номи	
Таълим, илм-фан, маданиятни ривожлантириш билан боғлиқ равишда пайдо бўлган аҳоли пункт номлари	Адебият	Қўнғирот	
	Ағартиў	Кегейли	
	Зиёли	Элликқалъа	
	Илимли	Чимбой	
	Мадений	Шуманай	
	Маданият		Беруний
			Қораўзак
			Шуманай
		Элликқалъа	
Халқимиз учун энг олий ва энг азиз неъмат ҳисобланган мустақиллик билан боғлиқ пайдо бўлган аҳоли пункт номлари	Ғалаба	Тўрткўл	
	Истиқлол		
	Мустақиллик		
	Келешек	Қораўзак	
	Озодлик		Нукус
		Тўрткўл	

		Хўжайли
	Тинчлик	Беруний
Инсонларни бирлигини, бирдамлигини, дўстлигини, бахтли ва обод ҳаёт кечиришини кўзлаган ва унга чақириш маъносидаги аҳоли пункт номлари	Баракат	Элликқалъа
	Бахитли	Чимбой
	Бирлашган	Амударё
		Нукус
		Шуманай
	Бирлик	Беруний
	Дўстлик	Беруний
		Мўйноқ
		Тўрткўл
		Хўжайли
		Элликқалъа
	Елабад	Қўнғирот
	Жанатилек	Қанликўл
	Кенес	Чимбой
	Қуралпа	Беруний
		Кегейли
		Қораўзак
	Обод	Беруний
		Кегейли
	Ободовул	Мўйноқ
Тахтақўпир		
Чимбой		
Шодлик	Хўжайли	
Халқобод	Беруний	
	Кегейли	
	Элликқалъа	
Янгиобод	Беруний	
Халқнинг меҳнат фаолияти ва меҳнатсеварлиги билан бошқаларга намуна бўлиши билан боғлиқ пайдо бўлган аҳоли	Бинокор	Элликқалъа
	Боғи бўстон	Қораўзак
	Бўстон	Беруний
		Қанликўл
		Элликқалъа
	Бўстонлик	Қўнғирот
	Гулистон	Тўрткўл
		Беруний
		Қўнғирот
		Хўжайли
	Захматқаш	Тўрткўл
	Илғорлар	Беруний
Меҳнатқаш	Амударё	
	Беруний	

пункт номлари	Меҳнатобод	Тўрткўл
	Мулик	Тахтакўпир
	Муликдор	Нукус
	Намуна	Беруний
		Тўрткўл
	Олғабос	Беруний
		Қораўзак
	Талапшановул	Қораўзак
Ўндириш	Беруний	
Ўрнак	Қўнғирот	
	Нукус	
Ёшлик ва байрам номлари билан аталган аҳоли пункт номлари	Жаслиқ	Қўнғирот
	Жеткеншек	Қўнғирот
		Эллиққалъа
	Наврўз	Қўнғирот
		Қанлиқўл
		Эллиққалъа
Ёшлик	Беруний	

Юқоридаги маълумотлардан билишимиз мумкинки идеологик номлар билан аталган ойконимлар Қорақалпоғистон Республикасининг деярли барча туманларида тарқалган. У номларда халқимизнинг нақадар эзгуликка интилишлари, дўст ва ҳамжиҳатликлари ўз аксини топган. Бундай номларнинг ҳар қадамда кўплаб учраши ёшлар онгида ижобий таъсуротлар қолдиришига ва уларни яхшиликлар сари етаклашига биз ишонамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Nakimov Q. Toponimika. T.: MUMTOZ SO'Z, 2016.
2. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Т.: Маънавият, 1998.
3. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974.
4. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Г. Топонимика. (Ўқув қўлланма). – Т.: Sharq, 2013.
5. Эназаров Т., Миракмалов М. Жой номлари маърифат ва маънавиятимиз рамзи // Marifat, 2007. №25(7946).
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY GEOGRAFIK ASOSLARI

Turdibekova Z.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Sanoat hozirgi kunda industrial davlatlar ishlab chiqarish sohasining asosini tashkil etadi. Sanoat hozirda jadal sura'tlarda rivojlanmoqda. Sanoatning asosini

yengil va og'ir sanoat tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak ularni to'g'ri joylashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Dastlab korxonalar joylashtiriladigan hududning umumiy tabiiy-geografik sharoiti aniqlanadi va baholanadi. Sanoat korxonalarini muayyan bir hududda joylashtirish juda murakkab masalalardan biridir. Bu borada ko'plab tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish lozim. Avvalo, sanoat korxonasi qanday xomashyo asosida ishlashi, qanday tayyor mahsulot chiqarishi, aniqlanadi. Undan tashqari sanoat korxonasini xomashyo, transport tarmoqlari, mehnat resurslari va iste'molchilarga nisbatan qulay joylashtirish asosiy maqsad hisoblanadi. Atmosfera havosi va suv havzalariga qanday chiqindilarni chiqarishi, bu chiqindilarning kimyoviy tarkibi, zarar yetkazish darajasi e'tiborga olinadi. Korxonaga tegishli bu masalalar jiddiy tahlil qilinganidan so'ng uni joylashtirish uchun hudud tanlanadi. Tanlangan hudud korxonani joylashtirish va uning muntazam faoliyat ko'rsatishi uchun har jihatdan qulay bo'lishi lozim. Dastlab korxonalar joylashtiriladigan hududda kuzatilishi mumkin bo'lgan zilzila kuchi va bali aniqlanadi va undan tashqari joyning relyefi, uni tashkil qilgan yotqiziqlar tarkibi, yerosti suvlari me'yori, iqlimi (ayniqsa, shamol yo'nalishi), yer usti suvlari xususiyatlari, tuproq va o'simlik qoplamlari, aholi yashash joylari o'rganiladi. Korxonalar zararli chiqindilarni ko'plab chiqaradigan bo'lsa (ko'mir asosida ishlaydigan GRES, qora va rangli metallurgiya korxonalarini, kimyo sanoati), ularni aholi yashaydigan manzilgohlardan uzoqda, shamol yo'nalishiga teskari bo'lgan hududlarda joylashtirish lozim. Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi, Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy gazni qayta ishlaydigan Muborak va Sho'rtan kimyo sanoati majmualari aholi manzilgohlaridan ancha uzoqda, cho'lda joylashganligi sababli ulardan tabiat va inson ko'radigan zarar juda oz miqdorda. Aholi zich yashaydigan vohalarda sanoat korxonalarini joylashtirish juda murakkabdirlar. Oltiariq va Farg'ona neftni qayta ishlash korxonalarini qurilishida hududning ba'zi xususiyatlari e'tiborga olinmaganligi tufayli keyingi vaqtlarda jiddiy ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Chunonchi, Oltiariqdagi korxonadan neft mahsulotlarining singib o'tishi tufayli yerosti suvlari ifloslanmoqda, tuproq tarkibi buzilmoqda. Quvasoydagi sement ishlab chiqaradigan korxonalar atrof-muhitni ko'pdan beri chang bilan ifloslab kelmoqda, chunki u baland tog' yonbag'irlari bilan o'ralgan botiqda joylashgan. Paxta tozalash korxonalarini ham asosan vohalarda joylashgan. Ulardan atrof-muhit ancha zarar ko'radi, ko'p miqdorda chang ajralib chiqishi sababli havo ifloslanadi. Binobarin, sanoat korxonalarini joylashtirishda, albatta, mahalliy tabiiy sharoit va aholi manzilgohlarining joylashuv xususiyatlari hisobga olinib, qurilish geografik tadqiqotlar orqali amalga oshirilishi kerak. Geografiyada bu boradagi tadqiqot ishlarini olib borishda dala izlanishlari natijalariga, statistik ma'lumotlarga tayanadilar. Bunda ular kartografik, qiyosiy, statistik, matematik va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanadilar. Bu usullar nafaqat yirik hududiy birliklarni o'rganishda, balki kichik bir ishlab chiqarish korxonasini iqtisodiy-geografik baholashda ham qo'l keladi. Bunda eng muhimi korxonalar qurish uchun aynan shu hudud tanlanganligining sababini aniqlash va uning iqtisodiy-geografik o'rnini baholash, iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Sanoat korxonalarini hududiy

joylashtirishda barcha geografik, ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rafiqov A., Vahobov H., Qayumov A., Azimov SH., “Amaliy Geografiya” Toshkent 2010 yil.
2. Bahritdinov .B., Jahon Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi Toshkent 2008-yil.
3. www.Geografiya.uz

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ТУМАНЛАРИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ РЕЙТИНГ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Худойбердиев Д.Н.

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб, иқтисодий ислохотларнинг пировард мақсади миллий иқтисодиётни таракқий эттиришга, мамлакатимизнинг иқтисодий – ижтимоий салоҳиятини, аҳолининг турмуш фаровонлигини юксалтиришга қаратилган. Бунда унинг турли вилоятлари ва айниқса ўзида улкан табиий ресурс, ишлаб чиқариш ҳамда демографик салоҳиятни мужассам қилган қишлоқ туманлари алоҳида ўрин тутади.

Мазкур тадқиқотда, республикамизда ўзига хос геосиёсий ўрни, табиий ресурс ва демографик салоҳияти билан ажралиб турувчи, аммо ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси кўрсаткичлари бўйича қуйи поғоналарда турувчи Сурхондарё вилояти ва унинг қишлоқ туманлари иқтисодий географик таҳлил қилиниб, рейтинглари аниқланади.

Бугунги кунда, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг ҳозирги ҳолатини чуқур таҳлил қилишда истиқболга йўналтирилган мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш учун уни комплекс баҳолашнинг ҳамда юзага келатган муаммоларни ҳал қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиққан ҳолда, уларга тезкорлик билан ва лозим даражада жавоб қайтаришнинг ягона мувофиқлаштирилган механизмини йўқлиги тўсқинлик қилмоқда.

Бу борада давлатимиз раҳбари томонидан қабул қилинган “Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги 2020 йил 1 май ПҚ-4702-сонли қарор муҳим аҳамият касб этади.

Ушбу қарорга асосан ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолатини баҳолаш қуйидаги 8 та устувор йўналиш белгиланади:

- иқтисодий ривожланиш ва самарадорлик;
- меҳнат бозори самарадорлиги;
- ижтимоий хизматлардан фойдаланиш имконияти ва сифати;
- инфратузилмадан фойдаланиш имконияти ва унинг ривожланганлиги;
- иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ва диверсификация қилинганлиги;
- ишбилармонлик муҳити сифати ва тадбиркорликни ривожлантириш;
- молиявий мустақиллик, банк-молия соҳасининг ривожланиши;

- маҳаллий давлат ҳоқимияти органларининг фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги ва маълумотларнинг очиклиги.

Юқоридагиларга асосан туман ва шаҳарларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолашнинг рейтинг кўрсаткичлари 1-иловага асосан амалга ошириш белгиланган.

1-илова

**Туман ва шаҳарларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолашнинг
РЕЙТИНГ КЎРСАТКИЧЛАРИ
(яқуний баҳо)**

№	Баҳолаш параметрлари	Ижтимоий-иқтисодий омиллар	Ўлчов бирлиги	Кўрсаткичларни ҳисоблаш методикаси
1	Иқтисодий ривожланиш ва самарадорлик кўрсаткичлари	Истеъмол нархлари индекси	фоиз	Ўтган йилнинг мос даврига товарлар (хизматлар) учун гуруҳ нарх индексларидан ўртача арифметик тортилган киймат
		Аҳоли жон бошига тўғри келадиган ҳудудий sanoat маҳсулотлари ҳажми	минг сўм	Ҳудудий sanoat маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
		Аҳоли жон бошига тўғри келадиган хизматлар ҳажми	минг сўм	Кўрсатилган бозор хизматлари ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
		Аҳоли жон бошига тўғри келадиган чакана товар айланмаси ҳажми	минг сўм	Чакана товар айланмаси ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
		Аҳоли жон бошига тўғри келадиган марказлашмаган инвестициялар ҳажми	минг сўм	Марказлашмаган инвестициялар ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
		Аҳоли жон бошига тўғри келадиган ҳудудий экспорт ҳажми	АҚШ доллари	Ҳудудий экспорт ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
2	Меҳнат бозорининг самарадорлиги кўрсаткичлари	Аҳоли бандлиги даражаси	фоиз	Иқтисодиётда банд бўлганлар сонининг иқтисодий фаол аҳоли умумий сонига нисбати
		Хотин-қизларнинг бандлиги даражаси	фоиз	Бандлиги таъминланган хотин-қизлар сонининг иқтисодий фаол хотин-қизлар сонига нисбати
		Вақтинча ишлаш учун хорижга кетганларнинг иқтисодий фаол аҳолининг умумий сонидagi улуши	фоиз	Вақтинчалик ишлаш учун хорижга кетганлар сонининг иқтисодий фаол аҳоли умумий сонига нисбати
		Меҳнат унумдорлиги	фоиз	ЯХМ солиштирма нархларда sanoatда банд бўлганлар сонига нисбатининг ўтган йилга нисбатан ўзгариши

3	Иқтисодиёт-нинг рақобатбар-дошлиги ва диверсифи-кацияси кўрсаткичлари	Саноат ишлаб чиқаришнинг экспортга йўналтирилганлиги	фоиз	Саноат ишлаб чиқариши экспорт ҳажмининг жами sanoat ишлаб чиқариши маҳсулотлари ҳажмига нисбати
		Аҳоли жон бошига истеъмол товарлари ишлаб чиқариш ҳажми	минг сўм	Истеъмол товарлари ишлаб чиқариш ҳажмининг доимий аҳоли ўртача йиллик сонига нисбати
		Қишлоқ хўжалигида сувни тежаш технологияларини жорий этиш даражаси	фоиз	Сувни тежайдиган технологиялар билан таъминланган майдоннинг қишлоқ хўжалиги ерларининг умумий майдонидagi улуши (ўрмон хўжалиги ерларидан ташқари)
4	Ишбилар-монлик муҳити ва тадбиркорликни ривожлан-тириш сифат кўрсаткичлари	Хорижий инвесторлар учун инвестициявий жозибадорлик	фоиз	Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларнинг умумий инвестиция ҳажмидаги улуши
		Кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари сони	бирлик	Ҳар 1000 аҳолига тўғри келадиган кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари сони
		Тадбиркорлик субъектларининг яшаб қолиши	фоиз	3 йилдан ортик фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектларининг фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектлари умумий сонидagi улуши
		Тадбиркорлик субъектларининг фаоллиги	фоиз	Рўйхатдан ўтган тадбиркорлик субъектлари умумий сонидa фаолият юритаётган ва «ноль» ҳисобот топширган тадбиркорлик субъектлари улуши (фермер ва деҳқон хўжаликларидан ташқари)
		Янги тадбиркорлик субъектларининг ўсиши	фоиз	Қайта (янги) ташкил этилган тадбиркорлик субъектларининг фаолияти тўхтатишган тадбиркорлик субъектлари сонига нисбати
		Кичик бизнесда янги иш ўринлари яратиш	фоиз	Яратилган иш ўринларининг умумий сонидa кичик бизнес субъектларида яратилган иш ўринларининг улуши

«География – келешекке нэзер» атамасындагы Республикалық илимий-теориялық конференция

5	Банк-молия соҳасининг молиявий мустақиллиги ва ривожланиш кўрсаткичлари	Аҳоли жон бошига маҳаллий бюджет даромадлари	минг сўм	(трансфертларсиз) доимий аҳоли сонига нисбати
		Ҳисобланган солиқ тўловларини йиғиш даражаси	фоиз	Ундирилган солиқларнинг ҳисобланган солиқларга нисбати
		Банклардаги аҳоли омонатлари ҳажми	минг сўм	Ҳар 100 минг кишига тўғри келадиган банклардаги аҳоли омонатлари ҳажми
		Тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг улуши	фоиз	Тижорат банкларининг жами кредит портфелида муаммоли кредитларнинг улуши
6	Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги ва маълумотларнинг очиқлиги кўрсаткичлари	Такрорий мурожаатлар сони	бирлик	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал ва Халқ қабулхоналари орқали маҳаллий давлат ҳокимияти органларига келиб тушган такрорий мурожаатларнинг ҳудудда истиқомат қилувчи ҳар 1000 кишига тўғри келадиган сони
		Қаноатлантирилган мурожаатлар улуши	фоиз	Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал ва Халқ қабулхоналари орқали маҳаллий давлат ҳокимияти органларига келиб тушган жами мурожаатлардаги қаноатлантирилган мурожаатлар улуши
		Маҳаллий ҳокимият органлари сайтларининг оммавийлиги даражаси	фоиз	Маҳаллий ҳокимият органлари сайтларига ташриф буюрувчилар сонининг ҳудуд аҳолиси сонига нисбати
7	Ижтимоий соҳадаги хизматларнинг ҳаммабплиги ва сифат кўрсаткичлари	Мактабгача таълим муассасалари билан қамраб олиш даражаси	фоиз	Мактабгача таълим муассасаларида тарбияланаётган болаларнинг 3 — 6 ёшдаги болалар умумий сонига улуши
		Умумтаълим мактабларининг юкламаси (смена)	коэффициент	Ўқувчилар ҳақиқий сонининг умумтаълим мактабларининг лойиҳавий қувватига нисбати
		Умумтаълим мактабларининг олий маълумотли педагог кадрлар билан таъминланганлик даражаси	киши	Умумтаълим мактабларида ҳар 1000 ўқувчига тўғри келадиган олий маълумотли ўқитувчилар сони
		Шифокорлар билан таъминланганлик	киши	Ҳар 10 минг кишига тўғри келадиган шифокорлар сони
		Аҳолининг касалхона койкалари билан таъминланганлик даражаси	бирлик	Ҳар 10 минг кишига тўғри келадиган касалхона койкалари сони
		Тез тиббий ёрдамдан фойдаланиш имконияти	бирлик	Ҳар 10 минг кишига шочилич тиббий ёрдам кўрсатиш автотранспорт техникалари сони
		Аҳолининг бирламчи касалликка чалиниши	киши	Ҳар 100 минг кишига тўғри келадиган биринчи марта ташхис қўйилган беморларда қайд этилган касалланишлар сони
		Оналар ўлими	коэффициент	Оналар ўлими сонининг ҳар 100 минг тирик туғилган чақалоқлар сонига нисбати
8	Инфратузилманинг ривожланиши ва ҳаммабплиги кўрсаткичлари	1 та яшовчига тўғри келадиган аҳолининг уй-жой билан таъминланганлиги	кв. м	Уй-жой фондининг майдони ўртача йиллик аҳоли сонига нисбати
		Аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминланганлиги	фоиз	Тоза ичимлик сув билан таъминланган аҳоли сонининг умумий аҳоли сонига нисбати
		Автомобиль йўллари узунлиги	минг кв.км. да км	Давлат ва маҳаллий аҳамиятга эга бўлган умумий фойдаланишдаги қаттиқ қопламали автомобиль йўлларнинг зичлиги
		Марказлашган оқава сув тизимига уланганлик	фоиз	Марказлашган оқава сув тизимига уланган аҳолининг умумий аҳоли сонига нисбати

Ҳозирги даврда Сурхондарё вилоятининг минтақавий сиёсатининг асосий йўналишларидан бири – бу, ўзининг мавжуд салоҳиятини намоён этиш ҳисобланади. Бунда, вилоятни барқарор ривожланишига тўсқинлик қиладиган ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишини фарқлаш муаммосини ҳал қилишдир. Вилоятнинг туманларини ривожланиш даражаларидаги фарқларни камайтиришга қаратилган асосий чора-тадбирлар тўплами вилоят минтақавий сиёсатни амалга оширишнинг самарали моделига ўтишни осонлаштиришга қаратилган бўлиб, унинг мақсади вилоятнинг мувозанатли ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашдир.

Сурхондарё вилояти маъмурий-ҳудудий бўлинишига кўра 14 та қишлоқ тумани ҳамда вилоят маркази – Термиз шаҳрини ўз ичига олади. Улар қуйидагилардир: Ангор, Бандихон, Бойсун, Денов, Жарқўрғон, Қизирик, Қумқўрғон, Музработ, Олтинсой, Сариосиё, Термиз, Узун, Шеробод, Шўрчи туманлари ва Термиз шаҳри. Шунинг билан бирга, вилоятимизда 7 та туманга бўйсунувчи шаҳарлар, 114 та шаҳар посёлкалари, 112 та қишлоқ фуқаролик йиғинлари, 865 та қишлоқ аҳоли пунктлари, 721 та маҳаллалар фаолият кўрсатмоқда.

Сурхондарё вилояти мамлакатимизнинг аграр ихтисослашуви кучли бўлган вилоятлардан бири сифатида, бошқа вилоятларга нисбатан ижтимоий-иқтисодий ривожланишда ортда қолиши, унинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши муаммоларини илмий тадқиқ қилиш ва уни туманлар даражасида ҳал қилишнинг географик хусусиятларини аниқлашни талаб қиладди. Шунга кўра, давлатимиз раҳбарининг қарорларида берилган баҳолаш кўрсаткичлардан фойдаланган ҳолда, Сурхондарё вилоятини қишлоқ туманлари кесимида ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари баҳоланади.

Бунда қиёсий таҳлил усулидан фойдаланган ҳолда, унинг энг оддий кўриниши – бу, рейтингини аниқлаш бўлиб, унда вилоят қишлоқ туманлари кўрсаткичлари бўйича сараланади, улар рейтинг қийматлари бўйича ижтимоий-иқтисодий ривожланиш поғонасидаги ўринлари шаклланади. Бунда туманларнинг қайси бир ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар бўйича юқори ёки паст ўрин эгаллаганлиги яққол намоён бўлади.

Шуларга асосланиб, вилоятнинг қишлоқ туманлари меҳнат бозорининг самарадорлиги кўрсаткичлари қуйидаги 5 та устувор йўналиш бўйича баҳоланади (2-илова).

2-илова

Мехнат бозорининг самарадорлиги кўрсаткичлари

№	Ижтимоий-иқтисодий омиллар	Ўлчов бирлиги	Кўрсаткичларни ҳисоблаш методикаси
1	Аҳоли бандлиги даражаси	фоиз	Иқтисодиётда банд бўлганлар сонининг иқтисодий фаол аҳоли умумий сонига
2	Хотин-қизларнинг бандлиги даражаси	фоиз	Бандлиги таъминланган хотин-қизлар сонининг иқтисодий фаол хотин-қизлар
3	Вақтинча ишлаш учун хорижга кетганларнинг иқтисодий фаол аҳолининг умумий сонидаги улуши	фоиз	Вақтинчалик ишлаш учун хорижга кетганлар сонининг иқтисодий фаол аҳоли умумий сонига нисбати
4	Мехнат унумдорлиги	фоиз	ЯҲМ солиштирма нархларда саноатда банд бўлганлар сонига нисбатининг ўтган йилга нисбатан ўзгариши
5	Мехнат бозорининг кескинлик даражаси	киши	1 бўш иш ўрнига ишсизлар сони (ишга жойлашишга муҳтож шахслар)

Бунда аҳолининг бандлик даражаси бўйича туманлар рейтинг даражаси қуйдагича аниқланди.

Аҳоли бандлиги даражаси					
					01.01.2021 й
№	Шаҳар, туман номи	Ҳисобот даврида иқтисодий фаол аҳоли сони (минг киши)	Ҳисобот даврида банд аҳоли сони (минг киши)	Аҳоли бандлиги даражаси (фоиз)	Баҳоланиши (балл) <i>эне юқори кўрсаткич 1,5625 балл билан баҳоланади ва қолганлари кўрсаткичи бўйича эне юқори баллга нисбатан мос равишда баҳоланади</i>
1к	2к	3к	4к	5к = (4к/3к) * 100	6к
1	Термиз ш	93,8	83,6	89,16	1,56
2	Олтинсой	79,4	70,4	88,63	1,55
3	Ангор	58,1	51,4	88,51	1,55
4	Бандихон	26,4	23,3	88,44	1,55
5	Бойсун	50,0	44,2	88,35	1,55
6	Музработ	59,9	53,4	89,26	1,56
7	Денов	153,4	135,9	88,59	1,55
8	Жарқўрғон	88,9	78,6	88,50	1,55
9	Қумқўрғон	99,1	87,6	88,37	1,55
10	Қизирик	35,0	30,9	88,23	1,54
11	Сариосиё	89,5	79,2	88,47	1,55
12	Термиз	47,5	42,0	88,38	1,55
13	Узун	73,3	64,9	88,50	1,55
14	Шеробод	85,5	75,8	88,67	1,55
15	Шўрчи	88,2	78,1	88,50	1,55

Аҳоли асосий баҳолаш кўрсаткичлари туманлар кесимидаги ўрни 3-иловага мувофиқ шаклланди.

3-илова

II. Меҳнат бозорининг самарадорлиги кўрсаткичлари
(умумий - 6,25 балл)

№	Шаҳар, туманлар номи	Жами балл	Аҳоли бандлиги даражаси	Хотин-кизларнинг бандлиги даражаси	Вактинча ишлаш учун хорижага кетганларнинг иқтисодий фаол аҳолининг умумий сонидagi улуши	Меҳнат бозорининг кескинлик даражаси
		1	2	3	4	5
1	Бандихон	5,05	1,55	1,55	0,81	1,15
2	Музработ	4,97	1,56	1,56	0,74	1,10
3	Бойсун	4,94	1,55	1,55	0,81	1,04
4	Ангор	4,82	1,55	1,55	0,74	0,98
5	Олтинсой	4,79	1,55	1,55	0,81	0,88
6	Узун	4,64	1,55	1,55	0,58	0,97
7	Термиз	4,55	1,55	1,55	0,45	1,00
8	Денов	4,55	1,55	1,55	0,35	1,10
9	Қумқўрғон	4,45	1,55	1,55	0,56	0,79
10	Термиз ш	4,40	1,56	1,56	0,41	0,88
11	Жарқўрғон	4,34	1,55	1,55	0,30	0,94
12	Шўрчи	4,22	1,55	1,55	0,28	0,84
13	Қизирик	4,14	1,54	1,54	0,00	1,05
14	Сариосиё	4,13	1,55	1,55	0,31	0,72
15	Шеробод	3,81	1,55	1,55	0,71	0,00

Меҳнат бозорининг самарадорлиги кўрсаткичлари бўйича вилоятда Бандихон ва Музработ туманлари мос равишда 1 ва 2 ўринларни ҳамда Шеробод ва Сариосиё туманлари охириги ўринларда турганлиги аниқланди.

Худди шундай ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолатини баҳолаш учун статистик кўрсаткичлар асосида қолган устувор йўналишлар бўйича натижалар аниқланди ва туманлар кесимида ўринлар 4-иловага мофиқ шакиллантирилди.

4-илова


Сурхондарё вилояти рейтингли кўрсаткичлари

Т/р	Шаҳар ва туманлар	Ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар						Рейтинг кўрсаткичлари йиғиндиси
		Иқтисодий ривожланиш ва самарадорлик	Меҳнат бозори самарадорлиги	Иқтисодиёт-нинг рақобатбардошлиги ва диверсификацияси	Ишбилармонлик муҳити ва тадбиркорликни ривожлантириш сифати	Банк-молия соҳасининг молиявий мустақиллиги ва ривожланиши	Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги ва маълумотларнинг очиқлиги	
		1	2	3	4	5	6	7
1	Бойсун	4	3	12	5	1	2	27
2	Денов	6	8	2	4	4	12	36
3	Термиз ш	1	10	3	10	13	1	38
4	Шўрчи	10	12	6	2	8	3	41
5	Жарқўрғон	3	11	1	6	12	10	43
6	Шеробод	5	15	4	3	5	15	47
7	Музработ	9	2	13	9	2	14	49
8	Қумқўрғон	12	9	7	7	9	6	50
9	Бандихон	15	1	10	1	15	9	51
10	Олтинсой	14	5	11	11	7	4	52
11	Ангор	8	4	8	14	11	7	52
12	Сариосиё	7	14	9	13	6	5	54
13	Термиз	2	7	5	15	14	11	54
14	Узун	13	6	14	8	3	13	57
15	Қизирик	11	13	15	12	10	8	69

Натижаларга кўра Бойсун, Денов тумани ва Термиз шаҳарлари ижтимоий-иқтисодий ривожланишига кўра юқори ўринни эгаллаб турганлиги ҳамда Узун ва Қизирик туманлар энг паст кўрсаткичларни эгалаганлиги аниқланди.

Шунга кўра туманлар куйидаги 5-иловага мувофиқ гуруҳларга ажратилди.

5-илова



Баҳолаш натижасида олинган ушбу кўрсаткичлар туманларни ривожланишнинг энг муҳим йўналишларини аниқлашга имкон беради. Бунда рейтинг кўрсаткичларидаги фарқлар, ушбу йўналишлар бўйича ишларни тўғри ташкил этиш зарурлигини белгилаб беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги 2020 йил 1 майдаги ПҚ-4702-сонли қарори.

2. Сульдина Г.А. Оценка сбалансированности социально-экономического развития муниципальных образований в регионе / Г.А.Сульдина, А.М.Хамидуллина // Вопросы экономики и права. – 2012.- №2.- С.111-115.

3. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон худудлари ижтимоий иқтисодий ривожланиши. Т., 2010.

4. surxonstat.uz

QORAQALPOG`ISTON HUDUDINING TABIATI VA TABIIY BOYLIKLARINING GEOGRAFIK O`RGANILISH TARIXI

¹Radjapov M.Ya., ¹To`lepov E.T., ²Baltabayev K.A.

¹Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

²Amudaryo tumani XTB qarashli 29-sonli o`rta maktab tarix fani o`qituvchisi

Xalqning ma`naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi o`ziga xosligi qayta tiklanayotgan jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo`lidan muvaqqiyatli ravishda olg`a siljitishda hal qiluvchi, belgilovchi ahamiyatga egadir.

Amudaryoning hozirgi, qadimiy del`tasida madaniy hayot juda erta boshlangan. Shu sababdan Qoraqalpog`iston hududida qadimiy arxitektura yodgorliklari, qadimgi odamlar yashagan makonlar juda ko`plab uchraydi. Arxeologik ma`lumotlarga ko`ra Qoraqalpog`istonda eramizdan avvalgi yillardayok ibtidoiy odamlar ovchilik, chorvachilik xatto dexqonchilik bilan shug`ullangan. Bularning hammasi shu davr odamlarining tabiat haqida ma`lum darajada bilimga ega bo`lganligini ko`rsatadi. O`lkamizning geografik o`rganilish tarixi ikki yarim ming yillik vaqtni o`z ichiga oladi. Buyuk grek olimi Gerodot, Arrian, Strabon va Ptolomey o`z asarlarida Orol bo`yi tabiati, rel`efi, dashtlari, daryolari, ko`llari va aholisi to`g`risida dastlabki ma`lumotlarni yozib qoldirgan. Qoraqalpog`iston hududi tabiati haqidagi geografik bilimlarning rivojlanib borishi o`rta asrlarda yashab o`tgan arab sayyohlari Ibn Xurdobek, Ibn Rustad, Al`-Ma`sudiy, Istarxiy, exud ibn Batuta va boshqalar yozib qoldirgan ma`lumotlar sirasiga kiritiladi.

Hozirgi Qoraqalpog`iston hududidagi o`zi yashagan davr geografiyasi bo`yicha ko`pgina ma`lumotlarni o`rta asrlarda yashagan mashhur Xorazm olimlari Xorazmiy va Beruniylarning asarlarida ko`rish mumkin.

Qoraqalpog`iston o`lkasini o`rganishda tabiiy geograik tasavvurlarning rivojlanishida buyuk komusiy olim, hamyurtimiz Abu Rayxon Beruniyning xizmatlari juda katta. U astronomiya, fizika, matematika, geografiya, geologiya, mineralogiya, kartografiya, etnografiya, botanika, tarix, adabiyot va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo`shgan va shu sohalarga bog`liq 150 dan ortiq asarlar yozgan. Shulardan «Xindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Kartografiya» kabi asarlar bizgacha etib kelgan.

XVII asrdan boshlab Turkiston o`lkasi bilan ruslar ham qizikib, Chor Rossiyasi hukumati hozirgi Qoraqalpog`iston hududida uning iqtisodi va tabiiy sharoitini o`rganish bo`yicha bir nechta kompleks ekspeditsiyalari tashkil etdi. Eng dastlabki tadqiqot ishlari Amudaryoning Uzboy orqali Kaspiy dengiziga tutashishini aniqlashga yo`naltirildi. 1879-1880 yillari rus olimi A.A.Gluxovskiy boshchiligidagi ekspeditsiya tadqiqot ishlarini olib bordi.

XX asrning ikkinchi yarmida Qoraqalpog`iston hududida geografik tadqiqot ishlarining hajmi ancha kengaydi. Hidrometeorologik kuzatish joylari ko`paydi. 1932 yili A.I.Smol`ko Qoraqalpog`iston hududining neft` va gazga boy ekanligini isbotlab berdi. 1937 yildan boshlab S.R.Tolstov boshqargan «Xorazm» etnografik

ekspeditsiyasi uzoq yillar davomida o'lkamizda ishlab, 1960 yili Amudaryoning quyi oqimi, Sariqamish, Uzboy haqida asarni nashrdan chiqardi.

Qoraqalpog'iston hududining er osti qazilma boylik konlarini, o'simlik va hayvonotlar dunyosini, agroiklim resurslarini, tuprog'ini. ekologik muhitni, iqtisodiy geografik muammolarini o'rganishda taniqli olim akademik O.Akramxodjaev, professor A.Rafikov, professor J.Matmuratov, dotsent A.Bekbo'latov, olim J.Samanov, professor E.Umarov, professor B.Jolibekov va boshqalarning hissalari benihoya katta bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T., O'qituvchi, 1996.
2. Hasanov I., Gulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (1-qism). O'quv qo'llanma.-T.: O'qituvchi, 2007.
3. Umarov E.K. Qaraqalpaqstanning ekonomikalik ha'm sotsialliq geografiyasi. JOO lari ushin sabaqliq. - Nokis.: Qaraqalpaqstan, 2014.

ХАЛЫҚҚА ХЫЗМЕТ КӨРСЕТИҮ ДӘРЕЖЕСИНИҢ ӘПИҮАЙЫ КӨРСЕТКИШЛЕРИ

Узақбаев Қ.К.

Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Хәзирги ўақытта хызмет көрсетиў тараўлары ямаса үшінши сектор (третичный сектор) дүнья жүзиниң көплеген мәмлекетлеринде экономикалық раўажланыўдың тийкарғы бағдарына айланды.

Хызмет көрсетиў дегенде, халықтың хызметлерге болған талапларының туўрыдан-туўры қанаатландырыў ушын өндирислик хәм өндирислик емес тараўлардың улыўма ўазыйпаны бирлестиргени түсиниледи (1).

Хызмет көрсетиў тараўлари географиясы халықтың хызметлерге болған мутәжликлери хәм қанаатланыў дәрежеси бойынша аймақлық айырмашылықларды, сондай-ақ хызмет көрсетиў тараўының аймақлық шөлкемлестирилиўин үйренеди (2).

География пәнинде хызмет көрсетиў тараўлары географиясы, әсиресе оның базар шараятында раўажланыўы, экономиканың басқа тармақларына қарағанда кемирек үйренилген.

Хызмет көрсетиў тараўлары бойынша илимий-изертлеўлер Абрамов М.А., Алексеев А.И., Ковалев С.А., Ткаченко А.А., Покшишевский В.В., Меркушова Л.А., Беленкий В.Р., Манак Б.А., Николский И.В. хәм басқалар тәрәпинен әмелге асырылған. Өзбекстанда хызмет көрсетиў тараўларын географиялық жақтан үйрениў бойынша Эргашев О., Абдурашидов Б., Солиев А., Назаров М., Оллояров Н., Жураев Т. хәм басқалардың мийнетлери жәрияланған (3).

Хызмет көрсетиў дәрежесин математикалық есаплаў жоллары арқалы хызмет көрсетиў дәрежесин анықлаў мүмкин. Өз алдына пайдаланыўға болатуғын ямаса әдеўир қыйынырақ болған, интеграллық көрсеткишлер сыпатында пайдаланыўға болатуғын хызмет көрсетиў дәрежесиниң әпиўайы

көрсеткіштерін қарап шығамыз. Керекті болған улыымалық белгілерді енгіземіз: i – хызмет көрсетіу дәрежесі есаплап шығылатуғын аймақлық бирлік (ауыл, қала, район, область), m – хызмет көрсетіу тарауы ямаса тури болып табылады.

1. Ең кең тарқалған хэм универсал хызмет көрсетіу дәрежесі көрсеткіші – халықты белгилі бир O_i^m хызмет көрсетіуі менен тэмийинленіуі болып, ол потенциал ретінде сыпатлау ушын да, сондай-ақ, хақықый хызмет көрсетіу ушын да пайдаланылуы мүмкін. Бул – 1, 1000, 10000 адамға есаплап шығылған жан басы көрсеткіші есапланады.

$$O_i^m = \frac{F_i^m}{H_i}$$

Бул жерде F_i^m – хызмет көрсетіу қуаты ямаса көлемі, H_i – халық саны.

2. (Z_m^i) жүкленіу көрсеткішін тэмийин етилгенлігіне қарата кері түрінде анағурлым сийрек пайдаланылады. Мекемедегі жүкленіуді, ондағы муғдар натурал (хақықый) бирлігін (мысалы, залдағы орынларды, емлеуханалардағы койкаларды) ямаса хызмет көрсетіуші хызметкердің (бир врачтың, муғаллимнің) жүкленіулерін есаплап шығыуға болады:

$$Z_i^m = \frac{H_i}{F_i^m}$$

Бул жерде H_i – муғдары улыума халықтың ямаса белгилі бир хызмет көрсетіуші (мысалы, мектеп жасындағы балалар) тутыныушылардың санын көрсетеді. Жүклеу көрсеткіштері – потенциал (итималлы).

3. Аймақлық хызмет көрсетіу шөлкемлерін сыпатлау ушын хызмет көрсетіу мекемелерінің қолайлы (оңай) болған көрсеткіштері пайдаланылады. Бул мәселе хәр қыйлы шешиледі хэм бул биз анық бир пункттегі (точкадағы) жасаушылар ушын болған қолайлықты есаплап шығыуды қәлеймизбе ямаса қандай-да бир аймақтың жасаушылары ушын қолайлықты есаплап шығыуымызға байланысly болады.

Конкрет (анық) бир точка ушын қолайлық ара қашықлықлар километрлерде (r) ямаса уақыттын сарыпланыуларында саатларда (t) сыпатланады. Бул көрсеткішлердің әхмийеті (мәниси) қанша көп болса, әлбетте соншелли хызмет көрсетіу дәрежесі төмен болады. Сонлықтан да оларды «негатив» (кери, унамсыз) көрсеткішлер деп сыпатлауға болады. «Негатив» (кери, унамсыз) хэм «тууры» көрсеткішлерді (тэмийинленгенлік сыяқлыларды) биргеликте пайдаланыу шийеленіушиликке алып барады, сонлықтан да «негатив» (кери, унамсыз) көрсеткішлерге әпиуайы «тууры»

көрсеткішлердің түсін келтіріуі ақылға уғрас болады. Буның ушын бул көлемлерди дәрежеге көтерип алса $\mathbf{1} = \frac{\mathbf{1}}{2}, \frac{\mathbf{1}}{t}$ жеткиликли болады.

Бирақ, егер r яки t нольге тең болып, ара-қашықлық жоқ болса, бул көрсеткішлерди есаплап шығыу мумкин емес. Олардың формасын өзгертиуі (модификациялау) керек болады (k – қолайлық коэффициенті):

$$k_i^{rm} = \frac{\mathbf{1}}{\mathbf{1} + r_i^m}, \quad k_i^{tm} = \frac{\mathbf{1}}{\mathbf{1} + t_i^m}$$

Қандайда бир аймақтың барлық халқы ушын қолайлықты есаплап шығыуда яки муғдардың орташа мәніси болған r ямаса t дан, яки k^r ямаса k^t дан пайдаланылады, яки хызмет көрсетиуі объектлери арасындағы d «орташа теоретик аралық» деп аталыушы табылады. Елатлы пунктлер әдетте халықтың тығызлығы жағынан тийкарынан өзгешелениуі себепли, қолайлық көрсеткішлердің орташа арифметикалық түрін қолланыу мумкин емес. Оларды халықтың тығызлығы бойынша өлшеп көриу керек (P):

$$k_i^{rm} = \frac{\sum_i k_i^{rm} \times p_i}{\sum_i p_i}, \text{ яки } k_i^{tm} = \frac{\sum_i k_i^{tm} \times p_i}{\sum_i p_i},$$

Бул жерде: I – көплеген i пунктлерди бирлестирип турыушы аймақтың индекси.

Орташа теоретикалық аралықтың муғдары d хызмет көрсетиуши мәкемелер аймақта бир тегис тең бөлистририлген жағдайда хәм d бир теңлемеге келетуғын естеги (ойдағы) квадрат тәрепте есапланған жағдайда табылады:

$$d_i^m = \sqrt{\frac{S_i}{n_i^m}}$$

Бул жерде S – аймақтың көлеми; n – бул турдеги объектлердің саны.

r хәм t көрсеткішлери сыяқлы d көрсеткіши де өзиниң мәніси бойынша «кери, унамсыз» болады, бирақ оны да «тууры» түрге аңсат айландырыуға болады (ол нольге тең бола алмайды):

$$k_i^{dm} = \frac{\mathbf{1}}{d_i^m}$$

Хақыйқый (факт) әхмийетине қарай табылған қолайлық көрсеткішлери теоретикалық жол менен есаплап шығылғанға қарағанда анағурлым анығырақ болады, бирақ олар анағурлым көбирек жумыс сарыпланыуын талап етеди.

Сонлықтан-да, изертлеушілер айтарлықтай көбірек орташа аралықтағы көрсеткішлерден пайдаланады.

Қарап шығылған көрсеткішлердің барлығы хызмет көрсетиуді қабыл етиу мүмкіншіліклерін сыпатлайды хәм хызмет көрсетиу дәрежесіндегі потенциал көрсеткішлерге жатады.

4. Хызмет көрсетиудің белгили бир түри менен халықты қамтыу әхмийетли сыпатлама болып саналады. Ол хызмет көрсетилген адамлар санының (әдетте бир жыллық) улыўма халық санына өз ара қатнасы болып табылады:

$$A_i^m = \frac{N_i^m}{H_i},$$

бул жерде A – халықтың қамтылыўы; N – хақыйқый (факт) тутыныўшылар саны.

Тараўдың өзине тән айырмашылығына (спецификасына) қарай A муғдарын халыққа хызмет көрсетилиўине, қатнасыўына, мурәжәт етиу санына, жеделлигине қарай ат берийге болады. A – хақыйқый (факт) көрсеткіш (4).

Солай этип, үйренилип атырған илимий бағдар курамалы дүзилiske ийе болып, хызмет көрсетиу дәрежесин анықлау хызмет көрсетиу географиясының ең тийкарғы ўазыйпаларынан бири болып, оны үйрениу арқалы халыққа хызмет көрсетиу географиясының тийкарғы көрсеткішлерин изертлеу мүмкин.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Абрамов М.А. География сервиса (Сфера обслуживания в СССР). – М.: Мысль, 1985. – 255 с.
2. Анисимова В.В., Романова И.А., Некрасова М.Л. География сферы обслуживания (третичный сектор экономики). – Краснодар.: КубГУ, 2017. – 296 с.
3. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. – Т.: 2003.
4. Алексеев А.И., Ковалев С.А., Ткаченко А.А. География сферы обслуживания: основные понятия и методы. – Тверь.: ТверьГУ, 1991. – 117 с.

КОМПЛЕКСООБРАЗУЮЩАЯ РОЛЬ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕГИОНА

Ешимбетов У.Х., Абдираманов Ж.Б., Абдинасыров К.

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Отрасли промышленности, которые технологически, организационно, хозяйственно соприкасаются в сфере добычи, переработки и потребления минерального сырья, составляют минерально-сырьевой комплекс. Его специфику определяют такие факторы, как:

- определяющая роль природного фактора на изменение основных индикаторов функционирования предприятий и дифференциацию индивидуальных затрат на изучение, разведку и добычу минерального сырья, которые существенно различаются во времени;

- ограниченность запасов как сырьевой базы для развития промышленности, т.е. природных ресурсов, рано или поздно оказывается недостаточными для дальнейшего расширения общественного производства, так и зависимость загруженности производственных мощностей от их количества и качества, а также специфики развития отрасли;

- продолжительность воспроизводственного цикла, включающего в себя геологические исследования, проектирование, строительство, уровень использования проектных мощностей, определяющего длительность временного лага от вложения средств до получения прибыли.

Таким образом, минерально-сырьевой комплекс является очень широкой и сложной взаимосвязанной производственной (технологической) системой, включающей в себя добычу, обогащение и последующей переработки ресурсов минерального сырья. Его специализация и эффективное функционирование зависят от масштабности, количественного и качественного состава минеральных ресурсов. Формирование и развитие минерально-сырьевого комплекса обеспечивает комплексного использования всех видов полезных ископаемых и устойчивого регионального экономического роста в долгосрочной перспективе.

В специальной литературе территориальной минерально-сырьевой комплекс описаны как территориальные сочетания естественных ресурсов. А.А. Минц предлагает определять понятие «территориальное сочетание естественных ресурсов» так: это источники ресурсов различного вида, расположенные на определенной целостной территории и объединяемые фактическим или перспективным совместным использованием в рамках единого производственно-территориального комплекса.

Надо подчеркнуть, в экономической и экономико-географической литературе часто встречается понятие производственно-территориальный комплекс. Это понятие в принципе не совпадает с понятием территориально-минеральный комплекс. Однако эти объективно существующие качественно различные системы, будучи совмещены в территориальном отношении, взаимодействуют и, следовательно, взаимно влияют друг на друга.

Очевидно, подобное определение можно было бы принять и для территориального минерально-сырьевого комплекса. Формирование территориального минерально-сырьевого комплекса на базе не каждого сочетания минеральных ресурсов, а только на базе минерального комплекса, когда в его состав входят месторождения, освоение которых имеет комплексобразующее значение. Обязательные условия выделения территориального минерально-сырьевого комплекса – рациональная специализация комплекса горнодобывающих и перерабатывающих

производств на определенной целостной территории; наиболее полное и эффективное использование минеральных и удовлетворение хозяйства.

Исходя из этого можно сделать вывод, что территориальной минерально-сырьевой комплекс представляет собой естественно сложившаяся территориальная совокупность различных видов полезных ископаемых, на базе которых в рамках рациональной специализации и создание группы добывающих и перерабатывающих производств, которые обеспечивают эффективное комплексное использование минеральных, материальных и трудовых ресурсов. Территориальный минерально-сырьевой комплекс – это часть народохозяйственного комплекса, который во многих случаях формируется на основе добыча и переработке местных минерально-сырьевых ресурсов. Формирующиеся территориальной минерально-сырьевой комплекс далеко не во всех случаях совпадают с границами внутриобластных районов. Иногда они охватывают районы смежных областей (пример – ТМСК в районе Курской магнитной аномалии). Интенсивное использование минеральных ресурсов как часть общего процесса хозяйственного освоения возможно при определенной подготовленности территории к дальнейшему экономическому развитию. Такие условия благоприятствуют мобилизации факторов интенсивного развития и формирования территориальной минерально-сырьевой комплекса.

В Республике Каракалпакстан формируется два территориальной минерально-сырьевой комплекс. Первый Кнуградский территориальной минерально-сырьевой комплекс. Она формируется на базе освоения и переработке углеводородного сырья и минеральные соли. Здесь работает Устюртский газо-химический комплекс и Кунградский содовой завод. Второй Султанувайский территориальной минерально-сырьевой комплекс. формируется на основе добыча и переработка строительных материалов. По административном отношении она принадлежит Беруниском и Караузякском районам.

В нем также выделяют вертикальные и горизонтальные структуры. Первая дифференцируется по видам и группам минерального сырья, а вторая – по территориальному признаку и специализации, на основе которых формируются как отраслевые, так и межотраслевые структуры (например, топливно-энергетический комплекс). Такая структуризация позволяет оценить отраслевые и межотраслевые воспроизводственные процессы, обеспечить научную обоснованность и сбалансированность структурных элементов комплекса.

Для регионов с действующим минерально-сырьевым комплексом его развитие заключается главным образом в совершенствовании и диверсификации функционирующих производств на основе:

- сложившейся структуры освоения местных минерально-сырьевых ресурсов;
- удельного веса отдельного вида минерального сырья в удовлетворении региональных и межрегиональных потребностей, его экспорте;

- действующих технологических и организационно-экономических связей;
- тенденций развития и анализа внутренних и внешних факторов, характеризующих рынок производства и труда промышленности региона;
- экологических ограничений вследствие уязвимости окружающей среды к антропогенной деятельности и высокой концентрации промышленного производства в регионе;
- возрастающей роли комплекса в стимулировании процессов урбанизации.

Стратегия организации и функционирования минерально-сырьевого комплекса заключается в достижении следующих приоритетов:

- оптимизация для конкретных региональных условий уровня добычи минерально-сырьевых ресурсов и утилизации отходов;
- рациональное использование природно-экономического, трудового, инновационного потенциала;
- применение техники и технологии добычи переработки минерального сырья с учетом особенностей конкретных месторождений региона для максимального уровня извлечения ценных веществ, эффективной переработки и утилизации сопутствующих компонентов;
- разработке и внедрении экономических стимулов для обеспечения эффективного развития предпринимательства в сфере добычи и переработки местного минерального сырья.

Вместе с тем, независимо от уровня развития производительных сил территориальные минерально-сырьевые ресурсы представляют собой относительно замкнутую систему с ограниченными возможностями удовлетворения спроса. При этом, исходя из их экономических характеристик, следует выделить их как регионального фактора роста промышленного производства. Во-первых, локализация по территории, что зачастую ограничивает перевозку минерального сырья вследствие значительных транспортных издержек. Это существенно отличает их от финансовых, инновационных и трудовых ресурсов, относительно свободно перетекающих между регионами. Во-вторых, комплексобразующая роль минерально-сырьевых ресурсов, стимулирующая реализацию различных социально-экономических и инфраструктурных проектов. В-третьих, именно комплексное освоение локальных минерально-сырьевых ресурсов обеспечит базис, как для развития местной промышленности, так и для всего хозяйства региона.

Ma’lumotlarga ko’ra, Respublikamizda band bo’lgan aholining 37,5 foizi qishloq va o’rmon xo’jaligida, 13 foizi transport va aloqada, 8,5 foizi savdo, umumiy ovqatlanish korxonalarida, 12,4 foizi ta’lim, madaniyat, fan va ilmiy tadqiqotlarda, 6 foizi sog’liqni saqlash va sportda, 12,7 foizi uy-joy xo’jaligi, aholiga maishiy xizmat ko’rsatishda, 8,6 foizi boshqa yumushlarda hisoblanadi. Umumjahon doirasida bu ko’rsatgich o’rtacha holatda. Ammo, mehnat resurslarni ortiqchaligi, ayniqsa qishloq aholisi orasida ko’proqdir. SHuning uchun kelgusida mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining ish bilan ta’minlashga asosiy e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bular uchun qo’shimcha ish

o'rinlarini yildan-yilga oshirib borish lozim. Albatta, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik va o'rta sanoat korxonalarini rivojlantirish kerak.

Keyingi vaqtda yetishtiriladigan paxta tolasini 30 foizdan ortiqrog'i qayta ishlab chiqarishga olinadi, qolgan katta miqdori eksport qilinadi. Buni tushunib-tushunmay ayrim kishilar, xatto menbarlarda biz paxta tolasini eksport qilishda 2 o'rindamiz deb maqtanadilar, bu mutloq noto'g'ri mubolag'alar.

Iloji boricha yetishtiriladigan paxta tolasini katta foizini o'zimizda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishilsa, qanchadan-qancha mehnat resursi band bo'ladi. Bu o'rinda Xitoy davlatidan andoza olish maqsadidir.

Tayyorlanadigan pillani ham katta foizi chetga sotiladi. Bu noyob boylikni qani endi hammasini o'zimizda qayta ishlab chiqarib, sharqona chiroyli choyi gazlama-atlaslar tayyorlash kengaysa. Bunga nisbatan milliy urf-odatga bog'langan holda reklamalar oshirilsa, ular hech qachon o'z qadrini yuqotmaydi. Hatto chetdan kelgan sayyohlar ham muntazam uni xarid qilishga intiladi.

O'zbekistonda jun yetishtirishga nisbatan uni qayta ishlab chiqarish gilamdan tashqari gazlama yoki kiyim-kechaklarda sezilmaydi. Teri-poyafzal ishlab chiqarish sohasida sifatli mahsulotlar tayyorlash, taqqoslaganda Germaniya bilan qo'shma korxonada sifatida Farg'ona shahrida bor desa bo'ladi. Qolgan oldin mavjud bo'lgan teri-poyfzal fabrikalari bor-yo'g'ini bilish qiyin. Terilarni chetga xomashyo tariqasida sotish o'rniga, o'zimizda qayta ishlab chiqarishni kengaytirish ham ishchilarni ish bilan ta'min etishda katta yordam beradi.

SHuningdek, aholisini ish bilan band qilishda transport va aloqa tizimini yanada rivojlantirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ular orasida hammom masalasi, ayniqsa qishloqlarda ayanchli ahvolda ekanligini e'tirof etish va ularga xizmat ko'rsatishni yaxshilab borish, ko'plab ishchi kuchini jalb etish mumkin.

Respublika tarixiy obidalariga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, SHahrisabz va boshqalarni turizm shaharlari desa bo'ladi. Ularda yanada jozibali, go'zal, sharqona binolarni barpo etib mahalliy sanoat tarmoqlarini oshirish va reklamasini kengaytirish maqsadlidir. SHu bilan birga qadimiy, mahalliy urf-odat, kasb-hunar ishlariga tayangan holda nonvoylik, zargarlik, holvapazlik, novotpazlik, parvardapazlik, nishollopazlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, gilamchilik, kashtachilik, tikuvchilik, duppido'zlik, etikchilik, o'tovsozlik, tegirmonchilik, toshqaroshlik, beshikchilik, tunukaso'zlik, sandiqso'zlik, pichoqchilik, chinniso'zlik yog'och uymakorlik, qoshiqtaroshlik, ipchilik, kigizchilik, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik va boshqalarni ishlab chiqarilishi oshirilib borilsa, qanchadan-qancha ishchi kuchi bandligi ortadi. Albatta mehnat resurslaridan unumli foydalanishni asosiy omillaridan biri mehnatga haq to'lash, ya'ni oylik maosh sistemalariga ko'proq e'tibor qaratilishi yuqori natija garovi hisoblanadi.

Xullas, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ijobiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samotov G'. A, Rustamova I. B ., SHeripbayeva U. A., Qishloq xo'jaligi iqtisodiy va menejment – T. 2012.

2. A. Qayumov , I. Safarov , M. Tillaboyeva . “ Jahon sotsiol- iqtisodiy geografiyasi” “ O’zbekiston” -2014

QUBLA ARALBOYÍ REGIONÍNÍN TÁBIYIY SHARAYATÍNA QÍSQASHA SÍPATLAMA

Tólebaev S.

Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Aralboyı Jer sharındağı iri shól esaplangan Qoraqum hám Qızılqum menen oralğan bolıp, Qaraqalpaqstan Respublikası, Xorezm wálayatı, qońsılas Túrkménstan mámleketiniń Toshhovuz wálayatların óz ishine aladı. Bul regionnıń Dúnya okeanınan uzaqta, Evraziya materiginiń ishki bóleginde jaylasqanlıǵı sebepli, ol tábiyiy shárayatı boyınsha basqa - ayaqlardan, keskin parıq etedi. Sol sebepli Qubla Aralboyı tábiyiy kompleksiniń qalıplesiwi hám rawajlanıwı áwele onıń geografıyalıq orı menen baylanıslı. Bunday quramalı tábiyiy shárayatta jaylasıwı sheshiwshi tábiyiy faktor esaplanadı. Bul faktor óz gezeginde regionnıń topıraq, suw, jer, ósimlikler, haywanat dúnyasına óz tásirin kórsetken. Ásirese regionnıń jer astı suwı qásiyetleri de kúshli dárejede ózgergen. Region maydanı 243 mıń.kv.km di quraydı. Bul ayaqıtın 41 mıń.kv.km di Ámiwdárya deltası iyeleydi. Delta tiykarınan allyuvial tegisliklerden qalıplesken [2].

1960-jılǵa shekem Aral teńizinde 1000 kub.km ge jaqın suw toplanǵanlıǵı, sol dáwirlerde Araldıń suwı Quyashtan keliwshi kútá kóp muǵdardaǵı jıllılıqtı ózine toplaw xarakterine iye edi. Jıl dawamında usı regionda ústemlik etiwshi arqa-batıs, arqa hám arqa-shıǵıs samalları Araldıń betine keliwi menen onıń jılıtıw tásirine ushıraytuǵın edi. Al keyingi jıllardaǵı Araldıń suwınıń kóleminiń ádewir azayıp ketiwi Araldıń usı funkciyasınıń joǵalıwına sebepshi boldı [3].

Usı pikirdi dálillew maqsetinde Aral jáne onıń átirpındaǵı jaylasqan meteorologiyalıq stanciyaların keyingi jıllardaǵı maǵlıwmatların analizlegenimizde Araldıń túslık jaǵalawlarında keyingi waqıtları jıllı, vegetaciyalıq dáwirdegi plyus temperaturalarınıń jıyındısınıń kóbeyip baratırǵanlıǵın baqlawımız múmkin. Ol, álbette tiykarınan jazǵı baqlanatuǵın hádden tısqarı, joqarı temperaturalarınıń +44°C hám +46°C esabınan. Bunday joqarı temperaturalar hawanıń qurǵaqlıǵın kóbeyttiredi, hátteki ıssı urıwı procesin tezlestiriwi menen birge ósimliktiń normal ósiw hám rawajlanıwın qıyınlastıradı [4].

Regionda keyingi jıllarda Aral teńiziniń qurǵap barıwı ekonomikalıq hám ekologiyalıq daǵdarıstıń hádden tıs kúsheyiwine alıp keldi. Regiondaǵı artıqsha jumısshı kúshleri hám xalıqtıń joqarı tábiyiy ósiwi, ayaqıtın awıl xojalıǵındaǵı jaramlı jerler muǵdarınıń regiondaǵı dáryalardıń suwǵarıw imkániyatınan 3 ese joqrı bolıwı bul ayaqlarda awıl xojalıǵınıń ekstensiv rawajlanıwına sebep dep kórsetiw múmkin.

Qubla Aralboyında jawın muǵdarınıń asa kem, jawıńǵa salıstırǵanda puwlanıw 18-19 ese kóp. Jawın-shashınıń jıl dawamında bólistiriliwi 40% báhár, 20-25% gúz, 30-35% qıs, 5-10% jaz máwsimlerine tuwra keledi. Sol sebeplide jawın muǵdarı awıl xojalıǵı eginleriniń ósip rawajlanıwına úlken tásir kórsetpeydi.

Regionda puwlanıw muǵdarı kóp bolǵanlıǵı sebepli, topıraq júzinde júdá kóp muǵdarda duzlar toplanıwına alıp keledi. Wálayattıń geografiyalıq jaylasıwına kóre aymaқта zonal boz topıraq tarqalǵan.

Biraq topıraqtıń payda bolıwı, rawajlanıwı tikkeley Ámiwdárya menen baylanıslılıǵı sebepli, aymaқтаǵı derlik barlıq topıraqlar dárya iskerligine baylanıslı qalıplesken. Topıraqlar shirindige onsha bay emes, lekin Ámiwdárya alıp kelgen ılaylı-minerallar topıraqlar ónimdarlıǵınıń asıwına járdem beredi. Ámiwdáryadaǵı Túyemoyın - suw saqlaǵıshı, dárya alıp kelgen ónimli giller, minerallar hám basqalardıń tikkeley suw saqlaǵıshında shógip, uslanıp qalıwına sebep bolmaqta. Nátiyjede suwǵarıp egiletuǵın jerlerdiń tawlardan keletuǵın taza minerallarǵa toyınıwı tómen dárejede. Solay eken búgingi kúndegi tiykarǵı wazıypa regiondaǵı ámeldegi suwǵarmalı diyxansılıq tarmaqların tolıqlıǵınsha saqlap qalıw menen bir qatarda, júzege kelgen «Aral qum» zonasınan esip atırǵan zıyanlı qumlı shańtozańlardan saqlanıw, Qubla Aralboyınıń jer-suw resursların izertlew hám ámeldegi suw resurslarınan aqılǵa say paydalanıwdıń jańa baǵdarların islep shıǵıw máseleleri bolıp tabıladı [2].

Usı maǵlıwmatlar insániyattıń keshiktirip bolmaytuǵın wazıypalardı ámelge asırıw kerekligi, sonday – aq Aral boyı mashqalasınıń dúnya jámiyeti itibarın tartqanlıǵı menen de dálillenbekte.

2010-jılı BMSHnıń burınǵı Bas xatkeri mirza Pan Gi Mun Qaraqalpaqstanǵa saparı dawamında «Men dúnyadaǵı apatshılıq bolǵan júdá kóp orınlardı óz kózim menen barıp kórgenmen, — Biraq bunday awır ekologiyalıq jaǵdaydı ómirimde birinshi ret kórip turman. Usınday keskin jaǵdayǵa qaramastan, bul jerde jasap miynet etip atırǵan adamlarǵa, olardıń sabırtaqatına hayran qaldım», dep pikir bildirgen edi [1].

Demek, dáliller hám pikirler sheńberinde oy júritetuǵın bolsaq, ilimiy izertlew jumısların elede tereńirek ámelge asırıw hám de «Aral sheginsede – İnsan sheginbeydi» uranı astında birlesiw mashqalanı unamlı sheshiwge jol boları sózsiz.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1.Pirnazarova Z., Knazhev O. Moynaq: Keshe, búgin, erteń. Nókis Qaraqalpaqstan – 2019.

2.Serikboev M., Qurbonniyozov R., Umarov E. Janubiy Orolbuyining er – suv resursleri va ulardan oqilona foydalanish yóllari. Urganch – 2002.

3.Umarov E., Dáwletova Q. Qaraqalpaqstannıń tábiyatı hám xojalıǵı. Nókis Qaraqalpaqstan – 1989.

4.Mátmuratov J. Qaraqalpaqstan tábiyiy shárayatı hám tábiyiy resursı. Nókis Qaraqalpaqstan – 1989.

2-СЕКЦИЯ
ТӘБИЙИЙ ХЭМ ГУМАНИТАР ПӘНЛЕРДИ ОҚЫТЫҰДА
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Alimkulov N.R., Abdullayeva D.N.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

*“Maktab ta'limini rivojlantirish
umumxalq harakatiga aylanishi zarur”
Sh.Mirziyoyev*

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad har bir yoshni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda faollik ko'rsatadigan, qiyinchiliklarni qo'rqmasdan yengib o'ta oladigan shaxs sifatida kamolga yetkazish hamda ularni yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash hisoblanadi. Xususan, 2020 yil 30-dekabrda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga navbatdagi murojaatnomasida ta'lim sohasini yanada isloh qilish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular ko'lami va mazmun-mohiyati jihatidan O'zbekiston uchun strategik va konseptual ahamiyatga ega hamda mamlakatimiz ta'lim taraqqiyotida tub burilish yasash uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishga qaratilgan. Darhaqiqat, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifatli tashkil etilishi o'quvchi-yoshlarimizning har tomonlama mukammal insonlar bo'lib yetishishlarining kafolatidir. Xususan, geografiya ta'limining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning dunyo haqidagi tasavvurlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Geografiya fanini sifatli o'qitish uchun o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini taqdim etishga yo'naltirilgan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida geografik bilimlarni qo'llay olishiga erishish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning ushbu fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarini tizimini shakllantirish, tez taraqqiy etayotgan jamiyatda ijobiy faoliyat yurita oladigan, tanqidiy va mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifasi esa o'quvchilar ushbu fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun sharoit yaratish, jamiyat taraqqiyotida geografiya fanining ahamiyatini tushunish, kundalik hayotda geografik bilimlarni amaliy qo'llashga o'rgatish, individual xususiyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu borada interfaol metodlardan foydalanish asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, interfaol ta'limning asosini interfaol metodlar tashkil qiladi. Hozirda dars jarayonlarida bu kabi interfaol metodlarning ko'plab turlaridan foydalanilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini

ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

Quyida geografiya ta‘limi sifat va samaradorligini oshirishda foydalanish tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltiramiz:

«Rezyume» texnologiyasi - bu texnologiyani fandagi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishda qo‘llash tavsiya etiladi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari va boshqalari belgilanadi.

7-sinf. O‘rta Osiyo tabiiy-geografik o‘lkasi mavzusi misolida

O‘quvchilar tabiiy-geografik o‘lka bo‘yicha ushbu jadvalni to‘ldiradilar:

O‘rta Osiyo tabiiy-geografik o‘lkasi							
Geografik o‘rni		Iqlimi		Suvlari		Tuproqlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:							

«Muammo» texnologiyasi - o‘quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yyechishning ba‘zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yyechishda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yyechishdagi hatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatishda qo‘llash tavsiya etiladi.

9-sinf. Zamonaviy ekologik muamolar mavzusi misolida

Muammoning Turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo‘llari va sizning harakatlaringiz
Zamonaviy ekologik muammolar	Insoniyatda ekologik madaniyatning yetarlicha shakllanmaganligi	Atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga oid tadbirlar o‘tkazish

“Qarorlar shajarasi” strategiyasi (“Qaror qabul qilish texnologiyasi”) - metodi geografiya fanidagi murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma‘lum masalalarni har tomonlama puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan metod tavsiya etiladi.

6-синф. “Океан бойликлари va ulardan foydalanish va muhofaza qilish muammosi” mavzusi misolida

MUAMMO: DUNYO OKEANINI MUHOFAZA QILISH		
1-G‘OYA	2-G‘OYA	3-G‘OYA
Dengiz transportida tashiladigan neft va neft mahsulotlarini tashiydigan maxsus kema — tankerlarning halokatga uchrashining oldini olish	Dunyo okeani muhofazasi bo‘yicha milliy, regional va xalqaro ko‘lamda tadbirlar amalga oshirish	Dunyo okeanini tadqiq etish, foydalanish hamda muhofaza qilish maqsadida ko‘plab xalqaro tashkilotlar sonini ko‘paytirish va ularning faoliyatini yaxshilash
QAROR: Dunyo okeani boyliklaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ularni muhofaza qilish, tiklash va ekologik sharoitini yaxshilash borasida INSONIYAT ibratli faoliyat ko‘rsatishi lozim.		

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizning kelgusidagi istiqboli o‘quvchi-yoshlar qo‘lida. Shunday ekan ularga berilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayonlarini to‘g‘ri va samarali tashkil etishga bugunning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 30-dekabrda Oliy majlisga navbatdagi murojaatnomasidagi nutqi.
2. Vahobov X., Alimkulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya o‘qitish metodikasi. Darlik, “Nodirabegim” nashriyoti. Toshkent. 2021.
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар., Т.: Истеъдод жамғармаси, 2008. -145 б.
4. Джураев Р.Х. Таълимда интерфаол технологиялар. – Т.: «Саностандарт», 2010. –87-б.
5. Гуломов П., Ваҳобов Х., Баратов П., Маматкулов М., 7-синф — Ўрта Осиё ва Ўзбекистоннинг табиий географияси. — Ўқитувчи нашриёти. 2017 йил.

**5-КЛАСС ГЕОГРАФИЯ (ТӘБИЙҒЫЙ ГЕОГРАФИЯ
БАСЛАНҒЫШ КУРСЫ) САБАҚЛЫҚ МӘСЕЛҒЕЛЕРИ**

¹Баллиева Р., ²Жарлықағанов М.

¹Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети

²Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Мектеп оқыў процесин жақсылаўдың баслы факторы мектеп оқыў дәстүри хәм соған сәйкес оқыўлықлардың дәретилиўи болып есапланады. Бул дәстүр хәм оқыўлықлар бала жасына қарап дүзилиўи керек. Тилекке қарсы мектеп география оқыўлықлары оқыўшыларға қыйын хәм түсиниксиз түрде

жазылмақта. Бул бойынша муғаллимлер, методистлер өз пикирлерин билдирип усынысларын бермекте. Бул бақалы усыныслар тек қағаз бетинде қалып қоймақта.

Мазмуны жағынан курамалы етип дүзилген өзбек тилинде жазылған мектеп география сабақлықлары оқыўшылар ушын түсиниксиз болып қалмай, оқытыўшы ушын түсиниксиз болып қалмақта.

Бул өзбек тилинде жазылған мазмуны қыйын сабақлықлар қарақалпақ класлары ушын қарақалпақ тилине аўдарылғанда жәнеде курамаласады.

Бүгинги күнде мектеп география сабақлықларының аўдармасында жүдө көплеген қәте – кемшиликлер ушырасады. Оларды мазмун жағынан, орфографиялық жақтан, санлы мағлыўматлар көрсеткишинде хәм.т.б. көрсек болады.

Қарақалпақ тилиндеги **5-класс тәбийғый география басланғыш курсы** сабақлығы оның мазмуны бойынша: Кирисий, Жер қалай үйренилген, Жер – Қуяш системасындағы планета, Орынның планы хәм карталар, Жердиң тас қабығы – литосфера, Жердиң суў қабығы – гидросфера, Жердиң хаўа қабығы – атмосфера, биосфера – тиришилик қабығы, тәбият комплекслери сыяқлы темалардан ибарат.

Бирақта 5-класс тәбийғый география басланғыш курсында жер жүзи тәбиятының тийкарғы нызамлықларын билип аласыз дейилген. Оқыўшыға курстың үйрениў объекти хәм предметин оқыўшы жасына маслап түсиндирийүмиз керек. Бунда бизиң жер планетамыз хәм ол жалғыз емеслиги, басқа планеталар арасындағы орны, оның хәрекетин, бул хәрекет тийкарында қандай кубылыслар жүз беретугынлығын түсиндирийүмиз керек. Планетамыз бир неше қабықтан ибарат болып оның хәр бириниң әхмийетин айтып, избе – изликте бул қабықларды үйрениўге өтилиў керек. Жер жүзи тәбиятының тийкарғы нызамлықларын бул курда түсиндирий қыйын. 6-класс география курсында географиялық қабық хакқында тоқталып өтиледи, әлбетте бул жерде географиялық қабықты толық түсиндирилиўи менен бирге тәбият нызамлықларын оқыўшы жасына маслап түсиндирий керек. Себеби нызамлықлардың курамалы жағдайын түсиндирий қыйын процесс. Хәттеки 1-курс бакалаврларға тәбият нызамлықларын түсиндирий менен 4-курс бакалаврларға түсиндирийдиң өзи мүшкил.

Бул сабақлықты қолға алғаннан көринетуғын дәслепки қәте оның өзбекшеден қарақалпақшаға аўдармасындағы сабақлық аты География. Тәбийий география басланғыш курсы. Қарақалпақ тилинде тәбийий деген сөз жоқ рус тилинде (естественный-тәбийғый, природный-тәбийғый) китаптың аты надурис жазылған. Бир жерлеринде 3 бетте “Тәбийий географиясы баслағыш” курсы деп жазылса, бир жерлерде баслаўыш курсы, басланғыш курсы деп жазылған, бундай жиберилген қәтелерди оқыўшылар тез кабыл етеди.

2 тема ♦; Өзбекше сабақлықта инсон хәети деп басланады, қарақалпақша сабақлықта инсан турмысы деп аўдарылған. Инсан өмири тәбият пенен байланыслы болғаны ушын деп аўдарылыўы керек еди.

1. Жасайтуғын сөзин жасаған, жой сөзин жер деп аудармалаған, географияда жой сөзи орын деп аударылады.

- ♦ Жер бетинің хәр бир ноқатының анық координатасы, ноқат сөзинің орнына точка сөзи ислетилиўи керек.

Ернинг марказидан Ер юзасигача бўлган масофа кутбларда 6357 км га тенг бўлса, экваторда 6378 км га тенг делинген болса, китаптың қарақалпақша вариантында Жердиң орайынан жер бетине шекем болған аралық полюслерде 6337 км.ге тең болса, экваторда 6378 км ге тең деп 20 км алжасып жазылған.

-Қуёш ҳеч қачон қоқ тепа (зенит)га келмайди, қоқ тепа делинген сөзди тик төбе деп аударған, бул тас төбе яки қақ төбеде деп айтылыўи керек. Лекин хәр бир пәнниң өзиниң тили болады. Сондай география тилиниң өз тили бар. Зенит деген сөзди географияда аударыў шәрт емес, сабақлықтағы глоссарийде берип өтилсе хәм сабақ ўақтында муғаллим түсиндирип өтиў керек.

- ♦ Географик харита-инсониятнинг буюк кашфиёти. Ер юзи ва хәр бир жойнинг табиий шароити, аҳолиси ва унинг хўжалик фаолияти географик хариталарда хамда жой планида тасвирланади делинген. 2015-жылғы баспасында қарақалпақша аудармада аудармашы географиялық карта инсанияттың уллы жаңалығы делинген. 2020-жылғы баспасында инсанияттың уллы ойлап табыўи делинген. Бул жерде географиялық карта инсанияттың уллы жаңалық ашыўи деп берилсе мақсетке муўапық болар еди. Жәнеде аҳолиси ва унинг хўжалик фаолияти текстинде фаолият сөзи хызмет деп аударылған искерлиги сөзине туўры келеди.

♦ бул темада орфографиялық қәтелер менен жоқарыда айтып өткенимиздей точка сөзин ноқат деленгенлиги географияда туўры емес. 26-бетдеги “Азимут бўйича юриш” атлы бәнтинде сондай делинген: “Географик ўйин вақтида Сизга якка турган дарахтдан 40° ли азимут бўйича 200 м, сўнгра 180° ли азимут бўйича 500 м ва 330° ли азимут бўйича 300 м юриш топширилди, дейлик”. Өзбекше сабақлықтағы бундай азимут бойынша жүриў 5-класс оқыўшылары ушын жудә қурамалы. Мүйеш градусы (°) не екенлигин түсиндирген мақулырақ еди, себеби оқыўшылар не екенлигин билмейди. Текст жудә қурамалы түсиниксиз етип жазылған бундай текст пенен оқытыўшы оқыўшыларға түсиндириўи қыйын. Тема акырында берилген азимут бойынша жүриўди дәптерге сызбалар арқалы сўўретлеўге тийисли тапсырма 5-класс жасындағы балаға қыйын болады.

♦ Географиялық карта темасы оқыўшылардың жасы хәм олардағы билим дәрежесине сай етилип дүзилмеген. Географиялық картаға эпийайы етип түсиник берилиў керек еди.

Географик карталарни шартли равишда 3 турга бўлиш мумкин: Табиий географик, сиёсий ва иқтисодий-ижтимоий географик карталар деп берилген өзбекше вариантында, қарақалпақша вариантында географиялық карталарды шәртли түрде 3 түрге бөлиў мумкин: тәбийий (қәте) географиялық, сиясий-администрациялық хәм экономикалық географиялық деп қәте аударылған.

тәбыйғый географиялық, сиясий хәм экономика-социаллық географиялық карталар деп жазылыў керек. Сиясий-админстраивлик карталар болады, бирақ сиясий-администрациялық карталар болмайды.

◆ Жердиң қабықлы дүзилгенлиги темасында. Жерди космосдан бақлаған космонавт нелерди көреді? Жерди хәмме тәрәпинен хаўа менен оралғанлығы хәм хаўа қабығында бултлар сүзип жүргенлин көреді. Космостан бақлағанда хаўа көринбейди, бирақ бултлар көриниўи мүмкин.

Өзбекше хәм қарақалпақша сабақлықларда қатарлар надурис дүзилген... «Алымлар жер ишине терең түскен сайын температура хәр мың метрде 33⁰С қа көтерилетуғынын анықлаған. Бул текстен илимпазлар жердиң ишине түскен болып тур. ... Бул жерде температура жер ишине тереңлесип барған сайын 33⁰С қа көтерилетуғынлығын илимпазларымыз анықлаған. Қалай анықланғанлығы хаққында оқыўшыларға әпиўайы тил менен түсиндирилип кетилсе мақсетке муўапық болар еди.

- ◆ Литосфера. 43 бетте Гранит хәм базалт атылыўшы жыныслар.

«Атылыўшы»..сөзиниң орнына «атқынды» сөзин қолланғаны макул.

Өзбекше сабақлықта 53-бетте «Олимплар ер қимирлаш кучини унинг бинолар ва рельеф тасирига қараб 12 баллда аниқлашади» кейиннен узыннан-узақ түсиндириў кетеди. Бул тусиндирмеге сүүретли етип берилгенде оқыўшыларға түсиникли болар еди.

- Жомолунгма шыңы қарақалпақшаға Джомолунгма деп аўдарылған.

-...1998-жылдың 22-майында Рустам Ражапов басып өтти, сөз қәте дүзилген, бул шыңға жетип барды деп жазылыў керек еди.

- тапсырмада дәптериңизге елимиздеги.... деп жазылған сөзлерди китапта көплеп ушыратамыз елимиз сөзиниң орнына мәмлекетимиз деген мақулырақ.

◆ Көл хәм музлықлар темасында “Антарктида материги, дунёдаги энг катта орол – Гренландия шундай музликлар билан қопланған. Қалинлиги эса 4 минг метрге етади” делинген. 4 мың метр – бул Антарктида материги ямаса Гренландия атаўындағы муздың қалыңлығыма? Антарктидадағы музлықлар қалыңлығы 4 мың метрге жетиўи мүмкин, лекин Гренландияда бундай қалыңлықтағы музлықлар жоқ.

- “Музликлар хам аста-секин силжиб бориб, денгиз ва океанлар бўйига келиб қолади” делинген. Музлықлар сылжымайды. Антарктидадағы музлықлар суўық мәхәлде теңиздеги музлықлар менен бирлесип кетген болады. Күнлер ысып барыўы менен теңиздеги ямаса теңиз қырғағындағы музлықлар жарылып теңизге қулаўы мүмкин.

◆ Жердиң хаўа қабығы-Атмосфера бөлиминде «Ер юзини самодан келадиган метеор жисмлардан.... аспаннан келетуғын деп аўдарылған, аспаннан емес космосдан келетуғын деп айтылыў керек еди.

5-класс География. Тәбыйғый география басланғыш курсы. Жоқарыда көрип өтилгендей бул сабақлықты бизлер қарақалпақ класларына арналған сабақлық аўдармасындағы машқалаларды ашып бериўди алдымызға мақсет етип қойған едик.

Жуўмағында сабақлық аўдармасындағы баслы кемшилик география тилиниң бузылыўынан келиб шықпақта. Мысал ушын ноқат-точка, зенит тәбийий хәм.т.б географиялық сөзлер өз мәнисин жоғалтқан. Жумыс даўамында тек ғана аўдарма бойынша қәте кемшиликлер ғана емес, мазмуны, 5-класс оқыўшылардың жас имканиятлары, китапта берилген артықша материаллар, керисинше керекли материаллардың жетиспеўшилиги, мектеп оқыў программаларына сай келмейтуғын мағлыўматлардың ушырасыўы айырым темалардың мазмуны тәрәпинен де анализ қылыўымызға туўры келди. Себеби структурасы тәрәпинен жиберилген бул қәте кемшиликлер өзбек тилинде жазылған сабақлықта жиберилген. Демек карақалпақ класлары ушын арналған сабақлық еки есеге кемшиликлер менен капланған. Аўдармашы өзлигинше айырым мазмун жағынан зәрүр болған фраза хәм қатарларды алып таслаў менен бирге, өзинше санлы көрсеткишлер, географиялық объектлерди, өзине қызықлы болған ўақыяларды китапка қосқан. Бул жерде авторлық хуқық бузылыў менен бир қатарда оқыўшылар ушын географиялық түсиникти келтирип шығармайтуғын, мазмунсыз мағлыўматлар, түсиниксиз текстлер оқыўшыларды география сабағына қызығыўын төменлетий менен бир қатарда оларды тәбият хәм оның нызамлықларын қәте түсинийи, жасларымызды саўатсызлыққа алып келеди. 30 даўамында еки әўлад усы мазмун жағынан төмен қызықлы емес қурамалы география билимлерин алып келиўи хәзирги ўақыттағы Өзбекстан география илиминиң кризиске алып келиўине де себеблеринен болса керек. Хәзир бул қәте кемшиликлеримизди бүгин туўрыламасақ ертең кеш болады.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. G'ulamov P., Qurbanniyazov R. “Geografiya” (Ta’biyiy geografiya baslang’ish kursi). T., 2015.
2. G'ulamov P., Qurbanniyozov R. “Geografiya” (Tabiiy geografiya boshlang’ich kursi. T., 2015.
3. Gulyamov P., Qurbanniyazov R., Avezov M., Saidova N. “Geografiya” (Tabiiyiy geografiya baslang’ish kursi). T., 2020.
4. G'ulamov P., Qurbanniyozov R. Avezov M., Saidova N. “Geografiya” Tabiiy geografiya boshlang’ich kursi. T., 2020.
5. Soatov A., Abdulqosimov A., Mirakmalov M. “Geografiya” Materikler hám okeanlar tabiiyiy geografiyası. T., 2017.

ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА ТОПОНИМИК МАЪЛУМОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Хакимов К.М., Жонизоқов И.

Жиззах давлат педагогика институти

Мамлакатимиз ҳаётининг барча соҳаларида бўлганидек, таълим тизимида, жумладан география таълими соҳасида ҳам кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу ислохотлардан кўзда тутилган асосий мақсад таълим жараёнига янги педагогик ва инновацион технологиялардан

фойдаланиб, таълим-тарбия бирлигини таъминлаш, самарадорлигини ошириш ва пировард натижада уни жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига хизмат қилдиришдан иборат.

География таълими самарадорлигини оширишда топонимик маълумотлар муҳим ўрин тутди. Эътиборли томон и шуки, топонимик маълумотлардан география дарсларининг деярли барчасида фойдаланса бўлади. Кўпинча жой номлари ҳақидаги маълумотлар талабаларда катта қизиқиш уйғотади ва тез-тез уларни келиб чиқиши ҳақида сўрайдилар. Бинобарин, жой номлари билан қизиқиш дарсга бўлган эътиборни кучайтиради ва уни қизиқарли бўлишини таъминлайди.

Талабалар орасида ўтказилган сўров натижаларига кўра, тўқсон фоиздан кўпроқ талабалар аҳоли пунктлари номининг келиб чиқиши ҳақида кўпроқ билишни истайдилар. Демак, топонимик маълумотлар ўқувчиларни билиш қобилиятини ривожланишига ва тафаккур доирасининг кенгайишига хизмат қилади. Бундан ташқари, жой номларини тўғри ёзиш саводхонликнинг муҳим таркибий қисми саналади, номларни тўғри талаффуз қилиш эса нутқ маданиятини шакллантиради. Географик номларнинг тарбиявий, илмий аҳамияти ҳам жуда катта, ном кишиларда фахр, ғурур туйғусини шакллантиради ва ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ёрдам беради.

Мутахассисларнинг ёзишича, топонимик маълумотлардан фойдаланишни маҳаллий географик объектларнинг номларини ўрганишдан бошланмоқ маъқул. Чунки маълумотларни жойига бориб тўплаш мумкин, энг муҳими улар ишончли ва аниқ бўлади. Шу билан бирга, географик объект номи ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш, унинг қайси тил маҳсули эканлиги ва этимологияси ҳақида кўпроқ маълумот тўплаш учун топонимик адабиётлар, луғатлар ва қўшимча илмий манбаларга мурожаат қилиш керак бўлади.

Географик маълумотларни ҳудудий боғлашда жой номлари боғловчи восита вазифасини бажаради. Хусусан, географик қонуниятларни тушинтиришда ёки бирор географик ҳодиса ва воқеани географик объектларнинг номи билан боғлаб изоҳланса, маълумотлар яна ҳам ишончли бўлади. Талаба географик карталарни яхши билиши ёки алоҳида ҳудудлар табиатини ўзаро таққослаш, картанинг асосий унсури бўлган номларни ҳам яхши ўзлаштириши керак. Хусусан, хорижий мамлакатларга тегишли бўлган географик номларни эслаб қолиш, талаффуз қилиш ва тўғри ёзиш анча мураккаб масала.

География таълимида бундай номларни эслаб қолиши учун, уларнинг маъносини тушунтириб бериш, ном билан боғлиқ ривоят ва воқеа-ҳодисаларни гапириб бериш жуда муҳим ҳисобланади. Масалан, Канада давлати ҳақида маълумот бераётганда, мамлакат номининг келиб чиқиши тўғрисида қуйидагиларни гапириб берса, ўқувчилар дарров уни эслаб қолишади. Номшунос олимларнинг ёзишича, канада сўзининг пайдо бўлиши маҳаллий халқ бўлган индейлар билан боғлиқ.

Франция қироли фармони билан, Жак Карте бошчилигидаги француз экспедицияси Хитойга борадиган шимолий йўлни очиш мақсадида ғарбга қараб сузади. 1535 йили экспедиция аъзолари олдиндан таниш бўлган Муқаддас Лаврентия бўғозига киради ва шу номли дарё орқали юқорига қараб ҳаракат қилишади. Ж.Карте дарё соҳилидаги ирокез индейслари манзиллини кўриб қолади ва улардан мамлакатингиз қандай аталади деб, сўрайди.

Жак Карте гапларини тушунмаган ирокезлар ўзлари тилида каната - «қишлоқ» деб жавоб беришади. Саёҳат давомида худди шу савол бир неча марта такрорланган бўлса ҳам, битта каната жавобини олишган. Шундан сўнг, Ж.Карте ишонч билан каната сўзини ном сифатида картага туширган. Кейинча, каната сўзининг қўллаш ареали кенгайган ва ҳозирда катта ҳудудни қамраб олган Канада давлатининг номига айланган.

Мамлакат сиёсий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар унинг харитасида акс этиб туради. Мустақилликдан кейин мамлакатимиздаги кўпгина жой номлари маънавий жиҳатдан эскирди. Чунки шўролар даврида ҳукмрон мафкура манфаатларига хизмат қилган, миллий менталитетимизга мутлақо ёт бўлган жой номлари ҳаётимиздан кенг ўрин олган эди.

Ўзбекистон суверен давлатга айлангандан кейин унинг харитасида жиддий ўзгаришлар юз берди. Натижада мустақилликни, миллий кадриятларни улуғловчи жой номлари пайдо бўлди, тарихий номлар қайта тикланди, юрт табиати, халқимиз тарихи ва касб-хунари, миллий анъаналари ҳамда маънавиятимиз билан боғлиқ номлар сони кўпайди. Эндиликда, қайта тикланган тарихий номларни сақлаб қолиш зарур, улар тарихий обидалар, миллий ёдгорликлар каби ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга хизмат қилади. Шунинг учун, тарихий номларни асраб-авайлаш, муҳофаза қилиш, кейинги авлодларга тўқис етказиш ҳаётий зарурат, ижтимоий бурч эканлигини унитмаслик лозим.

География таълимида жой номлари ёрдамида ҳудуд табиий шароитини (ер юзаси, қазилма бойликлари, иқлими, гидрографияси, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёси, табиий ҳодиса ва жараёнлари) тушинтириш мумкин. Чунки табиий-географик омиллар асосида шаклланган географик номлар барча мамлакатлар топонимияси таркибида салмоқли ўрин эгаллайди. Масалан, Жанубий Америка материгининг қазилма бойликлари ҳақида гапирганда, Анд сўзини қуйидагича изоҳласа бўлади: Анд - дунёдаги энг узун (салкам 9000 км.) ва энг баланд (Аконкагуа чўққиси, 6960 м.) тоғ тармоқларидан бири.

Анд тоғлари материкни бутун узунлиги бўйлаб чўзилган. Мутахассисларнинг ёзишича, инк индейслари тилида анта - «мис» деган маънони англатади. Анд тоғларида мис конлари кўп ва мис минтақаси салкам 4 минг км масофага чўзилганлиги аниқланган. Қадимда инк индейслари мис эритишгани ҳам тарихий манбалардан маълум ва бу Анд сўзининг этимологиясини яна бир бор тасдиқлайди. Географик номлар ёрдамида асрлар давомида сақланиб келаётган маълумотларни, ўтган замонда рўй берган тарихий воқеа-ҳодисалар, кишиларнинг касб-хунарлари, урф-одатлари, аҳоли миграциясини аниқлаш мумкин.

Жой номларини ўрганадиган топонимика фанининг мажмуавий хусусиятидан фойдаланиб фанлараро алоқаларни янада мустаҳкамлаш мумкин. Масалан, географияни ўқитишда она тили, чет эл топонимларини ўрганишда чет тиллари билан боғланиш яхши самара беради. Баъзи бир жой номлари маълум худудда содир бўлган тарихий воқеа-ҳодисалар билан боғлиқ бўлади. Тарихчи кўпроқ географик номнинг келиб чиқиш тарихи, қайси даврда пайдо бўлганлиги, тарихий жараёнлар билан боғлиқлиги, ўша давр шароити, археологик ва этнографик манбалари, маҳаллий халқнинг тарихи ва ҳоказолар билан қизиқади. Уларни ўрганиш география ва тарих фанларининг алоқасини мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Топонимларни тўғри изоҳлаш анча мураккаб иш. Бунинг учун Ҳ.Ҳасанов айтганидек, камида «ўзбек тилини пухта билиш ва қўшни тиллардан хабардор бўлиш керак. Ватанимиз тарихини, қадимда ўтган қабилаларни, аҳолининг хўжалик фаолиятини ва албатта, ҳар бир жойнинг географик хусусиятларини яхши билиш керак. Ана шундай ҳар тамонлама маълумотларни бир-бирига солиштириб, қўшиб, жой номининг тарихини аниқлай олиш мумкин».

Хулоса қилиб айтганда, география таълимида жой номларини ўрганиш талабаларда кузатиш, таққослаш, умумлаштириш каби ақлий фаолиятни такомиллаштиради, мустақил фикрлаш қобилиятларини ривожлантиради, оғзаки нутқини ўстиришга самарали таъсир қилади. Масалани яна бир томони шуки, география дарсларида топонимик маълумотлардан меъёрида фойдаланиш мақсадга мувофиқ, улар география фанини пухта ўзлаштиришга ва фанга бўлган қизиқишни янада ортишига хизмат қилади.

Маълумки, география таълимининг асосий вазифаларидан бири талабаларда географик дунёқараш ва географик маданиятни шакллантиришдан иборат. Географик дунёқараш бу - жаҳон мамлакатларида рўй бераётган турли табиий, иқтисодий, сиёсий воқеа-ҳодисаларнинг манзилани аниқ тасаввур қилиш бўлса, географик объектларнинг жойлашган ўрни ва уларнинг хусусиятлари ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш географик маданиятга киради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гафуров А. Имя и история. -М.: 1987
2. Караев С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарём. -Т.: 2015. -500 с.
3. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.: 1987.
4. Хакимов К.М. Топонимика. -Т.: 2016. 368 б.
5. Хакимов К.М. Mirakmalov М.Т. Топонимика. -Т.: 2020. 355 б.
6. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. -Т.: 2019. -335 б.

GEOGRAFIYA SABAQLARINDA JAN`ASHA USILLARDAN PAYDALANIW

Gaypova R.T., Turdibekova Z., Niyazov M.

A`jiniyaz atindag`i No`kis ma`mleketlik pedagogikalıq instituti

Ha`zirgi künde uliwma bilim беретug`in orta mekteplerde geografiya pa`nin oqitiw mazmuni o`zgerip ha`m bayıp barmaqta. Oni teren` uyreniw ushin ken` imkaniyatlar payda boldi. Mekteplerde o`tilip atirg`an sabaqlar oqiwshilardi turmisqa, miynetke tayarlawg`a qaratilg`an. Bunin` ushin ta`lim protsessinde ha`m ta`lim metodlarin a`meliy shinig`iwlardin` iskerligin aktivlestiriw, alg`an bilimlerden a`melde do`retiwshilik jumislarg`a paydalaniwg`a o`z aldina itibar beriw kerek.

Sabaq na`tiyjeliliginin` a`hmiyetli sha`rti - ha`mme oqiwshilardi sabaq protsessinde aktiv islewleri ushin tiykarg`i qural waziypasin atqaradi.

Zamanago`y mekteptin` tiykarg`i waziypalarinin` biri - oqiwshilardi miynet suygish, qiling`an miynetlerdi qa`dirleytug`in etip tayarlawdan ibarat.

Mekteptegi miynetin` tiykarg`i turi oqiw miyneti esaplanadi. Jan`a geografiyalıq bilimlerde uyreniwde, kitap penen jumis islew, kartadan bilim deregi sipatında paydalaniw, kontur kartalardi toltiriw, ta`biyat ha`diyselerinin` na`tiyjesin islep shig`iw, ha`rqiylı sxema ha`m grafikler duziwde oqiwshilar ma`lim jag`dayda miynet ko`nlikpesin iyeleydi, olar jaqsıraq miynet na`tiyjelerine erisiwge umitiladi.

Ha`zirgi waqi`tta oqi`ti`w processinde interaktiv metodlar, innovaciyali`q texnologiyalar, pedagogikalı`q ha`m xabar texnologiyalari`n oqi`w processine bolg`an qi`zi`g`i`wshi`li`q ja`nede kynnen kynge kysheyip barmaqta. Oqi`ti`wshi` bul processte oqi`wshi`lardi`n` shaxsi`n qa`liplesiwine, rawajlani`wi`na, bilim ha`m ta`rbiya ali`wi`na mumkinshilik jaratadi`. Biz to`mende bir neshe usi`llardi` aytı`p o`tpekshimiz.

“Koordinatalar boyi`nsha sayaxat etiw” usi`li`. Bul usi`lda oqi`wshi`lar kartadan paydalani`p, meridian si`zi`qlar menen pallel si`zi`qlar tutasqan koordinatalarda jaylasqan qalalar yaki bolmasa ob`ektlerge duri`s bag`dar ali`wg`a ja`rdem beredi. Bul usi`ldi` qollawda to`mendegilerdi ori`nlawi`mi`z tiyis:

- Klass oqi`wshi`lari` kishi toparlarga bo`linedi;
- Ha`r bir toparg`a qalalardi`n` atlari` jazi`ladi` ha`m olar usi` o`zlerine berilgen qala koordinatalari`n` tabi`w kerek;
- Oqi`wshi`lar belgilengen waqi`t ishinde sorawlarda berilgen koordinatalar boyi`nsha qala yamasa geografiyalı`q ob`ektlerdi duri`s ha`m ani`n` qa`tesiz jazi`wlari` kerek boladi`.
- Oqi`ti`wshi` toparlarga berilgen tapsi`rmalardi` waqi`t bolg`annan son` ji`ynap aladi`;

Oqi`ti`wshi` oqi`wshi`lar menen birgelikte berilgen tapsi`rmani` qanday etip ori`nlag`ani`n` yag`ni`y duri`s qa`tesin ko`redi ha`m qaysi` topar berilgen tapsi`rmani` ani`q, duri`s ori`nlag`ani`n` ani`qlaydi` ha`m jen`impazdi` aytadi`. Bul usi`lda oqi`wshi`lardi`n` geografiyalı`q ob`ektin` qayjerde yaki qaysi` ken`likte,

uzi`nli`qta jaylasqani`n ani`qlaw ko`nlikpesi payda boladi`. Ha`mde oqi`wshi`ni`n` yadi`nda uzaq saqlani`p qaladi`.

“Terminlerdin` sa`ykes ani`qlamalari`n tabi`w” usi`li`. Berilgen terminlerdin` sa`ykes ani`qlamalari`n tabi`w kerek. Bul usi`l oqi`wshi`lardi`n` sabaq waqti`nda alg`an bilimlerin ja`nede bekkemlew ha`m este saqlaw qa`biletin rawajlandi`ri`wg`a ja`rdem beredi. Buni`n` ushi`n to`mendegiler ori`nlani`wi` sha`rt:

- oqi`ti`wshi` taza temani` o`tip bolg`annan keyin oni` bekkemlew ushi`n sabaqli`qtag`i` terminler ja`rdeminde tarqatpa materiallar tayarlaydi`;

- ha`r bir oqi`wshi`g`a temag`a baylani`sli` tarqatpa material tarqati`ladi`;

- bul tarqatpa materiallarda terminler ha`m olardi`n` ani`qlamalari` biyta`rtip jaylasti`ri`lg`an boladi`;

- oqi`wshi`lar sabaqta alg`an bilimlerine tayani`p terminlerdin` ani`qlamalari`n bir-birine tuwri` jaylasti`ri`wi` kerek;

- belgilengen waqit`tan son` tarqatpa materialdi` tekseriw ushi`n oqi`wshi`lar qollari`ndag`i` tarqatpa materialdi` qasi`ndag`i` oqi`wshi` menen almasti`radi` ha`m oqi`ti`wshi` duri`s juwapti` ayti`p ketedi ha`m oqi`wshi`lar qa`te duri`si`n belgilep oti`radi`.

- tapsi`rma tekserilip bolg`annan keyin oqi`wshi`lar bir birinin` berilgen tapsi`rmani` qalay ori`nlag`ani`n tapsi`rmadag`i` duri`s juwaplar sani`na qarap bilip aladi`.

- oqi`ti`wshi` tapsi`rmani` toli`q ori`nlag`an oqi`wshi`lardi` bu`gingi sabaqti` jaqsi` o`zlestiredi dep xojametleydi.

Juwmaqlap aytqani`mi`zda, oqi`wshi`lardi`n` do`retiwshiliginin` na`tiyjesi bolip jetik qa`niygelerdi, tez pa`t penen rawajlandirip baratirg`an ma`mleketimiz kelejegi bolatug`in intellektual qa`bileti joqari bolg`an jaslarda o`z ko`rinishin tabadi.

Paydalanilg`an a`debiyatlar:

1. Ro`zieva D., Usmonboeva M., Holikova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi. Metodik qo`llanma. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU nashiyoti. 2013.
2. R.T.Gaypova, G.O`.Jiemuratova, B.T.Gaypov. Geografiyani oqitiwda innovaciyaliq texnologiyalardan paydalaniw usillari. (Uliwma bilim beretug`in orta mektep oqitiwshilarina arnalg`an metodikaliq qollaba). No`kis.2016.

ЁШЛАРНИ ВАТАНГА САДОҚАТ РУХИДА ТАРБИЯЛАШ - БУРЧИМИЗДИР

Утепова Г.Б., Арабова Г.

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Ёшлар онгида, қалбида Ватанни севиш, ҳурматлаш, ўзи яшаб келаётган шу ажойиб заминни ардоқлаш ва унинг фаровонлиги учун курашиш, астойдил хизмат қилиш каби инсоний фазилатларни, хис-туйғуларни шакллантириш ҳар бир фан учун долзарб масала ҳисобланади. Ёшларни ватанга садоқат руҳида тарбиялашнинг оддий анъанавий усулларидан бири давлатнинг рамзий

белгиларига чексиз хурмат ва иззатни бажо келтириш, давлат байроғи, мадхияси, хаёт комусимиз бұлган-конституцияни теранг ўргатишдан иборатдир.

Давлат томанидан ўқув муассасалари жамоаси олдиға ўсиб келәтган ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялаш, вояға етказишда улкан вазифалар ва катта маъсулият юкланди. Жумладан, биринчи навбатда ушбу ўқув муассасаларида умумтаълим фанларидан замонавий педагогик технологияларни қўллаб, ўқувчиларға чуқур билим бериш, бир қанча йўналишлар бўйича кичик касбларни ўргатиш, турли соҳаларда уларға бұлган талабни қондириш вазифаларини ҳал этиш бўлса, иккинчидан ўқув муассасаларда таълим олаётган ёш авлод онгида-тарбиясида давлатимизнинг келажаги буюк бўлишиға қатъий ишонч туйғусини шакллантириш, ёшларни шу йўлда дадил қадам ташлаб, фидойилик билан хизмат қилишға даъват этиш каби тарбия сиёсатини амалға ошириш муҳим масалалардан ҳисобланади.

Бунда, авваломбор, юқорида таъкидланганидек, ўқувчиларни қатъийлик, ишонч руҳида тарбиялашға даъват этиш. Масалан, ватан равнақиға ишончи учун ёшлар онгида ҳис-туйғу фазилатини уйғотиш, жамият ҳаётида қилинаётган ва амалға оширилаётган ишларға ишонч кўзи билан қарашға ўргатиш, уларнинг қалбида Ватанға, шу муҳаддас заминни севиш-ардоқлаш ва фахрланиш туйғуларини шакллантиришдан иборат.

«Ҳозирги пайтда, мустақилликнинг барқарорлиғиға кўз олайтираётган ёвуз оқимлар ёқуд кучлар ҳали мавжуд бўлган бир пайтда ўта муҳим масала ҳисобланади. Айниқса мамлакатда ислом давлатини ўрнатиш иштиёқи билан кўча-куйларда ҳар хил ярамас чақириқ қоғозлари билан ёшлар онгини заҳарлашға интилиш бўлаётган бир пайтда ўқувчи ёшларни ватанни севиш, мустақил республикани улуғлаш, мустақилликни мустаҳкамлаб, илғор кучли жамият куриш учун бор билим, қобилият ва имкониятни сафарбар қилишға даъват этиш ҳар бир дарснинг бош мавзу-мазмунни бўлиб режалаштирилмоғи зарур». [Тўлаганова].

Замонавий, юксак савияли кадрларни тайёрлашда Миллий дастурнинг аҳамияти катта. Олий ўқув юртларида тайёрланадиган турли мутахассислар ўз соҳасининг билимдонларигина бўлиб қолмасдан, уларнинг дунёқараши кенг бўлиши ҳам талаб этилади. Ер юзида тараққиётнинг жадаллашиши, демографик ўсиш ва шулар билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг келиб чиқиши, кескинлашиши табиатни инсонға, инсоннинг табиатға бўлган таъсирини ҳавфли жараёнға айланаётганлиғи кутилмаган натижаларға олиб келәтганлиғи, мазкур соҳадаги таълим-тарбия масалалари кундан-кунға долзарб бўлиб қолаётганлиғидан далолат бермоқда.

Ҳар тарафлама етук, баркамол давр талабларига ҳозиржавоб мутахассисларни тайёрлашда, нафақат ижтимоий - иқтисодий, маънавий фанларни, балки махсус фанларни ҳам жумладан, “инсон муҳофазаси” ни ҳам ўқитиш муҳим аҳамиятға эга. Чунки бу фаннинг мақсад ва вазифалари, ёшларда шаклланган инсонпарварлик, ватанпарварлик, табиат ва жамият бойликларига меҳр-мухаббат билан қараш, одамларға мурувват, меҳр-оқибат

кўрсатиш ҳислатларини республикамизда бўладиган турли хилдаги ноҳия ҳаракатлар йўл қўймасликдан иборат. Бундан ташқари етук комил инсонни тайёрлашда замонавий илмий ижодиётни шакллантириш керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Адилов Ф. Мустақиллик ва кадрлар сиёсати. Т: «Университет» 2001.
2. Мирзиётов И. Миллий кадрларимиз шамчироғи. Т: «Ўзбекистон» 2001.
3. Тўлаганова С. Олий таълим ислоҳоти – Т: «Фан» 2000.

**GEOGRAFIYA VA GEOLOGIYA YO‘NALISHI BO‘YICHA VARIATIV
REJA VA O‘QUV DASTURLAR ORQALI GEOGRAFIYA FANINI
O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Olimova F.K.

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
Respublika ta’lim markazi bo‘lim boshlig‘i**

O‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchining manfaatlarini inobatga olish bugungi zamonaviy pedagogikaning asosidir. O‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning individual xohish-istaklari, qobiliyatlari asosida variativ o‘quv rejalarga muvofiq o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning kelgusida tanlaydigan kasblari bo‘yicha tegishli oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlaridan mavjud fanlarni chuqur o‘rganishlariga sharoitlar yaratish, mamlakatimizda masofaviy mehnat sohalarini rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘quvchilarda zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun tegishli ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalari ixtiyoriy ravishda joriy qilindi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-11-sinflarida tanlov sinfini tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

1. 10-11-sinf uchun xorijiy til va filologiya yo‘nalishi;
2. 10-11-sinf uchun moliya-iqtisod yo‘nalishi;
3. 7-11-sinflar uchun veb-frilanser (internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish) yo‘nalishi;
4. 10-11-sinf uchun texnologiya yo‘nalishi;
5. 10-11-sinf uchun tabiiy fanlar yo‘nalishi;
6. 10-11-sinf uchun ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishi;
7. 10- 11-sinf uchun boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi;
8. 10- 11-sinf uchun kimyo-texnologiya yo‘nalishi;
9. 10- 11-sinf uchun geografiya va geologiya yo‘nalishi;
10. 10-11-sinf uchun maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi;
11. 10- 11-sinf uchun tarix va arxeologiya yo‘nalishi.

Xususan, “Geografiya va geologiya” yo‘nalishi bo‘yicha 10-11-sinflar uchun variativ reja asosidagi dasturni o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida

tashkil etish, o'quvchilarning kelgusida tanlaydigan kasblari bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari mavjud fanlarni chuqur o'rganishlariga sharoitlar yaratish va o'quvchilarda zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun tegishli ko'nikma va bilimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

“Geografiya va geologiya” yo'nalishida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash, o'quvchilarni mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar berilgan.

Mazkur yo'nalishda amaliy mashg'ulot va amaliy topshiriq strukturalari to'g'risida tushuntirishlar berilgan.

Amaliy mashg'ulot strukturasi mashg'ulotni bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur o'quv jihozlari nomlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy hodisalarni, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va xulosa yozadi.

Amaliy topshiriq strukturasi o'z ichiga matn, xarita, rasm, grafik, diagramma yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni xarita, matn, rasm, diagramma, grafik jadvaldan foydalanib bajaradilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzular kesimida yoki fanlar aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo'lishi mumkin.

“Geografiya va geologiya” yo'nalishida o'quvchilarga fanni chuqur o'rgatish va tegishli mavzularga doir qo'shimcha ma'lumotlar berish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash va mavzularni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlashga va qo'shimcha adabiyotlardan misol va masalalar, testlar yechish, o'quvchilarni oliy ta'lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlash bo'yicha ma'lumotlar berilishi belgilangan.

“Geografiya va geologiya” yo'nalishi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan variativ sinflardagi boblar va mavzularga qo'shimcha soatlar berilgan. Jumladan, geografiya fanlari tizimi haqida tushunchaga 2 soat ajratilgan bo'lib, unda geografiya fanlarining o'rganish obyekti va predmeti, geografiyaning tarmoqlari va ularning o'zaro bog'liqligi, geografiyaning ilmiy-nazariy ahamiyati va geografik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlari, jamiyat va tabiatning o'zaro munosabalarini o'rganishda geografiyaning ahamiyati, geografiyaning tadqiqot usullari o'rganiladi. Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi bo'limiga 4 soat ajratilgan bo'lib, geografik bilimlar rivojlanish 6 yirik davrlarga bo'lib ko'rsatilgan: qadimgi davr geografiyasi, yunon va rim olimlarning geografiya faniga qo'shgan hissalar, o'rta asrlardagi geografik izlanishlar, O'rta osiyolik geograf-allomalar: Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy faoliyati haqida, shuningdek, buyuk geografik kashfiyotlarning asosiy yo'nalishlar va voqealar, yirik sayyoh va dengizchilar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar, buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati, XVII-XVIII asrlardagi yirik ekspeditsiyalar va ilmiy geografiyaning shakllanishi, XIX asr va XX asrning 1-yarmida geografiyaning rivojlanishi va qutbiy o'lkalarning zabt etilishi, qolaversa, hozirgi zamon geografiya fani haqida o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan mavzular 10-11-sinflar uchun alohida o‘quv yili davriga mo‘ljallangan bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni geografiya faniga qiziqishlarini orttirish va ularning geografiya va geologiya yo‘nalishidagi bilimlarini kuchaytirishdan iboratdir.

Geografiya va geologiya yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari uchun ajatilgan soatlar taqsimoti tavsifa sifatida berilgan va umumta‘lim maktablarining 10-sinflarida matematika fani 4 soat, geografiya fani 6 soat, 11-sinflarda matematika fani 5 soat, geografiya fani 6 soatdan o‘qitiladi. Bundan tashqari, 10-sinflarda matematika faniga 4 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida algebra, 2 soatida geometriya fani, 11-sinflarda matematika faniga 5 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida algebra, 2 soatida geometriya fani o‘qitilishi belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu yo‘nalishda o‘quvchilarni kasbga yo‘nalitirish, fanning xususiyatlaridan kelib chiqib ularda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Geografiya va geologiya yo‘nalishi bo‘yicha qo‘shimcha ajratilgan soatlarda o‘quvchilarga geografiya fanini chuqur o‘rgatish va tegishli mavzularga doir qo‘shimcha ma‘lumotlar berish, o‘quvchilar bilimini mustahkamlash va mavzularni to‘liq o‘zlashtirilishini ta‘minlash, "Khan academy o‘zbek" online ta‘lim platformasi ta‘lim resurslaridan foydalanish, qo‘shimcha adabiyotlardan misol va masalalar, testlar (DTM saytidagi namunaviy testlar) yechish, oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarini sohaga jalb qilish, o‘quvchilarni oliy ta‘lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlash belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, geografiya va geologiya yo‘nalishi orqali fan nazariyasini amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish uchun yaratilgan bunday imkoniyat bugungi kunning va zamonaviy yoshlarning kelajakda o‘zlari qiziqqan soha vakili, ayniqsa geografiya fani va uning afzalliklari nimalardan iborat ekanligi, jamiyatni rivojlanishida geografiya fanining o‘rni, soha vakillarining erishgan yutuqlari yuzasidan o‘quvchilarga yetarlicha ma‘lumot berib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Xalq ta‘limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida variativ o‘quv rejalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 144-sonli buyrug‘i.

3. “Geografiya va geologiya yo‘nalishi” bo‘yicha ishlab chiqilgan variativ o‘quv reja bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘limning geografiya fani namunaviy o‘quv dasturi. 2020 yil. Respublika ta‘lim markazi.

DÚNYA JÚZI EKONOMIKALÍQ HÁM SOCIALLÍQ GEOGRAFIYASÍ PÁNIN MEKTEPLERDE OQÍTÍWDÍ JETILISTIRIW

Abdiramanov J.B.

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Ózbekstan Respublikasınıń Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev óziniń 2020-jıl 29-dekabr kúngi Ózbekstan Respublikası Oliy Májliske qılǵan múrájatnamasında «Biz óz alıdımızǵa mámleketimizde Úshinshi Renessans pundamentin payda etiwdey ullı maqsetti qoyǵan ekenbiz..., Usı maqset jolında jaslarımız óz aldına úlken niyetlerdi qoyıp, olarǵa erisiwleri ushın keń imkaniyatlar jaratıw hám hár tárepleme kómek beriw – hám memiz ushin eń baslı wazıypa bolıwı zárúr. Sonda ǵana perzentlerimiz xalqımızdıń ásirlik arzıw-ármanların júzege shıǵaratuǵın ullı hám qúdretili kúshke aylanadı.

Usı maqsette **“Jańa Ózbekstan – mektep bosǵasınan, tálim-tárbiya diziminen baslanadı”**, degen ideya tiykarında keń kólemlı reformalardı ámelge asıramız»- degen edi.

Mine usı wazıypalardı ámelge asırıwda hám de oqıwshılarda dúnya haqqındaǵı bilimlerdi qalıplestiriwde Dúnya júziniń ekonomikalıq hám sotsiallıq geografıyası pániniń ornı úlken.

«Dúnya júziniń ekonomikalıq hám sotsiallıq geografıyası» ushın tábiyat hám jámiyet ortasındaǵı o'z ara baylanıs ulıwma máseleler menen bir qatarda hár qıylı tábiyiy ortalıqtıń óndiris kúshlerin jaylastırıwǵa tásirin úyreniw de úlken áhmiyetke iye bolıp tabıladı.

Ekonomikalıq geografıyanıń obekti – aldınları belgili bir mámleket yaki rayonnıń xojalıq hám xalqı óndiris kúshleriniń jaylasıwınan ibarat bolǵan bolsa, keyin – ala xojalıq hám xalıqtıń aymaqlıq quramı yaki sisteması, aymaqlıq sotsial ekonomikalıq kompleksler kórinisin aldı.

Ekonomikalıq geografıyanıń tiykarǵı mashqalaları óndiriwshi kúshlerdiń dúnya júzi mámleketler, rayonlar boyınsha territoriyada jaylasıwı hám rawajlanıw mashqalaların úyrenedi.

Dúnya júzi hám de túrli mámleketler regionlarda óndiriwshi kúshlerdi rawajlandırıw hám territoriyalıq shólkemlestiriw ayırmashılıqlarınıń obektiv nızamların ashıp beredi.

Házirgi zaman ekonomikalıq geografıyasınıń baslı wazıypası-tábiyattıń jámiyettiń rawajlanıwı materiallıq óndiris komplekslerdiń ósiwine jaylasıwına tásiri, olardıń sotsial ekonomikalıq jaylasıwdıń geografıyalıq ortalıqqa hám bul ortalıq elementleriniń aymaǵındaǵı óz – ara tásirin esapqa aladı.

Usı maqalada «Dúnya júziniń ekonomikalıq hám sotsiallıq geografıyası» pániniń predmeti, teoriyalıq hám ámeliy jónelisleri, bazar ekonomikası sharayatında óndiris kúshlerin rawajlandırıw hám jaylastırıwdı jetilistiriw mashqalaları haqqındaǵı bilim hám kónlikpelerdi oqıwshılarda qalıplestiriw jolları kórsetildi.

Bunda dúnya siyasiy kartasınıń rawajlanıwınıń tiykarǵı basqıshları, iri o'zgerisler, sonnan socialistlik dúzimniń ıdırawı nátiyjesinde jańa ǵárezsiz ellerdiń payda bolıwı táriplengen hám de dúnya xojalıǵı, xalıq aralıq miynettiń bólistiriliwi

hám integratsiya máseleleri, ITR dın dúnya xojalıgınıń rawajlanıwına, tarmaq hám aymaqlıq dúzilmeleriniń tásiri kórsetilgen.

Dúnya sanaatı, awıl xojalıgı, transportı olardıń túrli mámleket toparlarına jaylasıwı hám rawajlanıwın sabaq barısında túsindiriw jolları analiz etilgen.

Geografiya páninde qalıplestiriletuǵın bilimler óz mazmunına qaray hár qıylı bolıp, bunday bilimlerdiń kópshiligi baqlawlar nátiyesinde qalıplese, olardı baqlawshılar dala sharayatında karta jádeminde, súwretler járdeminde de toplawı hám ámelge asırıw múmkin. Usı sebepli bul bilimlerdi úyreniw kópshilik jaqtan maǵlıwmatlardı, fakt hám analiz etiw menen tıǵız baylanıslı bolıp tabıladı. Geografiyalıq bilimlerdi tikkeley oqıwshını qorshap turǵan ortalıq mısasında úyreniwdi shólkemlestiriw de múmkin.

Lekin bul anıq ortalq pán bolıp ol, ekonomist, súwretshi, geolog, tariyxshı, shayır ushında ulıwma bilim bolıp tabıladı. Olar bul ortalıqqa qızıǵıwshılıq kóz qarasınan bir-birine jaqınlasadı. Máselen; qalanı úyreniwde ekonomist, tariyxshı óz qóz-qarasları hám rejesi tiykarında ámelge asırsa, geograf basqasha metoda úyrendi. Qalanı úyreniwdegi bunday jaqınlasıw bir ob`ektti hár turli jollar menen úyreniw mumkinligin, olardı úyreniwde álbette geografiyalıq bilimlerdiń qatnasıwın, bunday bilimler hár Qanday kásiptegi adamlar hám kásipler ushın kerекligin oqıwshılar ańlay aladı.

Geografiyalıq bilimler sebepli oqıwshılarda hár túrli kónlikpeler qalıplese, hám t.b.

Oqıwshılar geografiyanı úyrenen eken ol yaki bul hádiyseni keltirip shıǵaratuǵın sebeplerdiń quramalı ekenligin bilip aladı. Bul quramalılıq hár qıylı faktorlar sebepli qalıpleskenligin ańlaydı. Barlıq aymaqlıq kompleksler, regionlardaǵı tábiyiy ózgeshelikler tábiyiy hám antropogen faktorlardıń óz ara tásiri sebepli payda bolǵan.

Antropogen faktorlar turli kórinislerde, tiykarınan siyasiy, tariyxıy, ekonomikalıq, psixologiyalıq mazmunda bolıwı múmkin.

Aymaqlardı hár tárepleme analiz etiw arqalı oqıwshılar tábiyatdaǵı birde bir nárese hám hádiyse sebepsiz payda bolmaslıǵı hám qalıplespegenligin ańlap jetedi.

Geografiyanı úyreniw arqalı oqıwshılar ózi jasap turǵan sırtqı ortalıqtı hám hár qıylı ortalıqlardı bilip aladı.

En áhmiyetlisi oqıwshılar ózi jasap turǵan ortalıqtıń qanday mashqalalardı iye ekenligin, adamlar bul mashqalalard sheshiwde qanday jetiskenlikler hám kemshiliklerge dus kelip atırǵanlıqların ańlap jetiwleri kerек.

Atap aytqanda, hár bir territoriya ózine tán klimat, topıraq, resurslarına iye. Bul bolsa olardı úyreniwde ózine tán bolǵan usıllardı qollawdı talap etedi. Oqıwshılarda geografiya páni járdeminde hár qıylı qolaylı qábiletler de qalıplesiwi múmkin.

Geografıar mámleketler hám xalıqlar ortasında bolıp atırǵan quramalı baylanıslar hám qatnasıqların úyreniwde de qatnasadı. Ol yaki bul aymaqda jasap atırǵan, islep atırǵan insanlar iskerligin geografiyalıq jaqtan analiz etpesten atap aytqanda, olardıń resurslarǵa hám azıq-awqatlarǵa talabın anıqlamastan turıp birde bir orındı ózlestirip bolmaydı. İnsanlar talabın tómendegi jónelislerde úyreniw jaqsı nátiyje beredi. Bunı sabaq barısında oqıwshılardıǵa tómendegi talaplardı úyretiwimiz zárúr;

1. Ekonomikalıq talap, rayonnıń mineral, awıl xojalıq, sanaat, rekracion resursların úyreniw.

Olardı úyreniwde az qárejet etip kóbirek payda alıw názerde tutıladı. Nátiyjede bul aymaqda unamsız landshaftlar payda boladı, xizmet kórsetiwdiń tártipsiz ámelge asırılıwı sebepli, xalıqtıń jaylasıwında kommunikaciýalarınıń tártipsiz rawajlanıw jaǵdayları júz beredi.

2. Jámiyetlik talaplar aymaqda kapitaldı bólistiriwdi teńlik tiykarında rawajlandırıw, yaǵnıy aymaqtıń bir bólegi rawajlanıp ekinshi bólimi rawajlanbay qalmawına itibar beriw.

3. Ekologiyalıq talaplar. Insannıń tábiyatqa keri tásir etiwı aqibetleriniń aldın alıw ilajlarında turaqlı túrde ekologiyalıq mádeniyat elementlerin qalıplestirip beriwden ibarat. Hámmeniń ekologiyalıq qaǵıydalardı húrmet etiwın támiyinlewge háreket qılıw.

4. Kosmoslıq talaplar. Aymaqtı ózlestiriwde barlıq táreplerge tiyisli, fabrika, qala, jollar qurılısı jobalastırılса álbette onı jaylastırıwdıń qolaylılıǵın esapqa almastan, bálkim usı qurılǵan ob`ektlerdiń tábiyiy landshaftınıń táseri jámiyetlik hám ekologiyalıq aqibetler hám basqalar itibarǵa alınıwı kerek.

Demek, geografiyalıq bilimler mazmunı jaǵınan hár qiyli hám bay bolıp insan iskerliginiń túrli tarawlarında qollanıladı. Planetamızda jasawshı hár bir insan geografiyalıq bilimlersiz olardı maǵlıwmatlı hám gárezsiz insan sıpatında sheshiwı qıym. Insan jasap turǵan qorshaǵan ortalıq gózzallıǵın sezip ǵana qalmastan onda bolıp atırǵan hár qiyli sebep-aqibetlerdiń áhmiyetin túsiniwi hám ańlap jetiwı kerek. Hár bir oqıwshı ózi jasap atırǵan qala, awıldın geografiyasın puxta biliwi maqsetke muwapıq boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń mámleketimiz parlamenti – Oliy Májliske Múrajaáti. 2020.
2. Азизхўжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат - Тошкент, 2003.
3. Вахобов Х., Alimkulov N.R., Sultanova N.B. Geografiya óqitish metodikasi. T. 2021.
4. А.С.Солиев ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Тошкент, “университет” 2003. 304 б.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ ПО ХИМИИ ВМС В УСЛОВИЯХ САМОИЗОЛЯЦИИ

¹Эштурсунов Д.А., ²Рахимов Т.Х.

¹Чирчикский государственный педагогический институт Ташкентской области

²Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Организация полноценного дистанционного обучения, значение которого отчетливо высветилось в периоды вынужденной самоизоляции, предполагает сохранение всех дидактических задач, для решения которых, однако,

требуется значительная перестройка стратегии и методологии обучения. Зачастую студентам сложно полностью освоить уроки в традиционном ключе, без непосредственного контакта с обучающим. Это означает, что выполнение важнейшей задачи в обучении химическим специальностям возможно только при целенаправленном и интеллектуально оптимизированном подходе. Действительно, можно и нужно постоянно поддерживать и развивать практические навыки в максимально возможной степени, строго соблюдая меры безопасности. Количественно возрастает значение умения работать с интернет-источниками, облачными сервисами. Коренным образом должна быть перестроена система контроля знаний, умений и навыков студентов. Требования относительно отсутствия подсказок, шпаргалок и т.д. теряют смысл, одновременно возрастает значение умения самостоятельно решать практические задачи, находить нетривиальные пути решений и выражать свою мысль последовательно и понятно, в форме презентаций – слайдов, видео и т.д. Особое значение имеет также умение работать с компьютерными программами.

Несомненно, специфика обучения химии создает дополнительные сложности в части приобретения навыков, поскольку дистанционное обучение не заменяет развития навыков работы в оборудованной химлаборатории. Но, возможно, проведение опытов с полимерами с использованием обычных бытовых приборов, оборудования, кухонных принадлежностей и доступных в быту веществ в определенной степени может поддержать и развить знания учащихся по химии ВМС. Эту гипотезу не отрицают приведенные ниже экспериментальные данные.

Группе студентов было предложено проявить творческий подход, запланировать и осуществить опыты с общедоступными ВМС в собственном жилище с соблюдением всех мер безопасности. При этом технический уровень экспериментов должен был оставаться в рамках обычных кулинарных и строительных бытовых операций. Предварительно преподавателем были продемонстрированы опыты по изучению изменения физического состояния полимеров и формы изделий из них на примере ПЭТФ-бутылок, изменения химических характеристик вяжущих веществ при добавлении полимерных композиций – «ГИПС+ЖИДКИЕ ОБОИ» и др. Студенты должны были повторить это с и прислать соответствующее видео.

Затем студенты самостоятельно находили объекты и составляли план работ, после одобрения проводили работы с записью их на видео и публикацией на платформе ВУЗа[1]. В результате анализа видеофайлов получены следующие данные (таблица 1).

Таблица 1

Параметры видеозаписей самостоятельных работ, разработанных и выполненных студентами в условиях самоизоляции

<i>Тема ЛР</i>	<i>Наименование работы</i>	<i>Используемые в-ва</i>	<i>Технические средства</i>	<i>Продол ж. видео, мин</i>
----------------	----------------------------	--------------------------	-----------------------------	-----------------------------

Эксплуатационные свойства полимеров	Механические свойства полимерных материалов и методы их определения	пластиковая бутылка из полиэтилен-терефталата (ПЭТФ)	посуда для нагрева, пластиковая бутылка	7,5
Физико-механические св-ва полимеров	Механические свойства полимерных материалов и методы их определения	пластиковая бутылка из ПЭТФ	нагреватель, посуда для нагрева, пластиковая бутылка	2
Растворы полимеров	Набухание полимеров	NaHCO ₃ , NaCl , H ₂ O , горох (пищевой продукт)	Измерительное посуды	3
Полиэлектролиты	Определение изоэлектрической точки раствора казеина	Молоко, уксусная кислота, универсальный индикатор	стакан, стеклянная палочка, шприц	2
Химические превращения полимеров	Химические превращения полимеров	мармелад, вода	посуда для нагрева	2
Деструкция полимеров	Химическая деструкция полимеров	капрон, HCl	стакан, стеклянная палочка	3

Видеоработы студентов были оценены по пятибалльной шкале по ряду критериев – правильности понимания предмета изучения, креативности, последовательности выполнения, комментированию и обработке результатов наблюдений, оформлению работы. Затем был проведён корреляционный анализ результатов, с целью сравнительно оценить влияние опыта самостоятельной работы и только теоретических знаний. Последнее суммировалось по промежуточному контролю и тестированию, сданным коллоквиумам. Эти результаты сравнивали с результатами комплексной проверки, проведенной на итоговом контроле. Полученные результаты приведены в Таблице 2 и рисунке 1.

Таблица 2.

Корреляционный анализ оценок, полученных по результатам практического выполнения лабораторной работы, оценок за знание теоретического материала и итогового контроля

№ студ.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	Корреляция, %
Оценка видео	25	24	23	22	22	20	18	16	14	14	13	12	88%
Сумм. ПК и ТК	40	50	41	48	36	35	32	39	44	28	34	32	69%
Баллы ИК	15	14	14	14	12	12	11	11	12	10	8	6	

При этом необходимо учесть, что комплексный итоговый контроль состоял из трех последовательных этапов:


- тестирования с контролем времени;
- решение задачи;

•выполнения расчетов с применением программных средств и вычислительной техники по реальным экспериментальным данным.

Контрольные тесты были предназначены для определения уровня теоретических знаний студентов, и на основе пройденных тем создается банк тестов. Тесты из тестовой базы данных выбираются автоматически случайным образом. Время для ответа на тест было выбрано таким образом, чтобы у среднего ученика было меньше шансов быть обманутым, но если он или она усвоили знания по теме, их легко сохранить в течение отведенного времени.

Тестовые задания организуются при помощи онлайн-комплекса MyQuiz и запускаются автоматически в указанное по расписанию время, соответствующее началу проведения ИК. Студенты предупреждаются, что они должны заранее подключиться к системе тестирования, зарегистрироваться и принять меры к преодолению возможных технических проблем. Студенты имеют опыт работы с системой тестирования по сдаче ПК.

После проведения тестирования студентам выдаются второе и третье задания через Telegram и/или другие средства онлайн-коммуникаций.



После теста каждому студенту дается индивидуальное задание, чтобы определить уровень его практической подготовки. Это определяет, насколько креативен ученик и насколько хорошо он или она интерпретирует задание.

Например: При переработке полибутадиена с $M=40000$ в высокоэластическом состоянии его молекулярная масса уменьшилась до 20000. Как при этом изменились температуры стеклования, текучести и интервал высокоэластичности?

Задания имитируют расчетную часть выполнения лабораторной работы. Кроме ответа, необходимо привести объяснения решения, все необходимые расчеты, формулы и графики. Работы принимаются только в электронном виде, сканированные рукописи и т.д. не принимаются.

Варианты распределяются независимо и рандомизированно, индивидуально для каждого студента.

В течение семестра пример решения будет объяснен в видеороликах, раздаточных материалах, модуле, одним из таких примеров является

Рассчитать средневязкостную молекулярную массу и степень полимеризации полимера по известным значениям вязкости для его раствора в растворителе.

вариант	Полимер	Растворитель	Значения показателя				k x10 ⁴	α
			(c,г/100мл)/(ln η отн/с)					
	ПВХ	Циклогексан	0,15 0,22	0,2 0,35	0,25 0,42	0,30 0,48	1,16	0,850
	ПВС	Вода	0,15 0,23	0,2 0,32	0,30 0,48	- -	1,23	0,930

Рассчитать молекулярную массу полимера из данных ультрацентрифугирования его растворов в соответствующем растворителе при указанной температуре.

№ вар-та	Полимер	Растворитель	t, °C	S ⁰ , см. с ⁻¹ .дин ⁻¹
1	Полистирол	Циклогексан	35	5,0 · 10 ⁻¹³

Полученные результаты показывают, что наблюдается значимо более высокая корреляция между самостоятельными работами и комплексным итоговым контролем, чем последнего с традиционным контролем теоретических знаний. Это может свидетельствовать о более значительном




Рисунок 1. Суммы полученных баллов за текущий и промежуточный контроль, суммы за разработанные видео работы и суммарная оценка за комплексный итоговый контроль.

воздействии на уровень подготовки при творческом изучении дисциплины в сравнении с пассивным подходом при освоении материала курса «Химия ВМС». В то же время нельзя исключить, что причиной наблюдаемой корреляции является то, что проведение самостоятельной работы и создание видеоролика более соответствует требованиям комплексного итогового контроля.

Использованные литературы:

1. Обучающий видеоконтент, официальный ресурс НУУз
<https://www.youtube.com/watch?v=oKRLLoIYAJHk&t=198s/>

МЕКТЕПЛЕРДЕ GEOGRAFIYALÍQ BILIMLENDIRIW SÍPATÍ HÁM NÁTIYJELILIGIN ASÍRÍW MÁSELELERI

¹Nurlanov A.S., ²Dosimbetova G.

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

²Nókis qalalıq №9 mektebiniń geografiya páni oqıtıwshısı

Keleshegimiz bolǵan jaslarımızdın tálim hám tárbiyalıq intellektuallıǵın rawajlandırıwǵa qaratılǵan oqıw tárbiya protsesinde bilimlendiriwdin innovatsiyalıq forma hám usılların engiziw maqsetinde Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtin 2018-jıl 5-sentyabrdegi “Xalıq bilimlendiriwin basqarıw sistemasın jetilistiriw haqqında”ǵı qararında házirgi mektep bilimlendiriwdegi bir qatar kemshilikler atap ótilgen [1.9].

Sonın ishinde mektep bilimlendiriwiniń sıpatı, oqıtıwshılardıń bilim dárejesin hám pedagogikalıq sheberligin, axborot kommunikatsiyalıq texnologiyaların qollaw hám materiallıq texnikalıq bazasınıń jeterli dárejede emesligi sınaǵa alınǵan edi.

Házirgi waqıtqa shekem mekteplerde oqıtıwshılar óz qániygeligi boyınsha jaqsı sabaq ótse, klassta oqıwshılar sabaqqa tolıq úlgerse hám mektep pitkeriwshileriniń joqarı oqıw ornına kiriw sanına qarap mektep jámaátı úlken jetiskenliklerge eristi dep esaplaymız.

Mektep baǵdarlamalarınıń quramalasqan túrleri házirgi kúnniń talabına say tálim-tárbiya beriwge qarsı keledi. Oqıw jobasına kirgiziletuǵın materiallardı pedagogikalıq hám sotsialogiyalıq talaplarǵa say tańlap alınsa maqsetke muwapıq bolar edi. Sonın ushında mektep jasındaǵı balalarǵa házirgi dáwir ilimi tarawlarınan jıynalǵan joqarı dárejedeги bilim beriw emes, al jaslardı kámil insan bolıp qalıplesiwine hám rawajlanıwına múmkinshilik beretuǵın zárúr bilimler menen tárbiyalıq kónlikpelerdi úyreniwge járdemlesiw bolıp tabıladı.

Házirgi zaman mekteplerinde tárbiyalıq protseslerdi basqarıw degende balalardaǵı tábiyat tárepinen berilgen unamlı qásiyetlerdi rawajlandırıw yamasa onıń sotsiallıq ortalıqta ózin unamsız tutıwın, tártipsizlik etpewin qadaǵalap barıw ǵana emes al hár bir insanniń ózin ózi tárbiyalaytuǵın ózinde fizikalıq hám ruwxıy kúshlerdi mudamı rawajlandırıwshı zárúrlikti qalıplestiriw bolıp tabıladı [2.20].

Usı waqıtqa shekem mekteplerde jaslardı miynetke tárbiyalap atırmız, biraq onıń eń baslı juwmaǵı miynetke bolǵan zárúrliklerdi qalıplestire almay atırmız. Mekteplerde miynetke úyretiw sabaqlarında balalarda miynetke bolǵan unamlı

qatnas, adamlar miynetine húrmetli qatnas kónlikpelerin qálipsestiriw ushin oqıwshılardıǵa berilgen tapsırmalardıń qıyınshılıqların óz miynetiniń juwmaǵınıń nátiyjesi, óz shańaraǵına jámiyetke payda keltiretuǵının bilse ǵana miynetke bolǵan zárúrlík kónlikpelerin payda etiwimizge boladı [3.34]

Mektep oqıwshılarında miynetke bolǵan zárúrlíklerdi kúsheytip olardıń ruwxıy mádeniyatlılıǵın rawajlandırıwǵa múmkinshilik jaratıp, mekteplerde balalardıń uqıplılıqlarına, talabına sáykes erkin miynet etiwi arqalı óz betinshe oylaw, dóretiwshilik tańlaw uqıplılıqların rawajlandırıwımızǵa boladı.

Oqıwshılardıń bilim sapasınıń nátiyjeliligini asırıwda oqıw protsesinde qollanılatuǵın texnikalıq hám kórgizbeli qurallardıń áhmiyeti joqarı. Kórgizbeli qurallar oqıwshılardıń dúnya qubılısların kóz aldına keltiriwi hám fantaziyasını baytıwǵa keń múmkinshilik jaratadı. Ullı chex pedagog alımı Yan Amos Kaminskiydiń “Mıń márte esitkennen bir márte kórgen abzal” degen pikiri házirgi zaman pedagogikası rawajlanıwında óz áhmiyetin joǵaltpaǵan.

Mektep geografiya sabaǵı oqıw xanalarında sabaqlardıń sapasını támiyinleytuǵın kórgizbeli qurallardan kartalar, taw jınısları, minerallar, ósimlik, topıraq kolleksiyaı, hawa rayın baqlaw ushin meteorologiyalıq áspab úskenerler, oqıw filmlerin kórsetiw ushin televizor, video magnitafon, kinoproektor, diaproektor, kadoskop sıyaqlı texnikalıq qurallar hámde tábiyiy protseslerdi súwretlewshi hár qıylı modeller bolıwı zárúr.

Geografiya páni boyınsha klastan tıs jumıslarda tábiyat qubılısların baqlaw, topıraq ósimlik qatlamların úyretiw, hawa rayın baqlaw, atmosferalıq qubılıslardı ólshew hám tájiriybeler alıp barıw ushin mektep qasında shólkemlestirilgen geografiyalıq maydanshalar derlik joqtıń qasında. Házirgi mektep geografiya xanalarında sabaqlardı alıp barıw dástúriy oqıtıw usıllarında kartadan paydalanıp awızeki túsindiriw metodları menen sheklenip, joqarıda ayılǵan kórgizbeli qurallardıń jetispewshiligi sebebli oqıwshılardıń sabaqqa bolǵan qızıǵıwshılıǵın oyata almay atırımız.

Juwmaqlap aytqanıwızda mektepte tálim tárbiyalıq jumısların shólkemlestiriwde oqıtıwshılardıń házirgi zaman ilim jańalıqları menen qurallanıp óz ústinde islewi, jańa pedagogikalıq ádebiyatlar, texnologiyalıq usıllar menen tanıs bolıwı hám óz sabaǵınıń texnikalıq kórkemligine ayırıqsha itibar beriwi qusaǵan pedagogikalıq sheberliligine, talapshańlıǵına hám komponentine baylanıslı boladı.

Usı maqsette oqıwshılardıń sabaqta erkin pikirlep, belsendiligi menen ózbetinsheligin rawajlandırısaq sabaqtıń sapası hám nátiyjeliligine erisiwimizge keń múmkinshilikler jaraladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M.,“Xalıq bilimlendiriwın basqarıw sistemasın jetilistiriw haqqında”ǵı qararı.T. Ózbekiston. 2018.
2. Харчев.А.Г “Социалогия воспитания” М. 1990.
3. Семенов.Н “О некоторых перспективах развития трудовой деятельности” М.1973.

GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Alimkulov N.R., Abdullayeva D.N.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020 yil, 30-oktyabrdagi mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo’yicha videoselektor yig’ilishida o’qituvchi-ustozlar haqida shunday fikrni bildirdilar: ***“Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma’rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o’qituvchi, muallim deganda o’zim uchun eng aziz va hurmatli bo’lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta’lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi yig’ilish avvalida. – Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”***. Darhaqiqat, hukumatimiz tomonidan jamiyatimizda o’qituvchi-murabbiylarning mavqeyini yanada ko‘tarish, ularning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyatlari uchun etarlicha shart-sharoitlar yaratib berish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi zamon ta’lim tizimi oldida turgan muhim muammolardan biri - o’qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o’qituvchida barcha pedagogik g’oyalar mujassamlangan bo’lib, uning faoliyati orqali bu g’oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O’qituvchining ko’p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, ahloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o’qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog’liq: bolalarni o’qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o’tkazish, ota-onalar o’rtasida pedagogik targ’ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o’qituvchidan chuqur bilimga ega bo’lishni, o’z sohasini sevishini, umuman olganda o’qituvchining metodik darajasining yuqori bo’lishini talab etadi. Ta’lim muassasasi o’qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo’lishi lozim va u doimo: ***“Nima uchun o’qitish kerak?”***, ***“Qanday o’qitish kerak?”*** degan savollarga javob topishi, shuningdek, ta’lim-tarbiya xususiyatlari e’tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo’lishi lozim. Buyuk ajdodimiz, g’azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy o’qituvchining ma’naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo’yadi. Xususan, ***“Mudarris kerakki, g’arazi mansab bo’lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko’rgazmasa va olg’irlik uchun gap-so’z va g’avg’o yurgizmasa, nodonlikdan sallaslari katta va pechi uzun bo’lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o’rin bo’lmasa. Yaramasliklardan qo’rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o’zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo’lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo’lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”***, - deydi.

O'qituvchining metodik tayyorgarligini oshirishda elektron ta'lim vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish katta ahamiyatga ega. Geografiya ta'limida elektron ta'lim vositalaridan samarali foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarining yanada oshishiga erishadi. Quyida biz shu kabi elektron ta'lim vositalaridan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Elektron darsliklar. Amaldagi DTS, o'quv reja va dasturlar hamda tasdiqlangan darslikka asoslangan holda dasturchi, dizayner, uslubchi va darslik muallifidan iborat ijodiy guruh tomonidan yaratiladi. Bugungi kunda geografiya fani bo'yicha bir qancha elektron darsliklar yaratilgan bo'lib, fan o'qituvchisining ulardan to'g'ri va samarali foydalanishi uning metodik darajasining oshishiga olib keladi.

Videodarslar. Umumta'lim maktablari darsliklaridagi ma'lumotlar sinflar kesimida kengayib, murakkablashib boradi. Dars jarayonida o'quvchilarning mavzularni tinglash, xotirada saqlab qolish imkoniyatlari esa har xil. Shunday o'quvchilar borki berilgan ma'lumotlarni bir necha marta takrorlangandagina o'zlashtira oladilar. Bunday murakkablikning oldini olish uchun ma'lumotlarni takroran o'rganish va takroran eshitishga ehtiyoj tug'iladi. Amalda buning imkoni deyarli yo'q. Bu kabi muammolarni zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan mavzular bo'yicha yaratilgan videodarslardan foydalanib hal qilish mumkin. Ya'ni o'qituvchi ushbu videodarslarni o'quvchilarga tarqatadi va o'quvchilar darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida o'z shaxsiy kompyuterlari orqali videodarslarni takroran ko'p marta ko'rib, mustahkamlab oladi. Ta'lim jarayonlarida videodarslardan foydalanishning yana bir ijobiy xususiyati, bu o'quvchilar tomonidan mavzularni o'zlashtirish jarayonining o'sishiga yordam berishidir. Videodarslarni tomosha qilib, o'quvchilar o'quv jarayonida yanada faolroq ishtirok etadilar va ularga mavzular bo'yicha berilgan interfaol topshiriqlarni bajarishlari osonlashadi. Dars jarayonlarida videodarslardan foydalanilganda yangi ma'lumotni qabul qilish jarayoni fanga qiziquvchi o'quvchilar orasida, balki fanlarga qiziqishi kamroq bo'lgan o'quvchilar orasida ham kuchayadi. Videodarsni tomosha qilish darslik bilan o'tirishdan va shunchaki matnni o'qishdan ko'ra qiziqarliroq. O'qituvchi videodarsdan foydalanishi yoki shu kabi videodarslarni o'zi yaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchi o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lishi, o'quvchilarga fan sirlarini sodda usulda o'rgata olishi, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchanlik, o'quvchilar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo'lishi, shaxsiy namuna bo'la olishi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi uning metodik darajasining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M. B. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. 2019.
2. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).- Т.: Истеъдод – 2008. 87 бет.

3. X.Vahobov., N.R.Alimkulov., N.B.Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi., Darslik, "Nodirabegim" nashriyoti. Toshkent. 2021.
4. Тайлаков Н.И. Электрон дарслик яратишга қўйиладиган талаблар. "Халқ таълими" журнали, 2005. 2-сон.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШГА ТЎСИҚ БЎЛАЁТГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ

**Эшназаров Д.А., Урманов Н.Т., Джалилова М.С.
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти**

Кейинги йилларда мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига ҳамда халқаро стандартлар талабларига мос келадиган олий таълим тизимини яратиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Худудларда янги олий таълим муассасаларининг ташкил этилиши, кадрлар тайёрлашнинг замонавий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари ҳамда сиртки ва кечки бўлимларнинг очилиши, олий таълим муассасаларига қабул квоталарининг оширилиши мазкур йўналишдаги муҳим ислохотлар ҳисобланади.

Шу билан бирга олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишга, республикада амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар, ижтимоий ва иқтисодий соҳалардаги янгиланишларда ушбу муассасаларнинг фаол иштирокини таъминлашга тўсиқ бўлаётган бир қатор муаммолар сақланиб қолмоқда [1].

Финляндияда ўқитувчиларни ўқитиш бўйича барча дастурлар Финляндияда академик олий таълимнинг бир қисми бўлиб келган. Бизнинг натижаларимиз шуни кўрсатдики, барча ўқув дастурлари талабалари назарий методлардан кўра билимга эга бўлиш учун эмпирик усулларни афзал кўришади[2].

Буюк аллома, файласуф Махмудхужа Бехбудийнинг "Дунёда турмоқ учун дунёвий фан ва илм лозимдур, Замона илми ва фанидан бебаҳра миллат бошқаларга поймол бўлур" деган ҳикматли сўзлари бугунги куннинг яққол исботидир.

Узлуксиз таълим тизимида юқори малакали кадрларни тайёрлаш, уларда илмий дунёқарашни, меҳнатга ижодий муносабатни таркиб топтириш, уларда юксак меҳнат интизомини шакллантириш вазифасини қўяди.

Бу вазифаларни бажариш таълим тизимида янги техника ва технологиялардан фойдалана оладиган, юксак малакали, рақобатбардош кадрларни тайёрлаш демакдир.

Ишлаб чиқариш технологияларининг янгиланаётганлиги, фан кашфиётлари ва техникани бевосита ишлаб чиқариш кучига айланиб бориши олий таълим муассасаларидаги мутахассислик фанлари ўқитувчилари ўз билимларини мустақил ва мунтазам равишда чуқурлаштириб, янгилаб, тўлдириб ва кенгайтириб боришни талаб этади.

Ҳозирга кунда олий таълимни ривожланишига тўсиқ бўлаётган муаммолардан энг асосийси ишлаб чиқариш ва олий таълим ўртасидаги боғлиқликдаги муаммолардир.

Олий таълим сифатини оширишга тўсиқ бўлаётган муаммолар:

-Мутахассислик фанлари ва амалиёт ўртасида тафовутнинг мавжудлиги;

-Амалий ва лаборатория жиҳозларининг эскирганлиги;

-Ўқув материалларининг эскирганлиги;

-Ўқитувчиларда ортиқча қоғозбозлик ишларининг мавжудлиги;

-Талабаларда таълим олишга бўлган мотивациясини оширишга хизмат қилувчи механизмнинг мавжуд эмаслиги.

Таълим бўшлиқларини аниқлаб, уларни тўлдириш бўйича ўқув дастурларини жорий этиш жамиятимиз учун сув ва ҳаводек зарур. Инсон капиталини шакиллантириш, таълим натижаларини яхшилаш орқали Ўзбекистоннинг халқаро рейтинглардаги ўрнини мустахкамлаш[3] бугунги куннинг асосий мақсади бўлиши керак.

Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида мамлакатимизда жуда кўплаб ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Миллий университети ва Самарқанд давлат университетини мамлакатимиз олий таълим муассасаларининг флагманига айлантириш;

республикадаги камида 10 та олий таълим муассасасини халқаро эътироф этилган ташкилотлар (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education ёки Academic Ranking of World Universities) рейтингининг биринчи 1 000 та ўриндаги олий таълим муассасалари рўйхатига, шу жумладан Ўзбекистон Миллий университети ва Самарқанд давлат университетини биринчи 500 та ўриндаги олий таълим муассасалари рўйхатига киритиш;

олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтказиш;

халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, олий таълимнинг илғор стандартларини жорий этиш, жумладан ўқув дастурларида назарий билим олишга йўналтирилган таълимдан амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилган таълим тизимига босқичма-босқич ўтиш;

олий таълим мазмунини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ривожланишига муносиб ҳисса қўшадиган, меҳнат бозорида ўз ўрнини топа оладиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш;

олий таълим муассасаларида таълим, фан, инновация ва илмий-тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш фаолиятининг узвий

боғлиқлигини назарда тутувчи «Университет 3.0» концепциясини босқичма-босқич жорий этиш;

хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш, пуллик хизматлар кўламини кенгайтириш ва бошқа бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобига олий таълим муассасаларида технопарк, форсайт, технологиялар трансфери, стартап, акселератор марказларини ташкил этиш ҳамда уларни тегишли тармоқ, соҳа ва ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини тадқиқ қилувчи ва прогнозлаштирувчи илмий-амалий муассасалар даражасига олиб чиқиш;

олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари, илмий изланувчилари, докторантлари, бакалавриат ва магистратура талабаларининг юқори импакт-факторга эга нуфузли халқаро илмий журналларда мақолалар чоп этиши, мақолаларга иқтибослик кўрсаткичлари ошиши, шунингдек республика илмий журналларини халқаро илмий-техник маълумотлар базасига босқичма-босқич киритилишини таъминлаш;

Ўзбекистон олий таълим тизимини Марказий Осиёда халқаро таълим дастурларини амалга оширувчи «хаб»га айлантириш[4].

Юқорида келтирилган камчиликларни инобатга олган ҳолда, олий таълимда, таълимни шундай шаклини ишлаб чиқиш керакки, бу шакл олий таълимни ва ишлаб чиқаришни ривожланишига хизмат қилиши керак. Ҳозирги куннинг асосий талабларидан бири ҳам айнан кадрлар рақобатбардошлигини ошириш, кадрлар орасида соғлом рақобат муҳитини яратиш ва жаҳон талаблари даражасига жавоб берадиган кадрларни тайёрлаш асосий вазифаларимиздан биридир. Шундай экан бу вазифаларни бажариш бугунги куннинг долзарб масаласидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. ПҚ-3775, 05.06.2018 й.

2. Consuming, producing, and justifying: Finnish student teachers’ views of research methods. Reijo Vuoman, Katriina Maaranen & Pertti Kansanen. Published Online: 10 Mar 2020.

3. Образование и наука в XXI веке, “Масофавий ва модулли ўқитишнинг бугунги кундаги аҳамияти” Россия, 15.02.2021 й.

4. “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. ПФ-5847, 08.10.2019 й.

O'QUVCHILARDA GEOGRAFIYA FANINI O'RGANISHGA BO'LGAN HAVASLARINI ORTTIRISH MASALALARI

Urazimbetova Y.X., Ramberdieva S.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, geografiya dunyodagi eng qadimgi va qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, geografiyaga qiziqmagan, o'zining kundalik hayotiy faoliyatida geografiyaga duch kelmagan insonni uchratish qiyin. Bugungi kun geografiyasi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi.

Geografiya darslarida geografik topishmoqlar va suhbatlardan foydalanish bugungi kun geografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi desak yanglishmaymiz. Dars – ta'limning asosiy shaklidir. Darsni mazmunan va shaklan takomillashtirish, bu didaktikaning bosh masalalaridan biri ekanligini biz barchamiz yaxshi bilamiz.

Faqatgina darsda emas, darsdan tashqari, ya'ni sinfdan tashqari ishlarda noan'anaviy interfaol usullarni qo'llab sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, geografiya fanini yuqori pog'onaga ko'tarish o'quvchilarda shu fanni o'rganishga bo'lgan havaslarini orttirish lozim.

Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh masaladir. Darsda o'yinlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda geografik topishmoqlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Sababi, topishmoqlar katta so'z o'yini asosida vujudga keladi. Bu qadimiy geografik o'yin ham katta badiiy mahoratni va topqirlikni talab etadi.

Topishmoqlar xalq ijodiga obrazli so'zga muhabbat uyg'otadi. Bolalarga estetik zavq bag'ishlab, ularni she'riyat dunyosiga olib kiradi. San'atning o'ziga xos bo'lmish bu she'rlar o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy ehtiyojlariga ozuqa bo'ladi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo'lgan ona tiliga, tug'ilgan yurtiga muhabbat uyg'otadi. Shuningdek, topishmoqlar darslarda olingan bilimlarni mustahkamlashga, fikrlashga o'rgatib, fanga qiziqishini orttiradi.

«Geografik topishmoqlar» asosida tashkil etilgan dars o'quvchilar ongini, tafakkur qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Sababi, o'quvchi har bir topishmoqqa mos javobni topishdan oldin mazkur jumboqqa taaluqli o'zi bilan barcha ma'lumotlarni esga olishi, geografik kartalarni tasavvur qilishi, materiklar, davlatlar tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlarni esda saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Topishmoqni hozirjavoblik bilan topgan o'quvchi o'z bilimiga ishonch hislarini shakllantiradi, javob esa keyingi egallanajak bilimlariga kuch baxshida etadi.

Bunda o'quvchini fikrlashga, o'qituvchining har bir so'ziga e'tibor berishga, o'z fikrini ilmiy asoslab bayon etishga o'rgatishdan iborat. «Geografik topishmoqlar»

darsning boshlanishida o'quvchi diqqatini jalb etish va o'tgan mavzular bo'yicha bilimni sinashga dars so'ngida esa yangi materialni qay darajada qabul qilganligini bilish va o'quvchilarga ijodiy dam berish maqsadida foydalaniladi.

«**Geografik suhbatlar**» darsda texnika vositalaridan foydalanish vaqtida magnit tasmasiga yozib olingan har xil mavzuga xos suhbatlarni o'quvchilarga eshittirib, so'ng mavzu bo'yicha suhbatdan olingan ma'lumotlarni tashkil etishga qaratilgan. Bundan tashqari bu suhbatlardan kichik sahna ko'rinishlari tashkil etishda foydalanish mumkin.

Dars jarayonida ruhiy charchashni oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarni ichki dunyosini o'rganishga, ularni individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Geografik atama, hodisa, joy nomlari va boshqalarni topishmoq asosida bayon etilishi o'quvchilarni unga mos javobni topish uchun bilgan barcha ma'lumotlarni eslashga, geografik kartalarni tasavvur qilish, materiklar, davlatlar rayonlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni yodda saqlashga o'rgatadi.

Bunday topishmoqlarga misol keltirsak:

To'rt tomoning aniqlab berur,
Darajada joylar aks etar.
Osmonda, suvda, o'rmonda,
Sayohating chog'i asqotar. (*Kompas*)

Unga o'simliklar yuzini burar,
Qumursqalar inin og'zin qurar,
«Avstraliya» - so'zi unga taqalar,
Bu tomonning nomi qanday atalar? (*Janub*)

Yer yuzida shunday nuqta bor,
Kecha-kunduz farqlanmas unda.
Yulduz ham so'nmaydi zinhor,
Charaqlaydi kunda va tunda. (*Shimoliy qutb*)

Xaritamas, miqyosi bor,
Unda joyning rejasi bor.
Aniqrog'i globusdan,
Belgilarning o'z o'rni bor. (*Joy plan*)

Shu kabi topishmoqlar tabiiy geografiya kursida darslarni o'tishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir topishmoqni o'tiladigan dars mavzusiga moslab o'tilsa, dars yanada samaraliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Deylik, VI-sinf materiklar okeanlar kursida biror-birmaterikning hayvonot olamini, tabiat zonalarini o'tganimizda topishmoq asosida darsni boshlaymiz.

Bunday topishmoqlarga:

U dunyoda eng katta ummon,
Tinchligiga bor erur gumon. (*Tinch okeani*)

U qit'aga o'xshaydi,
Orollarni qo'shmaydi. (*Materik*)

Bir o'zanli yo'l bo'lur,
Oqib-oqib ko'l bo'lur. (*Daryo*)

Ulkan xaltali hayvon,
Qayerni qilgan makon? (*Avstraliya*)

Mana shunday topishmoqlardan darsda foydalanib mavzular yoritilsa, bolalarni topqirlik, zukkolik, chaqqonlik va ularni mantiqan o'ylab so'ng so'ylashga o'rgatadi. Bu kabi topishmoqlar mavzuni yaxshi tushuntiribgina qolmasdan, geografiyani boshqa sirlarini ham bilib olishga yordam beradi. Shu kabi topishmoqlar o'quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka, ziyraklikka undaydi va xotira tezligini sinaydi. Bundan tashqari VII va VIII sinf kurslarida hamda IX sinf kurslarida ham geografiya darslarida geografik topishmoqlardan foydalanib darsni tashkil qilish, musobaqalar uyushtirish ham katta samara beradi. Topishmoqlar o'quvchilarga milliy qadriyatlarga, Vatanga, tabiatga, geografiyaga bo'lgan mehrini, qiziqishini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, zukkolikka, hozirjavoblikka o'rgatadi.

Geografik suhbatlar. Insoniyat yaratilibdiki, bir-biri bilan muloqot qilish uchun suhbatga kirishadi. Bu suhbatlardan har bir inson o'ziga kerakli ma'lumotni oladi.

Quyida berilayotgan «Geografik suhbatlar» o'quvchilarni geografiya fani bo'yicha qiziqarli mavzularda suhbatlashishga chorlaydi. Bu suhbatlardan qaysi o'quvchi fan to'g'risida chuqur ma'lumotga ega ekanligi yaqqol ko'rinadi. Suhbatlarni o'z o'rniga kerakli mavzularga bog'lab qo'llanilsa, geografik bilimlardan qiziqarli suhbatlar vaqtida foydalanishga o'rgatadi. Bu suhbatlarni nutqi ravon o'quvchilar yordamida magnit tasmaga tushirilib, dars jarayonida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana bu suhbatlardan sahna ko'rinishlari tarzida foydalanilsa o'quvchilarga u yoki bu mavzuni chuqurroq egallashda yordam beradi.

Geografik suhbatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ikki o'rtoq suhbat. - Do'stim, ufqni asosan to'rt tomoni bor, shundaymi?

- Shunday.

- Qani aytingchi, bu tomonlarni qanday ko'rsatkichlarga qarab aniqlash mumkin?

- Agar gnomon kompas asboblari bo'lsa, ular yordamida, bu asboblarni bo'lmagan holda Quyosh va yulduzlarga qarab, shuningdek, mahalliy belgilarga ham tayanish mumkin. Bunda narsalarning soyasiga, daraxtlar tanasidagi yo'sinlarga, hatto chumoli inlariga e'tibor bilan qarashga to'g'ri keladi.

- Kungaboqar va shu kabi yorug' sevar o'simliklarga qarab ham aniqlash mumkinmi?

- Albatta, kungaboqar ertalab Sharqqa, tushda Janubga, kechqurun G'arbga va yarim tunda Shimolga qaragan bo'ladi.

Bu suhbatlardan geografiyaning boshlang'ich kursida ufq tomonlarini o'rganishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarni tomonlarni har xil vaziyatda aniqlay olishni o'rgatadi. Hatto, kungaboqar o'simliklarini kuzatadi. Bunday suhbatlar bolalarni qiziquvchanlikka, ijodkorlikka, izlanuvchanlikka undaydi.

Tabiat qo'ynidagi suhbatlar.

- Bugun tabiat o'zgacha bir tusga kirdimi?
- Qushlar, hasharotlar, hatto chumolilar ham serharakat bo'lib qolishdi.
- Ha, buni qarang, qushlar yer bag'irlab, tuproq titib, go'yo yuvinayotganga o'xshaydi. Biroq, havo haddan ziyod qizib ketdi.
- Ha, bugungi kun har kungidan juda ham issiq. Ertangi ob-havo qanday bo'larkan? - Menimcha yomg'ir yog'sa kerak. Bu kabi suhbatni ob-havo, iqlim mavzularini o'tganimizda qo'llash mumkin.

Joy planini olayotgan o'quvchilar suhbatidan:

Ra'no: - Anvar, bilasizmi, men tuzayotgan planim uchun bir bo'lingan ming (1:1000) sonli masshtabni tanladim. Masofani qog'ozga tushirsam, rejadagi bir santimetr masofa joyi qanchaga teng bo'ladi.

Anvar: - Bu joyda osonku, bir santimetrda o'n metr masofa aks ettirilgan. Demak, plandagi bir santimetr masofa joyda o'n metrga teng.

Ra'no: - Yana bir savolimga javob bering, bog' va o'rmon bir-biriga juda o'xshab ketadi. Ularni planda qanday tasvirlash mumkin?

Anvar: - Har ikkisi yumaloq shakllar bilan tasvirlanadi. Farqi shuki, o'rmonlarni tasvirlashda bu doirachalar tartibsiz joylashtiriladi.

Bu guruhdagi suhbatlar mavzuni geografik joy planlarini olishda, dala amaliyotida o'quvchilarga qo'yib berilsa juda maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari geografik suhbatlardan yuqori sinf kurslarida ham foydalanish mumkin.

Darsdagi suhbatlar:

O'quvchi: - Ustoz aytingchi, Orol dengizi nima uchun qurib qolyapti?

O'qituvchi: - Orolga quyiladigan daryolar va ularning qismlaridan qishloq xo'jaligida yerlarni sug'orish uchun oqilona foydalanmaslik dengizimizni qurishiga sabab bo'lmoqda.

O'quvchi: - Orol suvi sathini ma'lum yuzada saqlab turish mumkinmi?

O'qituvchi: - Buning yagona yo'li Orol havzasidagi mahalliy suv boyliklaridan tejab-tergab foydalanishdir. Bu bilan uning sathini 40 metr atrofida saqlab qolish mumkin.

O'quvchi: - Agar shunday qilinmasa nima bo'ladi ?

O'qituvchi: - Bunday holda Orol o'rnida o'ta sho'r kichik bir ko'l vujudga keladiki, u dunyoning hozirgi kunda eng sho'r dengizi hisoblanayotgan Qizil dengizdan ham sho'r ko'lga aylanib qoladi.

Bu kabi suhbatlarni tinglagan o'quvchilarga «Bu haqda sizning fikringiz qanday?» degan savollar bilan murojaat qilishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak geografiya – darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Dars jarayonida tashkil etuvchi fanga doir turli topishnoqlar va suhbatlar noan'anaviy darslarning muhim shaklidir.

Ular o'quvchilarning shu fanga qiziqishlarini, mehrini kuchaytiruvchi, ularning darsdagi ruhiy toliqishlarning oldini oluvchi, ziyraklik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda bilim saviyalarini yanada oshirishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Geografiya darslarida tashkil etish mumkin bo'lgan geografik topishnoqlar va suhbatlar har bir sinfda mavzuning mazmuniga mos kelishiga e'tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.
- 2.Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya.– T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.
- 3.Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.

ГЕОГРАФИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МУАММОЛИ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ ВА РОЛИ

Гайпова Р.Т., Атабаева А., Оринбаева А.Б.

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

“Агар мендан сизни нима қийнайди?” деб сўрасангиз, фарзандларимизнинг таълим ва тарбияси деб жавоб бераман”- деган эди юрт бошимиз Ш.Мирзиёев. Президентимиз бу гапни бежиз айтмаган ҳозирги пайтда ёшлар таълим-тарбияси, уларнинг муносиб касб-хунар эгаллашлари, таълим-тарбия тизимини ислоҳ қилиш ва миллий кадрлар тайёрлашни замон талаби даражасига кўтариш масаласига аҳамият берилмоқда.

Шунинг учун ҳам ёшларни мустақил изланувчан, мақбул ва эркин фикр билдира оладиган, дунёқараши кенг, тегишли қарор қабул қила оладиган шахс қилиб тарбиялаш кун тартибидаги энг долзарб масалалардан бирига айланмоқда.

Германиялик изланувчилар М.Мачилл ва М.Байлерон немис мухбирларининг технологиялар тараққиётига қарамай хануз ахборот олишда классик услубдан фойдаланаётганини айтади. Шунга ўхшаш хулосаларни финландиялик тадқиқотчилар Осулливан ва Хайноненларнинг мақолаларида ҳам учратиш мумкин. Онлайн янгиликлар тайёрлашда интерактивликни ўрганган Доминго эса анъанавий журналистиканинг профессионал маданияти онлайн нашрларда йўққа чиқаётганини таъкидлайди.

Бу ерда технология атамаси нафақат жиҳозларга, балки маълумотларни олиш усуллари билан ҳам боғлиқлигини инобатга олиш керак. Чунки алоқа технологияларининг хусусиятлари ва эпистемологик қиймати сезиларли даражада бир-биридан фарқ қилиши мумкин. Анъанага кўра, олимлар уларни 3 та асосий гуруҳни ажратади: воситачилик қилмайдиган, оғзаки ва матнли. Бизнинг фикримизча, 4 гуруҳга конвергент ёки ижтимоий тармоқларда мавжуд гуруҳларни келтириш мумкин. Чунки уларда ҳам маълумот матнли тақдим этилади аммо конвергент алоқа асосан анъанавий матнли алоқаларга нисбатан кўпроқ эътиборни тортади.

Германиялик олим С. Рейнеман “гаплашиш” янгиликлар ишлаб чиқаришнинг ҳар бир босқичида ахборот хизматларидан кейин иккинчи муҳим ўринни эгаллашини эслатиб ўтади. Мачилл ва Бейлер эса телефонни ахборот топишнинг энг қулай воситаси бўлиб қолаётганини таъкидлайди.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, таҳририятлар бошқарувини ташкил

этишга қўйиладиган замонавий талаблар ўзгаришда давом этмоқда. Уни бир қолипга солишнинг ёки аниқ тизимини ишлаб чиқишнинг имкони йўқ. Тадқиқотчиларнинг фикрлари бир-бирини такрорламайди, баъзи ўринларда бир-бирини инкор этса-да улар бир бутунликда таҳририятлар бошқарувининг назарий асосларини ташкил этади. Демак таҳририятлар бошқарувидаги тенденцияларни тадқиқ қилиш, ўзига хосликларни аниқлаш, тузилмавий ўзгаришларнинг самарали усулларини ишлаб чиқиш ҳамиша долбзарб бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Gade P., Raviola E. Integration of news and news of integration: A structural perspective on news media changes // Journal of Media Business Studies. 2009.6:1.
2. Кирия И. Зарубежный медиамаркетинг – М.: ВК, 2006.
3. Vobič I. From one-man band to integrated newsroom // Journalism Studies. 2015. № 16:2.
4. Deuze M. Media work. Cambridge: Polity Press, 2007.
5. Picard R. Twilight or new dawn of journalism? // Journalism Studies. 2014.№15(5).
6. Reich Z. The impact of technology on news reporting: a longitudinal perspective // Journalism & Mass Communication Quarterly. 2013. № 90(3).

МЕКТЕПТЕ ОQÍW PROCESINDE ОQÍWШÍНÍН SABAQQA BOLĠAN QÍZÍĠWШÍЛÍĠÍ HÁM DÍQQATÍ

Orinbaev N.B.

Qaraqalpaqstan Respublikası, Moynaq rayoni 10-sanlı mekteptiń geografiya pání oqıtıwshısı

Házirgi kúnde dúnya júzi tez pátler menen rawajlanıp baratırǵan zamanda, qaysı tarawdı alıp qaramayıq, úzliksiz báseki ortalıǵına aylanıp atırǵanlıǵınıń guwası bolamız. Bulda bolsa ilim-pánniń jetiskenligi desek adaspaymız álbette. Sol ushında búgingi globallasıw dáwirinde jas-áwladqa zamanımızǵa say tálim-tárbiya beriw eń aktual máselelerden biri bolıp esaplanadı.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev, “Bilimlendiriw hám tárbiyanıń negizi, pundamenti bul-mektep. Mektepti, mektep qılatuǵın kúsh bolsa oqıtıwshılar” dep ayırıqsha atap ótkenindey, hár bir insan tiykarǵı turmısı ushın kerek bolǵan teoriyalıq hám ámeliy bilimdi, eń ádiwli orın mektepte aladı [1]. Al bilim beriwde bolsa eń dáslep oqıtıwshınıń roli úlken.

Mektepte oqıtıwshı tárepinen sıpatlı sabaq processin shólkemlestiriw qıyın másele. Bul processti hár bir oqıtıwshı óziniń bilim hám tájiriybe, kónlikpesine súyene otırıp alıp baradı. Bunda házirgi zaman pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw maqsetke muwapıq esaplanadı. Oqıw processin, ásirese turmıs penen baylanıslı halda alıp barıw jaqsı nátiyjeler beriwı sózsiz. Mektepte oqıw processinde, sabaqqa bolǵan oqıwshılardıń qızıǵıwshılıǵın hám dıqqatın arttırıw, bilimlendiriwdegi eń qıyın máselelerden. Bala bilim alıwda oǵan kerekli bolǵan

nárse bul, qızıǵıwshılıq hám dıqqat bolıp tabıladı. Eger balada eń dáslep qızıǵıwshılıǵına qaray otırıp, dıqqatın qarata alsaq jaqsı jetiskenliklerge erisiw múmkin. Qızıǵıwshılıq bul, insan ómiri dawamında qalıplesiwshi qábilet. Yaǵnıy qandayda bir iske bolǵan, iskerlik qábilet. Bul insannıń tuwma qábiletlerine baylanıslı halda da qalıplesip barıwı múmkin.

Qızıǵıwshılıq insannıń áhmiyetli psixologiyalıq táreplerinen biri bolıp, tikkeley onda insannıń individual ózgeshelikleri jámlesken boladı. Psixologiya iliminiń kózge kóringen alımlarınıń táliymatına qaraǵanda, qızıǵıwshılıq adamlardıń zárúrlikleri tiykarında anıq jámiyetlik-tariyxıy shárt-shárayat, jaǵdaylarında júzege keledi, qalıplesedi, turaqlasıp baradı hám de olardıń jeke turmıs shárayatı hám xızmetinde, jámiyetlik óndiriste qatnasıwı sıyaqlı faktorlarda kórinedi. Qızıǵıwshılıqtıń psixologiyalıq mánisiniń dáslepki kórinisi- bul onı adamlar tárepien ańlap jetiwi yáki túsiniw imkaniyatı bolıp tabıladı.

Psixologiyada qızıǵıw tómendegi tiplerge ajratıladı.

- 1) mazmunına qaray: jeke hám jámiyetlik;
- 2) maqsetine qaray: tikkeley hám tikkeley emes;
- 3) kólemine qaray: keń hám tar;
- 4) qızıǵıw dárejesine qaray: turaqlı hám turaqsız;

Qızıǵıw mazmunı jaǵnan insannıń bilim imkaniyatınıń turmıs iskerliginiń maqseti menen sáykesligi bolıp tabıladı. Insannıń jeke qızıǵıwshılıǵı kelip shıǵıwına qaray birinshi bolıwına qaramay, ol sol waqıttıń ózinde jámiyet ushin áhmiyetli. Qızıǵıw insan iskerligi dawamında payda boladı, bul tikkey qızıǵıw bolıp tabıladı. Al qandayda shınıǵıwlar, ámellerdi orınlaw arqalıda qızıǵıw payda bolıwı da múmkin. Bul tikkeley emes qızıǵıw bolıp esaplanadı. Sonıń menen bir qatarda dıqqattıńda ornı óz aldına. Insanǵa mudamı oǵada kóp hár qıylı qozdırıwshılar tásir jasap turadı. Adamnıń sanası barlıq obiektlerdi bir waqıtta jetkilikli dárejede anıq qamtıy almaydı. Qanday da bir nárse ayqın sana sheńberinde boladı, qanday da bir nárse tolıq túsiniw qaladı, qandayda bir nárse oǵada gúńgirt boladı, al kóplegen nárseler pútkilley sezilmey qaladı. Dógerek átiraptaǵı oǵada kóp obiektlerden, zatlardan hám qubılıslardan, adam ózi ushin qızıqların, ózinin` zárúrligine, turaqlılıq planlarına sáykes keletuǵınların ajratıp aladı. Adamnıń hár qanday xızmeti obiekti ajratıp shıǵarıwdı hám pútkil oyın, dıqqatın oǵan jámlewdi talap etedi. Basqa hámme nárselerge alań bolmastan, sananı belgili bir obiektlerge yamasa belgili bir xızmetke baǵdarlawdı hám jámlewdi dıqqat dep ataydı. Dıqqat barqulla oǵada kóp, basqa nárselerden qanday da bir nárseni ajratıp alıw boladı. Bir obiektiń oǵada kóp basqa obiektlerden ajratıp shıǵarılıwda dıqqattıń tańlap alıwshılıǵı dep atalǵan nárse kórinedi. Bir nársege dıqqat awdarıw bir waqıttıń ózinde basqasına kewil bóliw boladı. Mektep oqıwshılarınıń psixikalıq xızmetin shólkemlestiriw qalayınsha ózgerip turadı?

I.P. Pavlovtıń aytıp ótkenindey «bul ne» degen refleks dıqqattıń dáslepki forması retinde barlıq kútilmegen, belgisiz nárseden qutılıw boladı. Sabaqta oqıwshılar muǵallimdi qızıǵıwshılıq penen tıńlaydı. Mısalı: Esik shıyqıldaydı hám yarım ashıladı, hámme eriksiz túrde esikke jalt qaraydı. «Bul ne?». Dıqqat degenimizdiń ózi, qabıl etiw, yadta saqlaw, oylaw yamasa qıyal etiw sıyaqlı

psixikalıq process emes. Biz qabil etiwimiz yadta saqlawımız, oylawımız múmkin, biraq, «dıqqat penen bánt» bola almaymız.

Oqıwshılarda sabaqqa bolğan qızıǵıwshılıq hám dıqqattı qalıplestiriwde, pedagog, hár sabaq processin bir- birine uqsamas hám qaytalanbas halda alıp barıw kerek. Sonıń menen oqıwshını psixologiyalıq jaqtan úyrene otırıp, kóbirek onıń turmıslıq iskerliklerinen kelip shıǵıp jumis alıp barıw maqsetke muwapıq. Yaǵnıy, sabaq processin shólkemlestiriw, onıń sapalı hám nátiyjeli bolıwında eń dáslep oqıwshılardıń qızıǵıwshılıq hám dıqqatın payda ete alıwımız jetkilikli. Bul bolsa pedagoglar ushın qıyın máselelerden. Hár bir pedagog bul jaǵdayda eń aldı menen, óziniń bilimi, tájiriybelerine, ómirlik keshirmelerine súyeniw kerek. Sonda ǵana sabaq processinde, bilimlendiriwde nátiyjeli jetiskenliklerge erisiwimizge, keleshek áwladlardı bilimli, ziyrek, kámil insan etip tárbiyalawda úlken jol ashılıwı sózsiz.

Paydalanılğan ádebiyatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil, 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatsdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.
2. Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Ҳ., Ниёзов Г., Ҳасанбоева О., Усмонбоева М. Педагогика. ўқув қўлланма. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриётни. 2006.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000.
4. Umarov B.M. «Psixologiya» Toshkent-2012.
5. G‘oziyev E.G’.«Psixologiya» Toshkent-2008.

3-СЕКЦИЯ

ГЕОЭКОЛОГИЯЛЫҚ МАШҚАЛАЛАР ҲӘМ ОНЫ ШЕШИЎДИҢ СОЦИАЛ-ЭКОНОМИКАЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ

ГЕОЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА ТАБИАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ

Утепова Г.Б., Генжебаев Қ.Қ.

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Инсоният ҳеч қачон ҳозирги вақтдагидек катта миқдорда табиий ресурслардан фойдаланмаган, ҳар хил чиқиндиларни атроф-муҳитга ташламаган. Ҳеч қачон жаҳон иқтисодиёти, жаҳон ахборотлар тизими ҳозирги кундаги ҳолатга ўхшаш тарзда глобаллашмаган ва яхлит шаклга эга бўлмаган.

Инсониятнинг мавжудлигига хавф солаётган экологик инқироз сайёрамизнинг барча қисмларида ҳар хил ҳолатда намоён бўлмоқда. Атроф-муҳит муҳофазаси халқаро миқёсда нафақат экологик талаблар орқали амалга оширилади, балки улар ижтимоий, сиёсий, иқтисодий талабларни ҳам ўз ичига қамраб олган ҳолда шаклланади. Лекин назарий жиҳатдан қараганда табиатни муҳофаза қилиш меъёрлари фақатгина халқаро экологик муносабатларни инобатга олиш керак. Чунки экологик муаммолар дунёвий муаммолар - инсон ҳуқуқлари, иқтисодий, энергетик, ядро уруши, озик-овқат, таълим каби муаммолар билан узвий боғлангандир. Ҳар бири экологик муносабатлар билан бевосита ва билвосита алоқадорликда бўлгани учун ҳам маҳаллий, регионал, глобал масалалар қаторидаги ягона муаммо бўлиб келмоқда.

Жамият ва табиат ўртасидаги иқтисодий муносабат шакли - фақатгина иқтисодий маданиятлашган кишиларнинг ўз иқтисодий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш учунгина табиатни истъеомолчилик психологияси позициясидан туриб фойдаланиши натижасида атроф-муҳит ифлосланиши, ресурслар камайиши ва табиат тизимларининг ўзгаришига олиб келадиган жараён - бу албатта инсонларнинг ҳаёт тарзи натижасидир. Шу боисдан ҳам экологик тизимларнинг катта майдонларда ва кенг миқёсда (глобал) бузилиши кўзатилмоқда.

XX асрнинг иккинчи ярмида кузатилган иқтисодий тараққиёт атроф-муҳит имкониятларини ҳисобга олмаган ҳолда амалга оширилди. Бунинг натижасида жаҳон экологик тизимида жуда катта путур етказилди. Энди “глобал экологик тизим деградацияси”, “экологик барқарорлик”, “ҳаётни таъминловчи табиий тизимларнинг бузилиши” ва шуларга ўхшаш экологик инқирозларни ифодаловчи бошқа тушунчалар муомалада кенг ишлатила бошланди. Американинг бутун жаҳон кузатиш институтининг сўнгги йиллик ҳисоботларида дунёда шаклланаётган “даҳшатли” экологик вазият тўғрисида очиқдан очиқ ёзилмоқда.

Мутахассислар маълумотларига кўра, «Ер юзида содир бўлаётган табиий жараёнларнинг 9/10 қисмида инсон фаолиятининг маҳсули акс этмоқда. Бу жараёнларни доимо ҳам ижобий деб булмайди. Чунки экологик хавфсиз муҳит, яъни инсонларнинг муҳим ҳаётий манфаатлари ва авваломбор

тоза, соғлом, кўлай табиий шароитга эга бўлиш талабини тўла қондиришга қодир бўла оладиган атроф табиий ва ижтимоий муҳит ҳолати инқироз ва талофат томон интилиб бормоқда»[Алибеков Л.А].

Ҳозирги замон халқаро экологик ҳамкорлик уч йўналишда амалга оширилмоқда:

1. табиий муҳитни муҳофаза қилишнинг давлатлараро ва миллатлараро ҳамкорлик ва улардаги ижобий тажрибаларни кенг тарғиб қилиш;
2. ҳар бир географик минтақада табиатни муҳофаза қилишнинг илмий чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ва уларни амалий тадбиқ қилиш;
3. глобал экологик муаммоларни ечимини топишда БМТ нинг идоралари давлат ва нодавлат ташкилотлар орқали универсал йулларни ишлатиш.

Аҳолининг маданият савияси қанчалик юқори бўлса уша жойда экологик шароит шунчалик қулай, яшаш муҳити соф бўлади. Ҳар бир мутахассис, қайси жавҳада фаолият кўрсатишидан қатъий назар аҳолининг муҳим экологик маданияти савиясини юксалтиришга ўз ҳиссасини қўшиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алибеков Л.А. Нишонов С.А. Табиатни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан рационал фойдаланиш. -Т., “Ўқитувчи”, 1993.
2. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1991.
3. Мамедов И.А Основы экологии.- Москва: “Высшая школа”, 1996.

ТОҒ ОЛДИ ЯЙЛОВЛАРИДА ЧЎЛЛАНИШНИНГ ОҚИБАТЛАРИ ВА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ **Назаров Х.Т., Рустамов У.А., Қўшоқова Ф.У., Қаршибоева Ш.Ғ.** **Самарқанд давлат университети**

Аннотация: Мазкур мақолада тоғолди яйловларида чўлланиш жараёнлари жадал ривожланиши, ўсимлик қопламанинг камбағаллашуви, тупроқ-сув баланси мувозанатини бузилишига табиий ва антропоген омилларнинг таъсири таҳлил этилган. Шунингдек, яйловларнинг экологик ҳолатини яхшилаш, чўлланиш жараёнининг олдини олишда фитомелиоратив тадбирларни тўғри ташкил этиш масалалари ёритилган. Фитомелиоратив тадбирларни амалга оширишнинг илмий асослари баён этилган.

Калит сўзлар: Яйловлар, чўлланиш жараёни, сув баланси, табиий ва антропоген омиллар, фитомелиоратив тадбирлар, экологик ҳолат, ҳосилдорлик, тупроқ-сув режими.

Последствия опустынивания на предгорный пастбищах и пути предотвращения экологической оптимизации

Аннотация: В этой статье анализируется влияния природных и антропогенных факторов на быстрое процессотпустытывания, заросли растительного покрова, почвенного и водного баланса. В нем также изложены вопросы улучшения экологического состояния пастбищ и подлежащей

организации фитомелиоративных метроприятий по предотвращению опустынивания.

Ключевые слова: Пастбища, процесс опустынивание, водный баланс, природные и антропогенные факторы, фитомелиоративные меры, экологическое состояние, предуктивность.

Environmental consequences of desertification on pastures and ways prevention

Abstract: This article analyzes the impact of natural and anthropenic factors on the rapid development of desertification processes thicket of vegetation, soil and the proper organization of phytomeliortive measures to prevent desertification.

Keys words: Pastures, the process of desertification, water balance, natural and anthropogenic factor, phytomeliorativeteasur, ecological condition.

Республикамизнинг 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг “Харакатлар стратегияси” учинчи йўналиши “ Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устивор йўналишлари” да қишлоқ хўжалигини модернизатсия қилишга алоҳида этибор қаратилган бўлиб йўналишда қишлоқ хўжалигини модернизатсия қилишга этибор қаратилган бўлиб йўналишда қишлоқ хўжалигини, хусусан чорвачиликни ривожлантиришга алоҳида озиқ-овқат ҳафсизликни таминлашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини такидлаб ўтилган.

Республикамиз қишлоқ-хўжалигининг асосий тармоқларидан бири яйлов чорвачилиги ҳисобланиб, сохани янада тараққий этириш бевосита яйловлар ҳосилдорлигига боғлиқдир. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 2-апрелдаги “ Яйловлар тўғрисида” ги қонунда яйловларни экологик ҳолатини яхшилаш уларнинг самарадорлигини оширишга қаратилган илмий татқиқот ишларини янада ривожлантириш белгилаб берилган. Бу республикамизда мавжуд 32 млн гектар яйловларни экологик ҳолатини илмий ўрганиш ва улардан янада самарали фойдаланган ҳолда чорвачиликни, хусусан, яйлов чорвачилигини янада ривожлантириш орқали озиқ-овқат ҳафсизлигини таминлашга, ҳудудларда чорвачиликни асосий тармоқлари бўлган қорақўлчилик, туячилик ва йилкичиликнинг ривожлантириш улардан олинадиган маҳсулотлар (қоракул териси, гўшт) сифатини ошириш, етиштирилган маҳсулотларни жаҳон бозорига экспорт қилиш орқали республикамиз иқтисодиёти юксалишига эришиш масалалари кўрсатиб ўтилган. Бундай долзарб вазифаларни ўз вақтида бажариш яйловларни экологик ҳолатини илмий урганиш , мониторинг қилиш ва яйлов чорвачилигини ривожлантириш учун зарур бўлган ем-ҳашакка бўлган талабни таминлаш муҳум аҳамиятга эга.

“Харакатлар стратегияси” устувор йўналишларида чорвачилик хусусан қорақўлчиликни янада ривожлантиришга алоҳида этибор қаратилганлиги муҳум аҳамиятга эга бўлиб қорақўлчилик республикамизни чўл ва чалачўл

худудларида қадимдан ривожланиб келган бўлиб, сохани ривожлантириш яйловлардан самарали фойдаланишга алоҳида кўрсатиб ўтилган. Кейинги йилларда яйловлардан натўғри фойдаланиш қатор экологик муамоларни вужудга келишига олиб келди ва сохани ривожланишига малум миқдорда тўсқинлик қилинмоқда. Яйловлардан аёвсиз фойдаланиш экологик мувозанатни издан чиқишига, биохилмахилликнинг камбағаллашувига, яъни яйловларда ўсимлик сони ва турларини камайишига, етиштирилаётган ем-ҳашакни миқдорини кескин камайишига олиб келмоқда. Яйловларни экологик ҳолатини ёмонлашишига асосан табиий ва антропоген омиллар сабабли юз бераётганлигини ҳисобга олсак, бу ҳолат кейинги йилларда кескин тус олди ва яйловлар деградациясини кучайишига олиб келди. Юзага келган экологик муаммоларни илмий урганиш уларни келиб чиқиш сабабларини аниқлаш, мониторинг олиб бориш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, мавжуд экологик муамоларни бартараф этиш орқали яйловларда экологик барқарорликка эришиш биосензда биологик хилма-хилликни таминлаш билан бирга яйлов ҳосилдорлигини оширишга ва натижада яйлов чорвачилигини хусусан қорақўлчиликни янада ривожлантириш мумкин.

Яйлов чорвачилиги асосан арид ва субарид минтақаларда тарқалганлигини ҳисобга оладиган бўлсак, соҳа ривожига бевосита яйловларнинг экологик ҳолатига ва ҳосилдорлигига боғлиқ бўлиб, ҳосилдорлик эса бевосита иқлимий омилларга боғлиқ равишда ўзгариб туриши билан характерланади. Бундан ташқари яйловлар ҳосилдорлиги табиий ва антропоген омиллар тасирида ўзгариб туришини кузатиш мумкин. Ер шарида арид ва субарид минтақалар майдони бутун қуруқлик юзасини 22 % ини ташкил қилган ҳолда республикамизда эса 32 млн гектарга тенг бўлиб, шундан 17 млн гектари яйлов чорвачилигида фойдаланиб келинмоқда.

Республикамиз яйловларида асосан, қорақўлчилик, йилқиччилик ва туячилик кенг тарқалган соҳалардандир. Чўл ва чалачўл яйловларида асосан қорақўлчилик тарқалган бўлиб уларни ривожлантириш яйловлар ҳосилдорлигига боғлиқ бўлиб унинг ҳосилдорлиги ўртача 1,5-3 ц/га, қуруқ иқлимли йилларда 0,5-1,5 цга тенг бўлиши кузатилади.

Республикамизда яйловларда боқиладиган қорақўл қўйлари сони 6 млн бошдан зиёд бўлиб, бундан ташқари аҳоли хонадонларида ҳам қарийиб шунча миқдорда қорақўл қўйлари мавжуд. Уларнинг асосий озуқа захираси чўл ва чала чўл ўсимликлари бўлиб, яйловлардан фойдаланиш меёрини бузилиши яйловлар инқирози кучайишига яъни яйлов ўсимлик қопламани кескин камайишига олиб келиб ҳосилдорликни 2-3 бараварга камайиб кетишига сабаб бўлмоқда.

Яйловларда интенсив фойдаланиш имкониятларини қисқариши чорвачиликни ривожлантириш истиқболларини кескин камайишига олиб келди. Бу эса чўл ва чала чўл худудларда яшовчи аҳолини иқтисодий-ижтимоий аҳволига малум даражада таъсир этиши билан бирга экологик вазиятни кескинлашувига ҳамда чўлланиш жараёнларини содир бўлишига олиб келади.

Тоғ олдыяйловлар экологик холатини яхшилашда истикболлиозукабоп ўсимликлардан фойдаланилган ҳолда экинзорлар яратиш орқали яйлов ҳосилдорлигини ошириш муҳим аҳамиятга эга. Яйловлар ҳосилдорлигини суъний оширишюзасидан ишлаб чиқилган йўл хариталари яйловларни ўзлаштириш, улардан фойдаланишни интенсивлаштириш ва экологик холатини оптималлаштириш каби тадбирлардан иборатдир. Бизнинг илмий тадқиқотларимизда тоғ олди ҳудудларда суъний яйловлар яратиш бўйича олиб борилган ишларимизни якуний хулосаларини кўриб чиқамиз.

Яйловлар экологик холатини оптималлаштиришнинг энг мақбул йўли фитомелиоратив тадбир бўлиб, унинг натижасида яйловэкологик барқарорлиги таъминланиб, ҳосилдорлиги 2-3 баробаргача ошиши кузатилди.

Тоғ олди яйловларни иқлимий хусусиятлари куруқ узоқ давом этувчи ёз-куз, кучли совуқли қиш жуда кам миқдордаги ёғин ёғиши билан характерланади. Ўртача ёғин миқдори 80-160 мм гача ўзгариб туриб, у асосан қиш ва баҳор ойларида тушади. Айрим қурғоқчил йилларда ёғин миқдори янада кам бўлиши кузатилади. Ушбу ҳудудлар яйловлари ҳосилдорлиги жуда паст бўлиб, йиллик ем-хашак ҳосилдорлиги 0,6-2,54 ц/га гача, об-ҳаво ноқулай йиллари 0,5-1,5 ц/га гача пасайиши мумкин. Бундай ноқулай иқлим шароитларда асосан доминантлик қилувчи ўсимликлар шувоқлар, эфемер ва эфемероидлар, бир йиллик ва кўп йиллик шўра ўтлардан иборат бўлиб, йил давомида яйловларда чорва молларининг асосий озукаси бўлиб хизмат қилади.

Бундай қийин иқлимий шароитда яйлов экологик ҳолатини яхшилаш, чорва молларини йил давомида ем-хашак билан таъминлаш, ўсимликлар деградациясининг олдини олиш, тупроқ эрозиясининг тўхтатишни энг мақбул йўли фитомелиоратив чора-тадбирлар бўлиб ҳисобланади.

Фитомелиоратив тадбирларни амалга ошириш ҳудуд иқлим шароитларини яъни тупроқ ва сув режими ўзгариб туришини ўрганиш орқали шу ҳудудга мос истикболли чўл озукабоп ўсимликларни танлаш муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқот ишимизнинг бош мақсади тоғ олди чала чўллар шароитига мос келувчи эколо-биологик ва қимматли хўжалик хусусиятларга эга бўлган истикболли ем-хашак ўсимликларни турларини ажратиш ва шулар иштирокида ем-хашак учун суъний яйловлар барпо этишдан иборатдир.

Ишимизнинг вазифаси ажратиб олинган ўсимликларнинг ривожланишини, ҳосилдорлиги, сув режими, ем-хашакнинг химиявий таркибларини қиёсий баҳолаш асосида энг мақбул турларини ажратиб олиш ва шулар асосида суъний яйловлар барпо этишдир.

Илмий ишимиз тоғ олди шувоқ яйловли бўлиб, ўсимлик қоплами асосан эфемероидлардан: ялтирбош, кўнғирбош, буталардан: шувоқ, янтоқ, исфен ва бир йиллик эфемероидлар ўсади.

Илмий тадқиқот ишимизда озукабоб ем-хашак ўсимликларидан изен, чуғон, камфоросма, терескен, шувоқ, қуйровуқларни экиб яйлов учун энг мақбулларини ажратиб олиш мақсад қилиб олинди.

Ушбу илмий тадқиқот ишларини амалиётга тадбиқ этиш мақсадида Нурота тоғ олди ҳудудида жойлашган Қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий тадқиқот иниститўтига қарашли Нурота тажриба даласида илмий тажриба ишларимизни олиб бордик ва кўп йиллик олиб борилган илмий тадқиқот ишлари яқунларини таҳлил қилиб қуйидаги натижаларга эришдик:

Ҳудуд табиий географик хусусиятларига мос ўсимликларни танлаб экиш ва уларнинг эколого-биологик хусусиятлари ўсиши, ривожланиши, уруғ тугиши, уруғдан кўпайиши ва энг асосий хусусияти уни ем-ҳашак ҳосилдорлини ўрганиш асосий вазифалардан биридир. Бунинг учун иссиқликка, қурғоқчиликка чидамли ўсимликларни ажратиб олиш ва яйлов деградацияси содир бўлган ҳудудларда фитомелиоратив тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ вазифадир. Бунинг учун чўл яйлов озуқабоп ўсимликларидан шу ҳудуд учун энг мақбул турларини аниқлаш лозим бўлади. Ҳудуд учун мақбул турлар иштирокида суъний агрофитоценозлар яратиш, яйловларни ўсимликлар сонининг хилма-хиллигини бойиши билан бирга ҳосилдорлигини ошишида муҳим аҳамиятга эга.

Чўл яйлов ем-ҳашак ўсимликларини ҳар томонлама ўрганиш, тажрибалар ўтказиш ва аниқ илмий хулосалар бериш ҳудуд учун энг мақбул ечимдир.

Истиқболи ем-ҳашак ўсимликларни урганиш, тоғ олди яйловлари ҳосилдорлигини оширишда катта аҳамият касб этиши, илмий исботланганлиги шу билан биргаликда , ҳудуд ўсимликлар қопламини бойиши, тупроқда сув шамол эрозиясининг камайиши ва умуман олганда биосеносда ижобий ўзгаришлар содир бўлиши илмий нуқтайий назардан ўз исботини топди. Тоғ олди яйловларда олиб бориладиган фитомелиоратив тадбирлар яйловлар ҳосилдорлигини бир неча бор ошишига ва ундан йил давомида фойдаланиш имкониятига яратади.

Тоғ олди чала чўларида олиб борилган тажрибалардан шу нарса маълум бўлдики, истиқболли ем-ҳашак, бута ўсимликларни қиёсий урганиш уларни табиий шароитига мослашиш ва юқори ҳосилдорлиги яйлов учун муҳим аҳамиятга эгадир.

Тажрибалардан малум бўлишича ҳудуд учун энг мақбул бута ўсимликларидан ч чуғон, терескен, изен, куйровук, шувок комфоросмалардан фойдаланиб яйловлар яратиш ва унинг ҳосилдорлигини 4-6 баробар ошишига ҳамда яшовчанлиги 15-20 йилгача сақланиб қолиши мумкин. Иқлим қулай бўлмаган йилларда ҳам яйловлар ҳосилдорлигида пасайиш кузатилмайди.

Тоғ олди чала чўллар шароитида ўсимликларнинг ҳосилдорлик кўрсаткичлари (ўртача 6 йиллик малумотлар асосида)

Нурота тажриба даласи

Н	Ўсимлик турлари	Куруклик ем ҳашак, с/га	Уруғ ҳосилдорлиги, с/га
	Изен	17.1	3.1
	Чўгон	17.0	2.8

	Терескен	9.5	0.8
	Шувоқ	10.0	1.0
	Конфоросма	8.0	1,5
	Қуйровук	17.0	4.1

Ўсимликлар мунтазам кузатиш ишлари: фенологияси, сув режими, уруғ ва ем-ҳашак ҳосилдорлиги кўрсаткичлари аниқланиб таҳлил қилинди.

Ўтказилган тажрибадан шу нарса маълум бўлдики ўзининг ривожланиши, иссиқа ва қурғоқчиликка чидамлилиги ва ҳосилдорлиқнинг юқорилиги билан изен, қуйровук, терескен ва чуғон ўсимликлари юқори кўрсаткичларга эга бўлиб, қиёсий урганиш натижаларига кўра доминантлик қилди. Шундан келиб чиқиб юқори истиқболли ем-ҳашак ўсимликларидан тоғ олди яйловлар ҳолатини яхшилашда фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлиб яйлов ҳосилдорлигини 4-6 бароварга ошириш мумкин. Шу билан бирга бу ўсимликлар ўзининг тўйимлилиги ва витаминларга бойлигини ҳисобга олсак қорақўл қўйларининг маҳсулдорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга.

Бундан ташқари тоғ олди яйловларида ҳосил этилган сунъий яйловлар ҳудуд экологик ҳолатини яхшилашида, сув ва шамол эрозиясини олдини олишда муҳим аҳамият касб этади. Олиб борилган фитомелиоратив тадбирлар ҳудуд биологик хилма-хилликни ошириши, биологик системада ижобий силжишларга ва яйлов ҳосилдорлигини ошишга олиб келди. Ушбу ишларни амалга ошириш республикамиз чорвачилигини янада ривожланишида, ҳусусан яйлов чорвачилигини яни қорақўлчиликни ривожлантиришда ва чўлланишни олдини олишда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абарутов Б.Д. Пастбищный тип функционирования степных экосистем. //Успехи современной биологии. М, 2006 435-447.
2. Махмудов М.М. «Қорақўлчилик яйловларининг ҳозирги ҳолати ва истиқболи. Фитомелиорантларни танлашнинг асосий критерийлари»
3. Махмудов Г.М. Улучшение пастбищ центральных Каракумов. Ашхабад. Цлым. 1979, 214 с
4. Раббимов А. Биологические особенности и селекция изеня *Kochiaprostrata* (L) Schard в аридной зоне. Узбекистана. Автореферат канд. Дисс. 1989 -435 с.
5. Петров М.П. Пустыни земного шара Л., «Наука» 1973, 435с.
6. Шамсуддинов З.Ш. Создание долголетних пастбищ в аридной зоне. Средней Азии. Ташкент: Фан, 1975, 176с.

УЎТ: 63\4

ОРОЛ ДЕНГИЗИ ҲАВЗАСИДА ЭКОЛОГИК ҲОЛАТНИ ЮМШАТИШ МАСАЛАЛАРИГА ОИД МУАММОЛАР

¹Халилов Х.Р., ¹Бобаева А.С., ²Назаров Х.Т.

¹Қорақўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти

²Самарқанд давлат университети

Орол денгизи Марказий Осиёнинг Қорақум, Қизилқум, Устюрт, Катта ва кичик Бўрсук ҳамда Оролбўйи Қорақуми каби йирик чўллари бирлашган ҳудуддаги ноёб денгиз бўлиб катталиги жиҳатидан дунёда тўртинчи ўринни эгаллайди.

Геологик маълумотларга кўра Орол Кайназой эрасида Шимолий муз Океанини Тетис билан туташтирган. Орол-Сарқамиш чўкмаси полиоценнинг ўрталаридан охиригача пайдо бўлган. Бундан 18-23 минг йил аввал тоғ музликларининг эриши натижасида Амударёнинг қўйи қисмининг Орол чўкмасига бурилиши сабабли денгиз пайдо бўлиши бошланган. Орол денгизи шаклланган даврда унинг сув сатҳи 50-60 метр ни ташкил этган [1, 7-14].

Маълумотларга кўра [3, 10-15] бундан 30 аср илгари суғорма деҳқончилик бошланиб, эрамининг X-асрларида Амударё ва Сирдарё оралиғида улкан ирригация тармоқлари пайдо бўлган. Аммо бу тармоқларнинг кўп марта бузилиши ва қайта қурилиши натижасида Амударё ва Сирдарё ўз ўзанларини кўп марта ўзгартирган. Инсон фаолияти туфайли Амударё Сарқамиш кўлига Каспий денгизига ҳам қўйилган, деган маълумотлар бор. XX-асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб суғорма деҳқончилигининг кўпая бориши Орол денгизига қуйиладиган сув миқдорининг камайишига сабаб бўлди. Сирдарёда Жанубий Голодностеп канали Қайроққум, Чардара, Чорвоқ сув омборлари, Амударёда Аму-Бухоро, Қарши каналлари, Туямўйин сув омбори, айниқса, Амударёнинг учдан бир қисм сувини олувчи ва Қорақум каналининг қурилиши Орол денгизининг қуриб боришининг асосий сабаби ҳисобланади. Шунингдек, қишлоқ хўжалигига сарфланаётган кўп сувларнинг оқиб чиқмайдиган Арнасой (Ҳайдарқўл), Сарқамиш ва Оёқ оғитма қуйилиши ҳам Орол фожиасига сабаб бўлмоқда.

Орол денгизининг қуриб боришига 1961-йилларда бошланган ва 80-йилларнинг бошланишида дарё сувларининг унга қўшилиши тўхташи натижасидир. Сирдарёдан сув келиши 1974-йилда тўхтаган бўлса, 1983-йилдан бошлаб Амударёдан оқиб келадиган сувлар ҳам кескин камайиб кетди.

Ҳозирги кундаги маълумотларга қараганда Оролнинг қуриган ҳудудида 5 млн. гектардан ортиқ кумли-тузли чўл пайдо бўлган ва ҳар йили атмосферага 75 млн. тоннадан зиёд чанг ва туз кўтарилмоқда. Оролбўйи ҳудудининг ҳар гектар майдонига йилига 5 тоннага яқин тузли чанг келиб тушади. Оролбўйи экин майдонларининг 77,3% и нинг мелиоратив ҳолати ёмонлашган.

С.Г.Шеримбетов (2016) маълумотларига кўра Оролқум тупроғинингкимёвий таркибида сульфатлар, хлор, натрий, магний каби минераллар йилдан-йилга кўпайиб кетмоқда. Бу ерда ушбу тупроқ-иклим

шароитига мослашган ўсимликларгина ўса олади. Қумли ҳудудларни асосан псоммофит (қумли тупроқларда ўсувчи ўсимликлар) лар (қандим, қуёнсуяк, селин, шувоқ ва астрагалларнинг) айрим турлари кабилар эгаллаган. Шўрхоқ тупроқларда қора саксовул, юлғун, сарсазан, кермак, олабута, балиқкўз, қизилшўра ва ҳ.к. лар ўсади.

Қорақалпоғистон Республикаси тупроқ-иқлим шароитларининг турли-туманлиги, ўзига хослиги туфайли табиий флорасининг бойлиги билан ажралиб туради. Республика флорасида 786 тур озуқабоп ўсимликлар турлари (ёки табиий флоранинг 89,4%) аниқланган [2, 10-15]. Шунингдек, истиқболли чўл озуқабоп ўсимлик турлари ҳисобланган изен, терескен, шувоқ, камфоросма, боялич, қора ва оқ саксовуллар, қандим турлари ва бошқаларни Қорақалпоғистон табиий флорасида учратиш мумкин. Шундай экан, ушбу истиқболли ўсимликлар иштирокида юқори ҳосилли яйловлар яратиш орқали республикада яйлов чорвачилигини барқарор ривожлантириш мумкин.

Қорақўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институтида юқорида қайд этилган истиқболли яйлов озуқабоп ўсимликларининг навлари яратилган ва сунъий яйловлар барпо этиш технологиялари ишлаб чиқилган. Яратилган навлар ёввойи флора вакиллари бўлиб, чўл ҳудудларининг тупроқ-иқлим шароитларида ўсишга ва юқори ҳосил тўплаш, қурғоқчилик, иссиқлик, қуёш жазирамаси, шўрланиш каби ноқулай омилларга ўта чидамлилиги билан ажралиб туради.

Ишлаб чиқилган технологияларни жорий этиш, шунингдек чўл озуқабоп ўсимликларининг истиқболли навларидан сунъий пичанзорлар барпо этиш учун уларнинг уруғчилик майдонларини барпо этиш ўта муҳим долзарб вазифалардан ҳисобланади. Чунки табиий шароитда тарқалган турларнинг уруғ сифати кўрсаткичлари янгидан юқори ҳосилли яйловлар барпо этиш талабларига тўлиқ жавоб бермайди. Табиий яйловлардан тайёрланган уруғлар (саксовулдан ташқари), сифатсиз бўлади, шунингдек ўсимликлар тарқоқ ва сийрак тарқалганлиги сабабли уруғ тайёрлашда катта қийинчиликлар туғдиради.

Демак чўл яйловлари фитомелиорацияси олдида турган энг долзарб масалаларни ҳал қилишнинг аниқ ва самарали йўли фитомелиорантлар уруғчилигини ташкил этишдан иборат, шунингдек уруғларни экишда ўзига хос агротехник усуллар тизимини қўллашни тақоза этади. Шунинг учун кўп йиллик истиқболли чўл озуқабоп ўсимликларининг истиқболли турлари ва навларини дастлаб Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудидаги тажриба майдонларида синаш ва уларни баҳолаш учун экиб ўрганиш ва шу шароитга мос навларни танлаб олиш зарур. Кейинги босқичда танлаб олинган истиқболли навларнинг бирламчи уруғчилигини ташкил қилиш учун уруғчилик майдонига экилади ва маҳаллий шароитга мос ўсимликлар уруғлари Оролнинг қуриган майдонларида сунъий яйловзорлар барпо этиш учун қўлланилади. Барпо этилган сунъий яйловлар Оролнинг қуриган қисмининг ўсимлик қопламини қайта тиклаш ва ҳосилдорлигини ошириш, биохилма-хилликни сақлаш ва бойитиш, ҳосилдорлигини 4-5 баровар

ошириш, экологик ҳолатини мувозанатлаштиришда ўта муҳим аҳамият касб этади.

Хулосалар

- Кўп сув талаб қилмайдиган ишлаб чиқаришга мўлжалланган ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш ва жойлаштириш ҳамда амалга оширилаётган ишларнинг экологик оқибатларига эътиборни қаратиш керак.
- Қишлоқ хўжалик экинларининг сув талаб қилмайдиган турлари иштирокида экин майдонларини кенгайтириш, жумладан яйлов озучабоп ўсимликларининг истиқболли турлари ва навлари орқали сунъий яйловлар барпо этиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Брекле Э., Агаханянц О.А., Букерер В. Опыты моделирования Аральского кризиса.// Проблемы освоения пустынь, 1998, №6.-с. 7-14.
2. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии. Ташкент, 1978.-296 с.
3. Попов В.А. Процессы опустынывания приаралья.// Проблемы освоения пустынь, 1998, №1.-с. 10-15.
4. Шеримбетов С.Г. Оролқум тупроқ қатламининг шаклланишида ўсимликларнинг таъсири.// Атроф муҳит ўзгариш шароитида ер ресурсларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш масалалари. – Тошкент, 2016.-539-541 б.

TÚSLIK ARAL BOYÍ GEOEKOLOGIYALÍQ MASHQALALARI

Nietullaev B.A., Allanazarov K.J., Ganiyev N.J.

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Annotaciya: Maqalada Túslik Aral boyı regionında júzege kelgen geoeekologiyalıq mashqalalardıń tiykarǵı sebepleri jáne házirgi zamandaǵı jaǵdayı bayanlangan.

Taynısh túsinikler: Aral boyı, geosistema, ekologiya, geoeekologiya,

Jámiyet rawajlanıwınıń házirgi basqıshı social-ekonomikalıq, siyasiy hám basqa mashqalalardı sheshiwde tiykarǵı tosqıqqa aylanıp baratırǵan hám tiykarınan adamlardıń házirgi ómirin belgileytuǵın global ekologiyalıq keskinliktiń kúsheyiwı menen baylanıslı. Insaniyat tábiyiy ortalıq penen óz-ara baylanısta júdá áhmiyetli basqıshqa keldi. Ayırım alımlardıń jazıwınsha insannıń xojalıq iskerligi artıp barg'an sayın, onıń tábiyiy ortalıqqa tásir ku'shi hár 12-15 jılda eki ese ko'beyedi eken. Sonıń menen birge jámiyettiń rawajlanıw súwretleri tábiyiy ortalıqtıń ózin-ózi rawajlandırıw hám qayta islep shıǵarıw súwretlerinen biraz adımlap ketken. Sonlıqtan, tábiyiy ortalıqtıń geologiyalıq hám biosferalıq ciklları tikleniw dárejesi hám adamzattıń social-ekonomikalıq rawajlanıwı ortasındaǵı qarama-qarsılıq nátiyjesinde global ekologiyalıq krizis qáwipi kúsheyip, qorqınıshlı, jiyelesken háreketke aylanıp barmaqta [1].



Сүврет. Арал теңизи һәм Арал бойы атирапınıн косmostan алынған көриниси.

Aral boyı regionı dúnvaniń kóplegen ilimiy dógereklerinde һәмde jámiyetlerdiń dıqqatın ózine tartıp turған ekologiyalıq jaǵdaylardıń keskinlesken oraylarınan biri bolıp tabıladı. Óz-ara bir-biri menen baylanıslı bolған: paxta ústemligi, suwǵarmalı maydanlardıń ósiwi, awıl xojalıǵı texnologiyalarınıń tómen dárejede ekenligi, ximiyalıq birikpeler һәм mineral tóginlerdiń nadurıs paydalanılıwı jáne basqada kóplegen faktorlar Aral boyındaǵı ekologiyalıq jaǵdaydıń keskinlesiwine alıp keldi.

Geosistemalardıń adam iskerligi tásirinde ózgeriwi bárqulla gózlengen maqsettyiń ámelge asıwına alıp kele bermeydi. Adamzattıń tábiyatqa bolған tásiри belgili bir muǵdarga deyin bolıwı kerek, tásiрdiń belgilengen muǵdardan asıp ketiwi menen ekologiyalıq turaqlılıq buzıladı. Bunıń aqıbetinde tábiyattıń kerі tásiри og'an bolған tásiр kóleminen bir neshe márte artıp ketiwi mu'mkin. Buǵan Aral boyında bolıp atırған ekologiyalıq һәм social-ekonomikalıq aqıbetlerdi mısал qılıp keltiriw múmkin.

Insan tábiyat baylıqlarınan paydalanғanda onıń social iskerligi belgili bir geografıyalıq aymaq (geosistema)da júz beredi, bul aymaq (landshaft yámasa onıń morfologiyalıq birlikleri) hámme tárepten tábiyiy kelip shıǵıw (genetikalıq) shegaralarına iye boladı. Sol orınıń tábiyiy baylıqları xalıq xojalıǵında qatnasıwı sebepli, dáslep tábiyiy shárayat ózgere baslaydı, onıń tiykarǵı háreketlendiriwshi faktorlarıda ózgeriwde boladı.

Tariyxqa názer salatuǵın bolsaq kóplegen ilimpazlar Aral boyı regionında júzege kelegen keskinliklerdiń sheshimlerin izlegen. Álbette, bul túyindi sheshiw házirgi kúnniń usı regionda jasaytın jáne dúnya alımları aldında da úlken bir mashqalalardıń biri bolıp sanaladı. Izertlew jumıslarınıń analizi boyınsha Aral teńizi haqqında bizge belgili birinshi ilimiy maǵlıwmatlardı 1825-1826-jıllarda Rossiya imperiyasınıń “Áskeriy ilimiy ekspediciya”sı tárepinen úyrenilgen dereklerde kóremiz. Biraq, bul ekspediciyanıń Ústúrt platosıda ámelge asırılǵan 2 ekspediciya boyınsha esaplari sol dáwirde joytıladı. Bul dáwirde áskeriy ilimiy ekspediciyanıń baslıǵı polkovnik Fridrix Vilgelm Rembert fon Berg bolǵan. Keyin ala, bunday ekspediciyalar bir qansha alımlar tárepinen túrli baǵdarlarda alıp barılǵan [2].

Aral boyı ekologiyalıq mashaqlasınıń kelip shıǵıwı XX ásirdiń 60-jıllarınan baslanǵan. Sebebi, sol dáwirde teńiz jaǵaları sheginiwdi baslanǵanlıǵı menen táriyplenedi. Aradan 10-15 jıl ótiwi menen Aral teńizi jaǵaları aldınǵı jaǵasınan sezilerli dárejede alıslasadı.

Bul jaǵalardıń sheginiw sebeplerin alımlar tikkeley Ámiwdárya hám Sırdárya dáryalarındaǵı suwlardıń az muǵdarda kele baslawı menen baylanıslı ekenligin aytıp ótken.

Alımlardıń izertlew-leri nátiyjesinde bul aymaqta kóplegen tartıslar júzege kelgen, bazı bir alımlar Aral teńizi boyına salı egiw kerek degen bolsa, bazı birewleri shorǵa shıdamlı ósimliklerde óspeydi dep aytıp ótken.

XX ásirdiń 80-jıllarına kelip Aral teńizi ekige bólinde - Kishi Aral (Arqa) hám Úlken Aral (Qubla) teńizi. Bul eki bóliminiń suwınıń kólemi teńizdiń 1960-jılдаǵı kóleminden derlik 10 ese az. Demek, teńizdiń tikleniw máselesi júdá qıyın geokologiyalıq mashqala. Bul geokologiyalıq mashqala sebebinen jergilikli xalıq teńiz sheginiwinen jábir kórdi, jáne kóplegen social-ekonomikalıq mashqalalardı payda boldı [3].

Bunday mashqalalardı sheshiw ushın birinshi gezekte teńizge quyılátın dáryalardıń derekleri jaylasqan mámleketler menen birge islesiw kerek boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Бердимуратова А.К. Обострение экологического кризиса в Среднеазиатском регионе (на материалах Приаралья). Философия и общество 2/1999 с. 126.

2. Берг Л.С. Высыхает ли Средняя Азия? // Известия Императорского Русского Географического Общества. 1904. - Т. XL. с. 507-521.

3. Рафиков А.А. Геоэкологик муаммолар. – Тошкент, «Ўқитувчи», 1997.

OZON QATLAMININ' JEMIRILIWI

Otenov N., Reyimbaeva A.

A'jiniyaz atindag'i No'kis ma'mleketlik pedagogikaliq instituti

Ko'pshilik adamlar ozon qatlamini' jerdegi tirishilik ushin qanshelli a'hmiyetli ekenligin bile bermeydi. Ozon qatlami degenimiz ne? Ozon kislorodtin' bir ko'rinisi yag'niy erkin kislorod atomlari kislorod molekulasini menen birigip ozon payda etedi. Quyash nurlari kislorodtin' pa'rshelewden payda bolatug'in bul element jer sharindag'i barliq tirishilikti, o'simliklerdi a'yne usi quyashin' qa'wipli ultrafiolet nurlaridan saqlaydi.

Yag'niy ozon qatlami jer sharinin' o'zine ta'n qorg'aw qalqanidur. Ozon qatlamini' tiykarg'i belgisi stratosferada, jer ju'zinen ortasha 15-50 km ba'lentlikte jaylasqan. Atmosfera qurami ozonni' 0.0001 protsentinden de kemirek. Biraq usi mug'dardin' 1% kemeyip ketse de to'mendegishe mashqalalardi keltirip shig'aradi. Ozon qatlamini' jemiriliwi na'tiyjesinde u'lken mug'dardag'i quyash radiatsiyasi jer ju'zine jetip keledi. Adamlarda teri ragi menen keselleniw keskin artip ketedi.

Shipakerler bul tu'rdegi keselliklerdi dawalaw og'ada qiyin ekenligin aytqan. Adamni' keselliklerge qarsi gu'resiwshe immum sistemasinda ha'lsizlik kelip shig'adi. Adamni' en' kerekli ag'zalarini' biri ko'zler ziyatlanadi eken. O'nimdarliq pa'seyedi, terekler qansha ku'tim bolsa da quwirap qalaberetug'inlig'i aytiladi. Sonin' menen birge o'simliklerdin' japiraqlari kishereyedi. Bul o'z gezeginde kislorod deregi bolg'an japiraqlarda fotosintez protsessine keru ta'sir ko'rsetetug'inlig'i aytilg'an. Ultrafiolet nurlar du'nya okeanindagi tirishilik ha'm o'simliklerdi de ziyatlanadi. A'sirese aziq awqat ushin a'miyetli esaplang'an, radiatsiyag'a og'ada ta'sirshen' bolg'an planktonlar ko'plep nabit bolip ketedi. Suwdin' betindegi suw otlari da ziyatlanadi. 1998-jildin' Arqa polyustin' to'besindegi ozon qatlamindag'i tesik ko'lemi record da'rejege yag'niy 26 mln.km kv ge jetken.

Bul pu'tkil Avstraliya materiginin' 3 ese u'lken degen so'z. XX a'sirdin' 50-jillaridan baslap, hawada Freon gazlarini' xlor, ftor, uglerod, mug'dari ko'beygenligi baqlana basladi. Bul gazlar 25 km ba'lentlikte jaylasqan ozon qatlami Quyashdan keletug'in ziyatli ultrafiolet nurlardi uslap qaladi. Ozon qatlamini' jemiriliwi na'tiyjesinde ozon "tesigi" payda boladi. Usi tu'yinnen jer betine ultrafiolet nurlarini' kirip keliwi da'nli eginler o'nimin keskin kemeytirip jiberiwi, adamlardin' teri ragi keseline shaliniwlarina sebep bolwi aniqlang'an.

Ozon qatlami 1,85-0,85 milliard jil aldin Jer atmosferasinda, onda fotosintez sebepli jeterli mug'darda kislorod toplang'anda payda bolg'an. Ozon qatlami 200 den 315mm ge shekem bolg'an tolqin uzunliqtag'I quyash nurlanawini' 97 den 99% ke shekemin jutadi.

Juwmaqlap aytqanda ozon qatlamini' jemiriliwi tek insaniyat ushin emes, al pu'tkil jer ju'zindegi tirishilik ushin qa'wip salmaqta. Sonliqtanda ilimpazlar ozon qatlamini' saqlap qaliwg'a, onin' jemiriliwini' aldin aliwg'a shaqiradi.

Paydalanilg'an a'debiyatlar:

1. Rafiqov A., Vahabov., Qayumov A., Azimov Sh. "Ameliy geografiya" Toshkent 2013.
2. Internet materiallari.

GLOBAL MIQYOSDA IQLIM O'ZGARISHINING OQIBATLARI

Iskenderov A., Amangeldiyev D.J., Ismailov R.Ya., Ermatov U.O.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar konsentratsiyasining o'sishi tabiiy issiqxona effektining kuchayishiga va yer yuzasining isishiga olib keldi. Agar tegishli chora ko'rilmasa, kelgusi yuz yillikning har o'n yilligida harorat $0,3^{\circ}\text{S}$ ga ortadi. Isish o'z navbatida qutblardagi muzliklarning yerishiga va Dunyo okeani sathining ko'tarilishiga olib keladi: 2030 yilga borib, dunyo okeani sathi o'rtacha 20 sm ga, XXI asr oxirida esa 65 sm ga ko'tariladi.

Prognozlarga ko'ra, butun dunyoda yog'in miqdorining ortishi kutiladi, lekin shunga o'xshash tendentsiyalarning mahalliy miqyosdagi ishonchligi ancha past. Ehtimol, XXI asrning ikkinchi yarmida shimoliy yarim sharning o'rta va yuqori kengliklarida hamda Antarktikada qishki yog'inlar miqdori ortadi. Tropiklarda esa, ishlab chiqilgan modellarga ko'ra, ayrim hududlarda yog'in miqdori ortsa, boshqa joylarda kamayadi. Avstraliya, Markaziy Amerika va Afrikaning janubiy qismida esa qishki yog'inlarning kamayishida barqaror tendentsiya kuzatiladi.

O'rta kengliklarda dovullarning takrorlanish tezligi haqida modellar, ma'lum darajada, qarama-qarshi natijalarni byermoqda. Momaqaldir va quyunlar kabi boshqa hodisalar ham mavjud bo'lib, ular haqida qandaydir prognozlar tuzish uchun hozirgi bilimlarimiz etarli darajada emas.

Iqlimning tez va to'satdan o'zgarishini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Lekin, dengiz sathining katastrofik ko'tarilishiga olib keladigan, /arbiy Antarktika muz qalqonining parchalanishiga o'xshash juda keskin o'zgarishlarning XXI asr davomida bo'lish ehtimoli juda kichikdir. Regional miqyosda iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan okean tsirkulyatsiyalarining o'zgarishi (masalan, evropani isitadigan Gol'fstrimning susayishi) bir necha o'n yilliklardan keyin ro'y byerishi mumkinligi haqidagi faktlar ham mavjud. Lekin, shunga o'xshash o'zgarishlarning issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar ta'siridagi isish sababli ro'y byerishi mumkinligi hozircha noma'lum. Gol'fstrimning kuchsizlanishini ko'rsatadigan iqlimiy modellar ham kelajakda butun evropa miqyosida isish bo'lishidan darak byermoqda.

Yer iqlimi hozirning o'zidayoq o'tmishdagi issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar chiqindilariga «moslashmoqda». Iqlimiy sistema global enyergetik balansni saqlash uchun ham issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar konsentratsiyasiga «ko'nikishi» lozim. Bu degani shuki, iqlim o'zgarimoqda va bu jarayon issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar miqdorining o'sishi mobaynida davom etavayeradi. Bugungi kunda olimlar doimiy ravishda boyib borayotgan ma'lumotlar bazasining

global isishning umumiy ko`rinishlarini tasdiqlayotganligiga hamda iqlimiy sistemadagi boshqa o`zgarishlarga ishonch hosil qilganlar.

O`lchashlar natijasida olingan ma`lumotlar o`rtacha havo haroratining XIX asr oxiridan buyon $0,6 \pm 0,2$ °S ga ko`tarilganini qayd etmoqda. Bu kuzatishlar iqlimning hozirgi kungacha bo`lgan isish darajasini prognozlashda foydalaniladigan modellar asosida tuzilgan prognozlar bilan mos tushadi. Ta`kidlash lozimki, ayerozollarning sovituvchi ta`siri hisobga olinganda moslik yanada ortadi. Asosiy isish 1910 – 1940 yillarda kuzatilgan hamda 1976 yildan shu kungacha davom etmoqda. Ehtimol, shimoliy yarim sharda (tegishli tahlilni amalga oshirishga imkon byeradigan ma`lumotlar mavjud bo`lgan rayonlarda) XX asrdagi isish sur`atlari va davomiyligi oxirgi ming yildagi har qanday davrga nisbatan katta bo`ldi. Bundan tashqari, 1990 yillar ming yillikning eng issiq o`n yilligi, 1998 yil esa eng issiq yil bo`lganga o`xshaydi.

Bu davrda dengiz sathi o`rtacha 10–20 sm ga ko`tarildi. Chunki, okeanlar yuqori qatlamlarining isishi bilan suv kengayadi, dengiz sathi esa ko`tariladi. Modellar asosida taxmin qilish mumkinki, haroratning bugungi kungacha $0,6$ °S isishining o`zi dengiz sathining hozirgi kundagi ko`tarilishiga olib kelishi kyerak edi. Lekin boshqa, ya`ni prognozlash uchun ancha murakkab bo`lgan o`zgarishlar, ayniqsa kuchli qor yog`ishi, Grenlandiya hamda Antarktikadagi muzlarning yerishi, shimoliy materiklarning ko`p asrli muzliklardan sekin asta «xalos» bo`la borishi ham real va tassavur qilinayotgan dengiz sathiga ta`sir ko`rsatadi.

1960 yillarning oxiridan buyon qor qoplami qalinligi shimoliy yarim sharning o`rta va yuqori kengliklarida 10 % ga kamaygan. XX asr davomida ko`llar va daryolarda yillik muzlash davri taxminan ikki haftaga qisqarganligi ehtimoldan holi emas. Mana shu vaqt mobaynida, qutbdan tashqari, ko`pchilik regionlardagi mashhur tog` muzliklarining deyarli barchasi chekindi. Oxirgi o`n yillikda Arktikada bahor va yoz vaqtlarida muz qoplaminin davomiyligi 10 – 15 % ga, muzning qalinligi esa yozning oxiri va kuzning boshida 40 % ga kamaydi. Dunyoning ko`plab regionlarida yog`inlar miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Har o`n yillikda shimoliy yarim sharning o`rta va yuqori kengliklaridagi ko`plab rayonlarida yog`in miqdorining 0,5 – 1,0 % ga ortishi kuzatilmoqda. Bu holat bulut qoplaminin 2 % ga ortishi sharoitida ro`y byermoqda. Quruqlikning tropik rayonlarida, 10^0 shimoliy kenglik va 10^0 janubiy kengliklar oralig`ida ham, aytish mumkinki, atmosfera yog`inlari miqdori har o`n yillik davomida 0,2 – 0,3 % ga ko`paymoqda. Ikkinchi tomondan, XX asr davomida shimoliy yarim sharning subtropik rayonlarida, ya`ni o`ninchi va o`ttizinchi shimoliy parallellar orasida yog`in miqdorining har o`n yillik davomida 0,3 % ga kamayishi qayd etildi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda Afrika va Osiyoning ayrim qismlarida qurg`oqchilikning takrorlanishi va jadalligi ortdi.

Takidlash lozimki, iqlim o`zgarishining quyidagi foydali imkoniyatlari ham mavjud:

- o`rta kengliklarning ayrim regionlarida haroratning bir necha darajaga ko`tarilishi tufayli qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligi ortadi;
- o`rmonchilik bo`yicha yaxshi tajribaga ega bo`lgan regionlarning jahon bozoriga taklif etadigan yog`och materyallari miqdori ortadi;

- ayrim regionlarda, masalan, Janubi - Sharqiy Osiyo mamlakatlarida suv ko`payadi;
- o`rta va yuqori kengliklardagi aholi orasida qishqi davrdagi o`lim kamayadi;
- qishki haroratning ko`tarilishi uy-joylarni isitishga sarflanadigan energiyani kamaytiradi.

АМУДАРЁНИНГ ҚУЙИ ОҚИМИДА СУВ ТАНҚИСЛИГИГА БОҒЛИҚ ЎСИМЛИКЛАР ДУНЁСИДАГИ ЮЗ БЕРАЁТГАН ЎЗГАРИШЛАР

Жолдасбаев А., Турсинов М.

Самарқанд ветеренария институти Нукус филиали

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Қуйи Амударёнинг ўсимлик дунёси деярли бир хил. Булар асосан қумларда, шўр ерларда, тўқайларда, ботқоқликларда ва кўлларда ўсадиган ўсимликлардан иборат. Қумлик ва шўр ерларда асосан саксовул, жувсан, қораборак, соралар ўсади. Қурғоқчиликка мослашган чўл худудларида итсийгак, жувсан, саксовул, қум акацияси куплаб учраб катта хўжалик аҳамиятига эга. Сабаби улар биринчидан суғориб экиладиган зоналарга қараб қум босиш хавфининг олдини оладиган ихота полосаларини тузишга имкон берса, иккинчидан эрта баҳордан бошлаб чорвачилик учун асосий ем-хашак вазифасини бажаради. Чул ўсимликлари деярли ёзги қурғоқчиликка мослашиб ўсиб ривожланади ва қимматбаҳо ем-хашак ресурси ҳисобланади. Шўр ерларда қораборак, оқбош ва бошқа ўсимликлар ўсади, лекин уларнинг чорва моллари учун ем-хашак аҳамияти кам булиб, улардан асосан ёқилғи сифатида фойдаланилади.

Амударёнинг ҳозирги дельтаси тўқайлар билан қопланган, уларда асосан турангил, туйасингир, жигилдик, жийда, жингил, камиш, буян ўсади. Улар халқ хўжалигида катта аҳамиятга эга бўлиб, қурилиш материаллари, ёқилғи сифатида, йирик қорамол чорвачилигида яйлов сифатида фойдаланилади. Лекин ўсимликлар дунёси чўлга мослашганлигидан, барги ингичка бўлиб, намликни жуда кам чиқаради. Шу сабабдан ўсимлик дунёси тупроқ таркибидаги намликни сақлаб туришда ва сув ресурслари манбайини орттиришга тасири кам. Ўсимликлар дунёсининг тупроқ таркибида гумус чириндиларини ҳосил қилишда таъсири жуда кам. Шу сабабдан тупроқдаги гумус чириндиларининг нисбий улуши 0,8-2,3% дан ортмайди. Шундай қилиб, Амударёнинг қуйи оқими табиий шароитини ўрганиш ва уни хўжалик томонидан кузатиш кўплаб ҳолларда табиий шароитнинг ресурс тўплашдаги урни жуда кам еканлиги кузатилади. Шунга мос ўлкамизнинг ер фонди категорияларини урганиш унинг ҳосилдорлигини орттириш, шунингдек сув манбаларини тўплаш кун тартибидаги долзарб масалалар қаторига киради. Бу район худудида ер-сув ресурсларнинг шаклланишида табиий омилларнинг салбий жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда, етарли даражада агротехник

қоидаларни амалга ошириш орқали, қишлоқ хўжалиги соҳаларининг самарадорлигини оширишга йўл очади.

